

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrası

**O‘qituvchisi Muydinova M**

**SOTSILOGIYA FANIDAN**

***MA‘RUZA MATNI***

HAMAHAH 2017

## 1-MAVZU: SOTSILOGIYA FAN SIFATIDA. (2 SOAT)

### Reja:

1. Sotsiologiya atamasi, ta'rif, predmeti va ob'ekti.
2. O. Kont sotsiologiya fanining asoschisi.
3. Sotsiologiya fanining rivojlanish bosqichlari.
4. Sotsiologiya fanining vazifalari.
5. Sotsiologiya fanining asosiy yo'nalishlari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.

**Sotsiologiyaning predmeti va ob'ekti.** Sotsiologiya (lotincha *societas* – jamiyat va yunoncha *Logos* – ta'limot) – so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Yaxlit tizim sifatidagi jamiyat va alohida institutlar, ijtimoiy guruxlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan. Sotsiologiya inson hayotining ijtimoiy jihatlari o'rganadi.

Sotsiologiya – insoniyatning bir necha yillik tarixiy taraqqiyot davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir.

Sotsiologiyaning asoschisi fransuz mutafakkiri O. Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. E. Dyurkgeym sotsiologiyaning predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi.

Marksizmda sotsiologiya predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyatda va uning tuzilmaviy elementlarini tashkil etgan shaxslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o'rganish hisoblanadi.

Hozirgi bizning adabiyotlarda sotsiologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: Sotsiologiya - yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishi to'g'risida fandır.

Sotsiologiyaning ob'ekti jamiyatning boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalaridir. Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z obyektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsial reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning obyekti bo'ladi. Insonlarning o'zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umummilliy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Xususan, ob'ektiv va sub'ektiv, erkinlik va zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib sotsiologik ob'ekt mohiyatni talqin etadi.

Sotsiologiya sotsial ob'ektni sotsial subyektlar orqali (shaxs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) tahlil qiladi.

Sotsiologiya turli sotsial sohalarni tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlili va tasnifi

orqali u jamiyat va inson to'g'risidagi umumiy qarashlar, qonunlar va tendensiyalarni yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z ob'ekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar. Sotsiologiya bu sohalarda o'z obyekti inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi o'rni va rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni xal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus obekti asosida yakka shaxs faoliyati konkret namoyon bo'lishini empirik darajada o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

O.Kont fikricha, obyekt va predmet qarama-qarshiliklardan iborat. Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini 3 bosqichda o'rganadi:

1. Anik- empirik
2. Xususiy (maxsus)
3. Umumiy.

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umum-sotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Sotsial degan tushuncha, sotsial aloqalar, hamda munosabatlar va ularni tashkil etish usullari, sotsiologiya bilish obyektining o'ziga xosligini ochib bersa, sotsial qonuniyatlar esa sotsiologiya fani predmetini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

Sotsiologiyaning predmeti:

Agar fanning ob'ekti uning nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet esa o'sha obyektning qaysi jihatlarini o'rganadi? degan savolga javob beradi.

Sotsiologiya – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o'rni, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandır.

Sotsiologiya – ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o'rganadigan fan hamdir.

Sotsiologiya – jamiyat tuzilishini, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni o'rganadigan fandır.

Sotsiologiya – shaxsda ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko'nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko'maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishdagi jismoniy, emotsional-psixologik va ma'naviy imkoniyatlarini ishga soladi.

Sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng qulay variantlarini, ijtimoiy-madaniy modellarini topishdan iboratdir. Bular jamiyat va

insonning o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

**O.Kont pozitiv sotsiologiya asoschisi.** O. Kont sotsiologiya fanini fan sifatida rivojlantirishga katta xizmat qilgan jamiyatshunos olimdir. Uni bejiz sotsiologiyaning “ota”si hisoblashmaydi. O.Kont tufayli sotsiologiya jamiyat haqidagi mustaqil fan sifatida rivojlandi. 1830-1842 yillarda o‘zining mashhur 6 tomlik “Pozitiv falsafa ruhi” kitobini chop ettiradi. Unda fanlar klassifikatsiyasi, pozitiv falsafa va sotsiologiya prinsiplarini ishlab chiqdi. 1842 yilda inson muammosini o‘rganadi va 1848-yil “Pozitiv jamiyat” nazariyasini ishlab chiqdi. Umrining oxirgi yillarida yangi “diniy” ta’limot-pozitivizm ya’ni sotsial fanlar asosida insoniyatni axloqiy birlashishini, jamiyatni qayta qurishni asos tutuvchi g‘oya bilan shug‘ullandi. Fanni metafizika va teologiyadan ajratish Kont metodining asosiy g‘oyasi edi. U pozitiv so‘ziga bir necha ma’noda qaradi. Eng muhimi bo‘lmag‘ur xomxayollik, ishonchsizlik, noaniqlik kabi salbiy xodisalarga tanqidiy fikrini bayon etdi. O.Kont jamiyat haqidagi pozitiv fanni dastlab sotsial fizika, keyinroq esa sotsiologiya deb atadi. Sotsiologiya jamiyat xodisalarini fundamental qonunlarini o‘rganuvchi hamda “sotsial fizika”dan farqli o‘laroq nazariy fan ekanini tadqiq etdi. Kont sotsiologiyani inson aql zakovati va psixikasi qanday qilib ijtimoiy xayot ta’siri ostida takomillashib borishi mumkinligini tushuntiruvchi yagona fandır deb bildi. Kont nuqtai nazariga ko‘ra, sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandır. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to‘plangan empirik ma’lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

O. Kont tomonidan 1839 yilda «Pozitiv falsafa ruhi» asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o‘rganish sifatida sotsiologiya atamasini qo‘lladi va bu sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Keyinchalik sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sotsial faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo‘shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. O.Kont sotsiologiyani 2 qismga ajratadi: a) sotsial statistika va b) sotsial dinamika. Sotsial statistikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o‘rganilishini ko‘rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy taraqqiyotni nazarda tutib, jamiyatning ma’naviy va aqliy rivojiga insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Bu tamoyil hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. O.Kont: «Har qanday bilim tafakkur mahsulidir va u insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak, aks holda bu bilimlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanilsa, jamiyatga katta zarar keltiriladi», degan edi.

**Sotsiologiya fanining rivojlanish bosqichlari.** Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XVIII asrdagina G‘arbiy Yevropada paydo bo‘lgan bo‘lsa ham uning ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Odamzod har doim o‘z xatti-harakatining sabablari bilan qiziqqan, ularni yuzaga chiqaruvchi omillarni o‘rgangan. Shuning uchun ham, eng qadimgi falsafiy tizimlar ijtimoiy hayotni va tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini o‘zi-ga xos holda tushuntiradigan biron-bir ijtimoiy falsafani o‘z ichiga oladi.

Lekin, ming yillar davomida bu urinishlar tafakkurning avloddan av-lodga o‘tib

kelayotgan va diniy tushunchalarga tayangan an'anaviy usullariga asoslanadi. Inson xatti-harakati hamda kishilik jamiyatini muttasil ravishda bir tizimga solib o'rganish asosan keyingi 200-300 yillar ichidagi yutuqlardan biridir.

«Sotsiologiya» atamasini fanda birinchi bo'lib fransuz faylasufi Ogyust Kont 1839-yilda qo'lladi. Uning fikricha, sotsiologiya bir butun organizm deb hisoblangan jamiyat haqidagi bilimlarni birlashtirishi va ularni dalillarni o'rganish orqali ilmiy asoslashi lozim. Sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishini, albatta, sotsiologiya so'zining kashf etilishi bilan bog'lash to'g'ri emas. Aniqrog'i, sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida vujudga kelishi Yevropada «jamiyat» so'zining keng miqyosda qo'llanilishi, uning nazariy asoslarining ishlab chiqilishi bilan bog'liq. XVIII asrda avtonom fan sifatida tarix falsafasi, jamiyat taraqqiyoti qonunlarini va karakterlanuvchi kuchlarini o'rganishga bag'ishlangan edi.

Sotsiologiya o'z oldiga ikki asosiy vazifani qo'yadi:

- jamiyatni bir butun tizim sifatida o'rganish;
- jamiyatni pozitiv (ilmiy-vositaviy) usullar yordamida o'rganish.

Sotsiologiya fani jamiyatni dalillar tahlili va ilmiy umumlashmalar orqali emas, balki mavhum muhokama qiluvchi falsafadan farq qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor va o'zaro munosabatlarning tipik gu-ruhiy namoyon bo'lishi bilan emas, individlar xulq-atvorini o'rganuvchi psixologiyadan ham farqlanadi.

Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'yadi. Sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy tahlil qilishni ijtimoiy (sotsial) dalillarni empirik tadqiq qilish bilan qo'shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. XVIII asrda vujudga kelgan turli ijtimoiy qarashlar ijtimoiy hayot tarkibini, shu bilan ijtimoiy hodisalarning, guruh va indi-vidning o'zaro aloqadorligini nazariy tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Sotsiologiya XVIII asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida, shu bilan birga fransuz revolutsiyasiga javob tariqasida vujudga keldi. U muayyan vaqt va jamiyatning mahsuli bo'lib, keyinchalik ijtimoiy voqelikka o'zi ham ta'sir ko'rsata boshladi. Sotsiologiya o'z davridagi ma'naviy va siyosiy oqimlar bilan bog'liq bo'lsa ham, ijtimoiy fikr faqatgina sotsio-logiyada ifodalanib qolmagan. Ko'plab mutafakkirlarning o'zlarini so-tsiolog deb hisoblamaganliklari bundan dalolat beradi.

XIX asrga kelib, sotsiologiya so'zini ijtimoiy tartib haqidagi ma-salani intellektual asoslash muammosi bilan boglaganlar. Sotsiologiya fani ijtimoiy tartib haqidagi savolga javob tariqasida vujudga keldi. Ijtimoiy hayot haqida yangi maxsus fan paydo bo'lgan bo'lsa, o'zini «sotsiologiya» deb hisoblagan, ayni paytda, ijtimoiy muammolarni turli tomondan o'rganayotgan qator sohalar mavjud edi. Hozirgi paytda sotsiologiya muammolari doirasi kengaydi, yo'nalish yoki pa-radigma deb nom olgan ko'plab muqobil munosabatlar vujudga keldi.

XX asrning 20-yillaridan jahon sotsiologiyasining markazi G'arbiy Yevropadan AQShga ko'chdi va faoliyati rasmiy tus oldi. AQShda sotsiologiya fani oliy o'quv yurtlarida o'rganila boshlandi. 1892-yilda Chikago universitetida

jahonda birinchi Sotsiologiya kafedrası va fa-kulteti ish boshladi. 1901-yildan boshlab oliy o'quv yurtlarida sotsi-ologiya fan sifatida o'qitildi. AQShdagi sotsiologiyaning taraqqiyoti yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'tish jarayonini tezlashtirdi.

Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishini quyidagi shart-sharoitlar bilan bog'lash mumkin:

1) o'z ratsionalligiga ega bo'lgan, Shuning uchun ham, siyosiy-institutsional tartibi mavjud bo'lgan davlatga bo'ysunavermaydigan, ko'pincha unga qarama-qarshi turuvchi va mustaqil hisoblangan ta-biiy-ijtimoiy tartib g'oyasi bilan;

2) bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan;

3) narsalar va hodisalarni ular rivojlanishida, ularni belgilovchi aniq tarixiy shart-sharoit bilan aloqadorligida bilish g'oyasi bilan;

4) fan va ilmiy progress zamonaviy konsepsiyasining ishlab chiqilishi bilan.

Shunday qilib, sotsiologiya fani atigi bir asr muqaddam falsafadan ajralib, mustaqil fan sifatida taraqqiy etgan bo'lsa-da, ularning aloqasi uzviydir. Falsafa sotsiologiyaning nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi.

**Sotsiologiyaning vazifalari.** Shunday qilib, sotsiologiya tarixiy aniq ijtimoiy tizimlar amal qilishining sotsial umumiy qonun va qonuniyatlari haqidagi, ushbu qonun va qonuniyatlarning shaxslar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida namoyon bo'lishi va ta'sir ko'rsatish dastagi haqidagi fandır.

Sotsiologiya uchun sotsial degan tushuncha asosiy xisoblanadi. «Sotsial» tushunchasi birinchi marta Karl Marks tomonidan foydalanilgan. Ular odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, hayot tarzi sharoitlari va dalillarini va insonning jamiyatda tutgan roli va holatini tahlil etganlarida «Sotsial» munosabatlar tushunchasini qo'llagan.

Sotsial u yoki bu xususiyatning va sotsial munosabatlarning o'ziga xos yig'indisidir. Har qanday sotsial munosabatlar tizimi (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) odamlarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga taalluqli. Sotsial degan tushunchaning o'ziga xosligini xarakterlovchi quyidagi asosiy jixatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, bu xususiyat turli guruh, individlar uchun taalluqli va ular tomonidan sotsial munosabatlarning u yoki bu xususiyatini integratsiyalash natijasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi sotsial munosabatlar (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) bilan bog'langan individlarning va ularning guruhlari o'rtasidagi turli munosabatlarning mazmuni va xarakterini anglatadi.

Uchinchidan, sotsial jihat turli individ va guruh individlarining bir-biriga, jamiyatdagi tutgan o'rniga, ijtimoiy hayot voqelik va jarayonlariga munosabatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, individlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning namoyon

bo'lishi birgalikdagi faoliyat natijasi demakdir.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoki bu formada va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, sotsiologiyaning asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi.

Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy burchi birinchi navbatda u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Xar qanday fanlar kabi sotsiologiyaning eng asosiy funksiyalaridan biri nazariya va amaliyotning birligidir.

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yo'naltirilganligi shunda namoyon bo'ladi-ki, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish mayllari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. Mana shunda sotsiologiyaning oldindan aytib berish funksiyasi namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizim qanday bo'lishidan qat'iy nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

Sotsiologiya mafkuraviy funksiyani ham bajaradi.

U birinchidan, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ikkinchidan, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish.

Uchinchidan, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish.

To'rtinchidan, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish. Sotsiologiya odamlar o'rtasida munosabatlarni shakllantirishga, uyg'un hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarga xizmat qildirib yaxshilashga ham yordam berishi mumkin.

Shu tufayli sotsiologiya insonparvarlik funksiyasini ham bajaradi.

**Sotsiologiyaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.** Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

- 1) U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi;
- 2) o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma gumanitar va ijtimoiy fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi;
- 3) U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rgatuvchi ijtimoiy gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. Ya'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlarni oladi;
- 4) Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan o'rganiladi va zarur hisoblanadi.

Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi shunda ko'rinadi-ki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. Shunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asoslanib e'lon qiladi-ki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni voqelikni ilmiy, anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi.

Sotsiologiya statistika fani bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishi statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Sotsiologiya shuningdek, iqtisodiy nazariya, boshqaruv nazariyasi, tarix, pedagogika, huquqshunoslik, siyosatshunoslik kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funkcionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyaning mazmuni ham yanada boyib, rivojlanib boradi. Yangi mazmundagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy qilib borishi, sotsiologiyaning o'rganish ob'ekti o'zgarib borishi bilan uning o'zi ham rivojlanib boradi. Tadqiqot usullari esa yanada mukammallashadi.

Sotsiologiya milliy mafkurani shakllantirish, yaratish jarayonida alohida o'rin tutadi. Eskirib qolgan dunyoqarash, eskicha moddiy va ma'naviy munosabatlar o'z o'rnini yangisiga osonlikcha bo'shatib bermaydi. Buning uchun ma'lum vaqt kerak. Sotsiologiya shu vaqt davomida ma'naviyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlashga va ilmiy asosga ega bo'lgan tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## **2-MAVZU: SOTSILOGIYA FANINING STRUKTURASI. (2 soat)**

**Reja:**



1. Fanda struktura tushunchasi.
2. Fundamental sotsiologiya.
3. Nazariy va amaliy sotsiologiya.
4. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar.
5. Makro va mikro sotsiologiya.

**Fanda struktura tushunchasi.** Struktura bu fandagi asosiy elementlar ularning joylashishi munosabati va tartibidir. Struktura bevosita fanning rivojlanish darajasi va uning elementlariga bog'liqdir. **Fanning** rivojlanib borishi davrida uning elementlari bir tizimga to'planib, bu sistema orqali esa bilimlarni tashkil qilish vositaligi tayinlanadi. Buning natijasida esa nazariy, metodologik, metodik va boshqa elementlar o'rganilayotgan voqelikni (reallikni) yaxlit ko'rinishda aks ettiradilar. Sotsiologiyaning strukturasi har xil tahlil qilish mumkin. Ayniqsa, bu strukturani aniqlash nazariy sotsiologiya, metodologiya va empirik tadqiqotni ajratib olishlik bilan ko'pincha yuzaga keladi.

Lekin bu sotsiologiyaning komponentlarini ajratib olish umumiyroq manoga ega, natijada esa fanning murakkab va har xil ko'rinishga ega bo'lgan strukturasi mazmuni kashf etilmaydi. Shuning uchun to'laroq va har tomondama hususiyatga ega bo'lish bilangina sotsiologiyani strukturasi ko'rsatib berish lozim. Sotsiologiya strukturasi fundamental va amaliy yo'nalishlarni, nazariy va empirik tadqiqotlarni, mahsus va tarmoq sohalarni ajratib ko'rsatish darkor. Ular bir-birlari bilan juda murakkab o'zaro dialektik aloqodordir. Ayrim hollarda bir-birlariga qo'shib ketadilar, boshqa holatlarda esa bir-birlarini inkor qiladilar. Tadqiqotimiz ilmiy, teran bo'lishligi uchun sotsiologiya strukturasi bu elementlarini alohida tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz.

**Fundamental sotsiologiya.** Fundamental sotsiologiya boshqa elementlardan o'zining hal qilayotgan muammolarining darajasi va ahamiyati bilan farq qiladi. Fundamental sotsiologiya mohiyatidan muammolar, abstraksiyaning (mavxumlik) oliy darajasi bilan shug'ullanib, sotsial olamning taraqqiyoti va borligi uchun zarur bo'lgan umumiy qonun va qonuniyatlari izlash bilan faoliyat ko'rsatadi. Fanning asosini ijodiy ishlashning uchta asosiy aspektini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, ontologik, ya'ni sotsial voqelikni mohiyati masalalarini yanada aniqroq aytadigan bo'lsak sotsiologiya ob'ektini, uning faoliyat ko'rsatish shakllarini tahlil qilib o'rganadi. Ma'lumki, sotsial dunyo murakkab ko'p qatlamlik, dinamik va o'zgaruvchanlik hususiyatiga egadir. Ontologiya borliq haqidagi ta'limot sifatida falsafada vujudga keladi va ushbu fanning bosh mavzusi hisoblanadi. Nafaqat bilishning shakl va metodlarini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi va yana sotsiologiyaning ob'ektini mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini ham qayta ishlash zaruriyati tug'ildi. Ontologik muammo masalalarini sotsiologiyadagi barcha nazariy yunalish vakillari

o‘zlaricha hal qilishga harakat qilganlar.

Ayniqsa, sotsiologik muammoga ekzistensial va fenomenologik maktablar chuqur etibor bilan qaraydilar. Lekin realistik yo‘nalish vakillari tomonidan ham bu muamoga kengroq etibor beradilar. Sotsial reallik insonlarning mustahkam o‘zaro harakati yangilanayotgan strukturaning natijasi sifatida tushuniladigan sinflar, jarayonlar va interpretatsiyadir.

Realistik yo‘nalish reallikni har hil darajasi, tabaqasini ajratib tahlil qildiki, bular shunday jabhalardir real, aktual va empiriklikdir. Bu intilishlar esa metodologik munosabat sifatida juda muhimdir. Reallikning ushbu jabhalari orasidagi o‘zaro borlig‘lik ularning sotsial voqelikni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatining tashkil etilishi ushbu yo‘nalishning behiyos xizmatidir.

Fundamental sotsiologiya nafaqat nazariy asoslarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi, binobarin bilishning umumsotsiologik fundamental prinsiplarini ham keng ma‘noda ishlab chiqadi. Sotsiologik bilishning mohiyati vazifalari, bilimlarning obyektivligi, u yoki bu prinsip va yondoshishlarni qo‘llash ham fundamental sotsiologiya muammolari majmuasiga taalluqlidir.

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi — bu sotsial olamning to‘liq tasvirini yaratashdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlashdir. Ilk bor fundamental nazariyalar tabiiy fanlar taraqqiyotiga tayangan, ayniqsa biologiya va fizikaga. Sotsiologiya fanining asoschilari huddi shu fanlarning eksperimental va empirik negizga o‘xshagan negiz asosida yangi sotsial fanni yaratishmokchi bo‘ldilar. XIX asrning ikkinchi yarmidagi yo‘nalishlar —pozitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlanuvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun o‘z kuch-g‘ayratlarini birlashtiradilar.

**Nazariy va amaliy sotsiologiya.**Sotsial voqelikning pozitivistik ruhidagi ko‘rinishi o‘rniga struktur-funksional, empirik ko‘rinishlari yuzaga keldi. Bu yo‘nalishlar sotsiologiyaning o‘z asosini, mustaqilligini izlashga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Ammo empirizm nafaqat fundamental nazariya ahamiyatini, balki nazariyani o‘zini ham butkul inkor qila boshladi. Buning natijasida esa sotsiologiya o‘zining yahlitligini yo‘qota boshlab, ijtimoiy hayotning har hil yo‘nalishlarini alohida-alohida tahlil qiladigan fanga aylana boshladi. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sotsiologiya o‘zining umumnazariy muammolariga qaytishni boshladi, shuningdek metodologik tadqiqotlarning ahamiyati ko‘p osha boshladi. Bu jarayonlar esa sotsiologlarni filosofiyaga qayta murojaat qilishga majbur qildi. Buning natijasida esa ekzestensial, fenomenologik yo‘nalishlar paydo bo‘ldilar. Ular esa sotsiologiyaning asosini, yangi metanazariyasini yaratishga harakat qila boshladilar hozirda bu tendensiya kuchayyapti.

Fundamental sotsiologiya rivojining ikkinchi muhim tushunchasi bu

sotsial jarayonlarning markaziy omili sifatida sub'ektga murojaat qilish bilan belgilanadi.

Shunday qilib, fundamental sotsiologiya bu nazariyadir, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriyasi va metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. SHuning uchun fundamental tadqiqotlarning roli beqiyosdir, funksiyalari esa hilma-hildir. Quyidagi funksiyalarni ajratib kursatish mumkin: dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik va hokozolar.

Dunyoqarash funksiyasi bevosita borliq va ong, insonning mohiyati kabi dolzarb muammolari bilan bog'liqdir. Chunki bu muammolar sotsiologiya fanining predmeti va ob'ekt yadrosini tashkil etadi. Bu muammolarni hal qilish jarayonida sotsiologiya filosofiya bilan juda faol o'zaro muloqot va dialektik aloqada bo'ladi va sotsial olam haqida ilmiy tasavvur yaratadilar. Umumsotsiologik nazariya negizida sotsiologiyaning umumiy metodologiyasi ishlab chiqiladi.

Sotsiologiya fani tizimida amaliy tadqiqotlar paydo bo'ldi va rivojlanayapti. Amaliy sotsiologiya tadqiqotlar fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi. Amaliy sotsiologiyaning hususiyati shundan iboratki, u orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni natijalarini qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi. Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shaklandi va rivojlandi.

Empirik va amaliy tadqiqotlarni tenglashtirishning yana bir sababi shundaki, empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib chiqadigan vosita hisoblangan. Binobarin bu masalaga bunday yondoshish uning mohiyatini to'g'ri tushunishga halaqit beradi. Empirik tadqiqotlarning vazifasi bu kuzatish, eksperiment, hujatlarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik malumotlar yig'ishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular amaliy tadqiqotlarni ijtimoiy hayotni turli sohalari faoliyatini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyanomalariga aylantiradi. Boshqaruv sistemasini elementi sifatida amaliy tadqiqotlar fanning ijtimoiy funksiyalarini bajara borib, uning natija va yutuqlarini amaliy faoliyatga aylantiradi, o'zining amaliy yo'nalishiga qarab ayrim hollarda amaliy tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar bilan qarama-qarshilik munosabatida bo'ladi.

Shunday qilib, amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy va metodologik bilimlarni ham shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya ilmiy bo'limning amaliy effektivligi masalalarini hal qila turib fundamental tadqiqotlarni rivojiga stimuly berish uchun yangi muammolarni

o'rtaga qo'yadi. Amaliy tadqiqotlar ilmiy faoliyatning alohida bir turi sifatida faqatgina nazariy va metodologik muammolarni hal qilmasdan protsedura va metodik muammolarni ham echishga intiladi.

Amaliy sotsiologiya taraqqiyotini belgilab beradigan bu omil ijtimoiy-siyosiy holatdir, chunki sotsial amaliyotning muammolarini belgilab, hal qilib berish bu sotsial buyurtmadir, har hil konkret-tarixiy sharoitlarda har turli xil muammolar oldingi o'ringa chiqishi mumkin. Ilk bor ishlab chiqarishni tashkil etish, shaxsning ijtimoiylashuvi, og'ishma hulq-atvor, urbanizatsiya va jamiyatni stabillashtirish muammolarini echish uchun sotsial buyurtmalar berilgan.

**Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar.** Amaliy tadqiqotlar tarmoq yo'nalishlarini shakllantiradi. Bu yo'nalishlarning orasida deviant xulq-atvor sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar ko'prok taraqqiy etgan. Inson o'limi muammosini o'rganadigan— nekrosotsiologiya, sotsialdiagnostikalar tarmoq yo'nalishlari orasida eng yangilari hisoblanadi.

Maxsus nazariyalar sotsiologiyaning ob'ektini muhim tomonlarini o'rganadi. sotsial struktura nazariyasi, o'zaro tasir nazariyasi, institutlar nazariyasi va hokozolar maxsus sohalar sifatida shakllandilar. Maxsus nazariya yoki o'rta daraja nazariyasi tushunchasini fanga R. Merton joriy etgan.

O'rta daraja nazariyasi sotsial tizimlarning umumiy nazariyasini sotsial hatti-xarakatning tashkil etilishning umumiylikiga mahsus kuzatilayotgan turlari bilan bog'lashi kerak. Bu nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, lekin ular ko'pincha faktlar bilan bog'liqdirlar va bitirish tadqiqotlar asosida shakllanadilar. SHuningdek, xususiy nazariyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin va ular sotsial jarayonlar quyidagi empirik malumotlar bilan ko'prok bog'langanlar. Bunday nazariyalar deb ko'yidagilarni aytamiz: referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va boshqalar.

Bu nazariyalar inson fe'l-atvorining mustahkam mexanizmlarini har xil sharoit va holatlarda ko'rinishni aniqlashga harakat qiladilar. Nafaqat axloqli nazariyalar balki faoliyatning turli hil turlari nazariyalari: mehnat munosabatlari, qadriyatli moslashni shakllantirish, tashkil qilish va boshqarish.

Sotsiologiyaning rivojlanish jarayonida sekin-asta maxsus va tarmoq yo'nalishlar vujudga kela boshladilar.

Xo'sh, maxsus va tarmoq yo'nalishlarning o'zi nima ma'noga ega?

Maxsus deb institutsional sotsiologiyani, shaxs sotsiologiyasini guruh, jamiyat, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasini e'tirof etamiz. Bundan tashqari yana shakllanib bo'lgan deb taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat, sotsial struktura va boshqalarni ajratib

ko'rsatishimiz mumkin. Institutsional sotsiologiya o'zaro harakatning mustahkam shakllarini tadqiq qiladi. Taraqqiyot sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining manbasi shakli, yo'nalishlari va uning tarkibiy qismlarini o'rganadi. Sotsial harakat nazariyasi esa insonning sotsial faoliyatini sabablari, turlari va ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Nima uchun bularni bir maxsus yo'nalishlar deb ataymiz, vaholanki sotsial institutlar, shaxs va guruhlar, sotsial munosabatlar va jarayonlar boshqa fanlar tomonidan ham o'rganiladiki gap shundaki, sotsiologiya hodisalarni yaxlit ijtimoiy struktura element sifatida tadqiq qiladi, binobarin xuddi shu vaqtda boshqa ijtimoiy fanlar institutlarni, munosabatlarni va guruhlarini o'zlarining predmetidan kelib chiqib, o'z sohalari doirasida o'rganadilar, masalan, siyosatshunoslik siyosatda, psixologiya sevgi-emotsional sohada, yuridik fanlar huquq sohasida va hokozo. Ushbu fanlardan o'laroq sotsiologiyaning vazifasi — bu sotsial munosabatlar, sotsial institutlar, sotsial harakatlarning umumiy nazariyasini yaratishdir. O'z navbatida bu masalalarni o'rganish uchun sotsiologiya boshqa fanlarning tadqiqotlariga ham tayanishi kerak. Jamiyat taraqqiyotiga taalluqli ushbu muammolarni echish masalasi ko'ndalang qo'yilar ekan, sotsiologiya tomonidan boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologik ahamiyatga eta bo'lgan nazariya yaratiladi.

Haqiqatdan ham ijtimoiy hodisalarning qaysi biri o'rganilmagan, ular institutsional, sotsial munosabatlar va harakatlar shakllari, shaxs, guruh xarakteri va tafakkur tarzi nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Maxsus yo'nalishlar fanining markaziy qismini tashkil qiladi, chunki u o'zini tadqiqotning boshqa barcha yo'nalishlar: fundamental, tarmog'i empirik yo'nalishlarni mujassamlashtirgan bo'ladi.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada yana tarmoq yo'nalishlari quyidagilar; shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, deviant hulq-atvor sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyani shakllangan. Keng rivojlangan ushbu yo'nalishlar ijtimoiy hayotni malum bir tomonlari, har xil tizimchalar, tafakkurning malum bir elementini o'rganish natijasida vujudga keldilar. eng rivojlangan yo'nalishlar bu—deviant hulq-atvor sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri-sotsiologiyasi. Bu yo'nalishlar XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga keldi. Masalan, deviant hulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi E. Dyurkgeym hisoblanadi. Ilk bor u deviant hulq-atvorning turi bo'lmish o'z-o'zini o'ldirish muammosini taxlil qildi, bunda o'z-o'zini o'ldirishni psixologik patalogiya emas, balki sotsial hodisa deb e'tirof etdi. Lekin ko'pgina tarmoq yo'nalishlar XX asrning birinchi choragida, Amerikada empirik tadqiqotlar negizida shakllana boshlandi. Bu vaqtda jamoatchilik fikri, sanoat sotsiologiyalarining markazlari vujudga kela boshladi. Tarmoq yo'nalishlar empirik tadqiqotlarning keng qamrovli amaliyotining negizida

shakllana boshladi, lekin ular sotsiologiyaning boshqa yoʻnalishlari bilan ham bogʻliqdir.

Tarmoq sotsiologiyasining taraqqiyoti jamiyatning turli xil tizimchalarining rivoji, ularning tarixiy sharoitlarining turli davrlaridagi ahamiyatining kuchayishi, yangi strukturalarning paydo boʻlishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

**Makrosotsiologiya** - (yunon. makros - uzun, katta sotsiologaya) - katta ijtimoiy guruhlar va tizimlarni (masalan, jamiyat, sivilizatsiya va h.k.) jarayonlarni harakatlarni va hodisalarni, shuningdek guruhlarini oʻrganishga qaratilgan tadqiqot yoʻnalishi.

**Mikrosotsiologiya** - (yunon. micros - kichkina va sotsiologiya) - sotsiologiyada nisbatan katta boʻlmagan ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni taxlil qilishga qaratilgan, alohida olingan hodisalarning mikrodarajadagi jarayonlar bilan aloqasini empirik tasvirlash bilan chegaralanadigan yoʻnalish, inson xulq-atvorini yuzma-yuz oʻzaro taʼsir kontekstida oʻrganish.

### **3-MAVZU: Jamiyat yaxlit tizim sifatida.**

#### **1. Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi.**

2. Jamiyat va davlat sotsiologiyasi.
3. Zamonaviy jamiyat turlari.
4. Sharq mutafakkirlarining jamiyat haqidagi qarashlari.

I. **Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi.** Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bu ijtimoiy tizimlar va ularning elementlari o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar turini tashkil qiladi. Ijtimoiy munosabatlar mafkurasini ifodalaydi hamda turli ijtimoiy guruhlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar xarakterini aks ettiradi.

Jamiyat, uning tizimlari o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, ularning asosiy komponenti inson hisoblanadi. Kishilar ijtimoiy hayotining turli sohalarida – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, oila turmushda faoliyat ko'rsatadilar. Ularning asosida esa ijtimoiy tarkiblar tuziladi. Ijtimoiy tizimlarning murakkabligi, tarkibidagi elementlarning soni ko'pligi bilan emas, balki, asosan, bu elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi.

Har qanday ijtimoiy jarayonlar inson faoliyati bilan bog'liq muayyan ijtimoiy birlik sifatida uyushgan kishilarning katta-katta guruhlarini: (sinflar, millatlar, milliy-etnik, ijtimoiy-demografik; nisbatan kichik tizimlar: o'quv-tarbiyaviy, oila-turmush va boshqa guruhlar; ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar, ittifoqlar) – jamiyatning ijtimoiy tarkibini tashkil qiladi. Ular tarixiy rivojlanish bosqichlarida turli ijtimoiy asoslarda shakllanadilar. Yashash sharoitiga, rivojlanish xususiyatlariga, ijtimoiy ehtiyojga, manfaatlarga va muayyan maqsadga ega bo'ladi. Ijtimoiy tizimlar zanjirida turli o'ziga xos halqaga ega bo'ladilar. Ichki tashkiliy tuzilishi, xarakteri, funksional va rivojlanish darajasi, turmush tarzi, faoliyat shakli va usullari bilan qadriyatlar tizimi, norma, g'oyalari, qarashlari va boshqa jihatlari bilan farq qiladilar.

Jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sotsial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarinig o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, o'z vaqtida keyingi oqibati oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotining salbiy oqibatlariga olib keladi.

Sotsiologiya tarixda jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim kishilarning birligiga emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi ta'limot bo'lib, ijtimoiy tizimlar rivojlanish va funksional qonuniyatlari, harakatlantiruvchi kuchlarini o'rganuvchi fandır. U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, shuningdek, shaxs kishilarning ijtimoiy hulqi, uning elementlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Avvalo biz jamiyatni sotsiologik nuqtai-nazardan quyidagicha o'rganamiz:

1) Jamiyatning tuzilishi va tarkibi o'rganiladi (ya'ni jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansubligi ko'riladi);

2) Jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning hatti-harakatlari nimalardan

iborat (ya'ni, ularning o'zaro munosabatlaridagi xarakterlari ko'riladi). Bunda biz jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning faoliyatlarini tasodifiy emas, balki aynan o'sha jamiyat qonuniyatlari asosida rivojlanib borishini ta'kidlashimiz kerak.

Jamiyatdagi kishilarning qanday tabaqalarga taqsimlanishi, ushbu jamiyatning qanday kishilardan iborat ekanligi, jamiyat ichki faoliyatida kishilarning o'zlarini qanday tutishlari va o'zaro munosabatlarning qay darajada ekanligi, alohida bir kishilarning hatti-harakatlarini qanday kuchlar boshqarib turishligi – kishilarning o'zaro munosabatlaridagi xarakterining o'zagini tashkil etadi.

3) Jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai-nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o'tishi bilan o'zgaradi. Taraqqiyotning misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib borishi jamiyatdagi o'zga ikkinchi yoki uchinchi bir qadriyatlar bilan qorishitirib yubormoqda. Kechagi avlodning yashash tarzi bugungi avlodnikiga mos kelmay qolmoqda, bugungi avlodniki esa ertangi avlodning yashash tarziga mos kelmaydi. Shuning uchun jamiyatni to'liq tushunish uchun nafaqat uning tuzilishi va rivojlanishini, balki uning o'tmishini, ya'ni tarixini ham sinchiklab o'rganish, bu jamiyatning qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilish jamiyatni to'liq tushunmoqlikka imkon yaratadi.

**Jamiyat va davlat sotsiologiyasi.** Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega bo'lgan, o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettirgan, individual sifatlarga, shaxsning ijtimoiy belgisi, qiziqishlari, qadriyatlar yo'nalishi, shaxs motivlari va hokazo ega bo'lgan shaxslar jamiyatning elementi hisoblanadi.

Jamiyat umumiy tabiiy-tarixiy tizim sifatida o'zida ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy, mafkuraviy, siyosiy strukturalarining organik birligini tashkil etadi. Kishilarning turli ijtimoiy guruhlarining o'zaro birligi yoki jamiyat tizimining tabiiy-tarixiy xarakterini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Jamiyatning har bir sohasi ishlab chiqarish taraqqiyotida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy munosabatlar – ijtimoiylashuvini /sotsializatsiya/, siyosiy munosabatlar – ijtimoiy boshqaruvni /elementlar nazorati/, mafkuraviy munosabatlar – ma'naviy ishlab chiqarish funksiyasini va b.

Sotsiologik nazariya barcha ijtimoiy tizimlarni 1) sotsietal; 2) ijtimoiy munosabatlarda ko'radi. Sotsietal tizimlarga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ularning har biri bir-biri bilan aloqada bo'lgan aniq bir strukturaga ega bo'ladi. Jamiyatning sotsietal tizimi – ierarxik qaramlikni tashkil etadi, ya'ni iqtisodiy munosabat bunda belgilovchi omil bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy munosabatlar uning ishlab chiqiriluvchisi bo'ladi.

Sotsietal tizimlar o'z tarkibiga ko'ra quyidagicha joylashtiriladi: 1/ iqtisodiy; 2/ ijtimoiy; 3/ siyosiy; 4/ mafkuraviy;

Sotsietal tizimlarning bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lishi dialektik xarakterga ega. A.Smit «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsulidir, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ishlashga ham majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda, aksincha, o'zi uchun



ham ishlaydi» deydi. Shuning uchun aynan shu tizimda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, bazis va ustqurma, ijtimoiy ong kabi falsafiy kategoriyalar ishlatiladi.

Sotsiologik nuqtai-nazardan jamiyat – bu kishilarning, birlikda yashash va o‘zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo‘lib, o‘z faoliyatlarida bir-biriga ta’sir ko‘satuvchi uyushmasidir.

Jamiyat tashkil topishi uchun eng kamida ikki kishi bo‘lishi kerak, bu jamiyatning oddiy ko‘rinishi bo‘lib, uning murakkab shakllarini shakllantirib boradi, ya’ni oilaning qurilishi bu oddiy jamiyat, bu jamiyatda A.Smit ta’rifi bo‘yicha jamiyat a’zosi ham o‘zi uchun, ham o‘zga bir kishilar uchun ishlaydi, murakkab jamiyatning shakllanishiga o‘z hissasini o‘z oilasi bilan birga qo‘shadi. Bu misollarni yana partiyalar tuzilishida, diniy yoki zamonaviy guruhlarning paydo bo‘lishida ko‘rib borishimiz mumkin, qaysidir bir dinning rivojlanishi natijasida dindorlar jamiyati oddiylikdan murakkablik sari boradi, partiya tashkilotlari va guruhlar tuzilishida ham aynan shunday sotsietal tizim munosabatlarini ko‘rib borishimiz mumkin.

Jamiyatning «ijtimoiylik» tizimi unsurlar sifatli munosabatlarini hodisalar ham jarayonlarda aks ettiradi. «Ijtimoiylik» tizimining asosiy unsurlarini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi, ya’ni bular sinflar, millatlar, professional, demografik, hududiy va siyosiy guruhlardir. «Ijtimoiylik» tizimining elementini kishilar tashkil etadi. Bunda har xil ijtimoiy jamoalarga birlashgan kishilar bir-birlari bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladilar. Ushbu aloqadorlik jarayonida kishilar ma’lum bir individga va ma’lum bir mehnatga ta’sir o‘tkazadilar.

Jamiyatni tushunish va jamiyat to‘g‘risidagi fikrlar O.Kontning sotsiologik nazariyasida ham aks ettirilgan. O.Kont, D.Yum, A.Smit, Russo, Sen-Simonlarning jamiyat to‘g‘risidagi nazariyalarini rivojlantirdi. O.Kont sotsiologiyada psixologiya, siyosiy iqtisod, etika, falsafa tarixi fanlarining tushuncha va metodologiyasi sintezlashtiriladi.

Jamiyat – o‘zaro munosabatda bo‘lgan «zarrachalar», «elementlar», «atomlar»ning /avtomatik/ harakatda bo‘gan mexanizmi deb qaraladi.

Individ hatti-harakatlari va qiziqishlarini O.Kont abstraksiya deb hisoblaydi.

Ijtimoiylikning ajralmas unsuri sifatida inson emas, oilani olib, oila jamiyatning ijtimoiy organizmining birligini tashkil etadi.

Bu erda kishilarning o‘zaro aloqadorligi /«assotsiatsiya» emas, balki ajralmas birligi hukmronlik qiladi, deb Kont o‘z fikrlarini davom ettiradi./

Jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida ko‘pgina sotsiologlar o‘z ta’limotlarini yaratganlar, jamiyat to‘g‘risidagi nazariyalarni boyitib, o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shganlar. Bular Zimmel, Parsons, Lumi, Chikago maktabi namoyandalari va boshqalar.

Sotsiologiyada jamiyatning quyidagi yo‘nalishlari mavjud: 1/ mexanitsistik. 2/ organitsistik. 3/ kulturologik.

1. Jamiyatning **mexanik** yo‘nalishi (XIX asrda vujudga keldi, sotsial harakatni biologik harakat shaklida tushunadi, olamni mexanik talqin qiladi.).

2. Jamiyatning **organik** konsepsiyasi (XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan, jamiyatni organizmga tenglashtirgan va ijtimoiy hayotni biologik

qonuniyatlar bilan tushuntirishga urinadi.)

3. **Kulturologik** yoʻnalish:- qadriyatlar madaniyatni vujudga keltiradi, deb talqin qiladi.)

Ijtimoiy hayot nisbatan mustaqil, barqaror, funksional va rivojlanish qonuniyatlariga ega boʻlgan ijtimoiy tizimlar birligidan iboratdir.

**Ijtimoiy tizim** – murakkab ichki tuzilishga ega boʻlib, tartibli, bir butun, oʻziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi. Har qanday ijtimoiy tizim oʻzining tarkibiy tuzilishiga ega. Jamiyatning ayrim tarkibiy tizimlari, masalan: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, maʼnaviy, ijtimoiy turmush, fan va boshqa shu kabi sohalarida, to alohida olingan insongacha boʻlgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon tarzida boradi. Har bir ijtimoiy tizim boshqasining, yuqori darajadagi tizimning tarkibiga kiradi. Oʻzi esa quyi, kichik tartibdagi tizimlarni oʻz takribiga oladi. Jamiyat hayotida biron bir ijtimoiy tizim alohida ravishda boshqalaridan, ijtimoiy muhitdan ajragan holda yashay olmaydi.

Har bir ijtimoiy tizim oʻzgarmas va abadiy emas. Ular tarixiy taraqqiyoti davomida doimo oʻzgarib, rivojlanib boradi. Ichki, tashqi funksional va ziddiyatli munosabatda boʻladi. Har qanday ijtimoiy tizim oʻzining tarkib topish, rivojlanish, gullab-yashnash va tanazzuliga ega boʻladi.

Ijtimoiy tizimlarga tarixiylik xos boʻlib, tarkibidagi element va mayda tizimlarning oʻzaro aloqadorligi, ziddiyatliligi – ularning rivojlanishi mohiyatini belgilaydi. Tashqi oʻzaro aloqadorlik ham ijtimoiy tizimlararo munosabatlar asosini tashkil qiladi.

Alohida olingan inson va jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy jarayonlar tizimi oʻrtasidagi munosabatlar oʻzaro ierarxik tuzilishga egadir. Oʻzaro ierarxik tuzilish ularni boshqarish imkonini beradi.

Ijtimoiy tizimlar maqsadga yoʻnalganligi, moslashuvchi, ochiq, oʻzini qayta tiklash, funksional va rivojlanish kabi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Har bir ijtimoiy tizim tashqi ijtimoiy muhit bilan doimiy aloqadorlikda boʻladi. Kishilar, ijtimoiy voqelik, jarayonlar va gʻoyalar ijtimoiy muhit elementlari sifatida namoyon boʻladi.

Hozirgi yangi ijtimoiy munosabatlarning tarkib topishi jarayonida ijtimoiy muhit sotsiologik jihatdan tahlil qilish masalasi muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy tizimlar oʻzlarining ijtimoiy vazifalari, funksiyalari bilan oʻzaro farq qiladi. Ular muayyan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy va boshqa qonuniyatlar asosida faoliyat koʻrsatadilar.

Parsons fikricha, ijtimoiy tizim, eng avvalo, faoliyatli tizimdir. Masalan, iqtisod, siyosat, huquq kabi oʻzaro taʼsirida boʻluvchi ijtimoiy tizimlar ahloqqa, maʼnaviyatga faol taʼsir koʻrsatadilar.

Har qanday ijtimoiy tizimlarda ikki tipdagi funksional vazifa va rivojlanish qonuniyatlari amal qiladi. Ularning funksional va rivojlanish xususiyatlari ikki omil – ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Ichki omillarga birinchi navbatda tizim va uning komponentlari, komponentlarning oʻzaro munosabati kiradi. Tashqi omillarga ijtimoiy tizimlarning tashqi muhit bilan aloqadorligi kiradi.

Ijtimoiy tizimlarning tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorligi ularning asosiy mavjudlik va yashash sharti hisoblanadi. Tashqi ijtimoiy muhit muvozanatini saqlashi va o'zgarishini hisobga olish bu ijtimoiy tizimlarning funksional vazifa o'zgarishi va rivojlanishini sotsiologik tadqiq qilishda birinchi darajali ahamiyatga ega.

### **Zamonaviy jamiyat turlari.**

1. **Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati.** G'arb sotsiologiyasida hozirgi kapitalistik davlatlarning qiyofasi ifodalab, «umumiy rohat-farog'at» va «iste'mol qilish jamiyati» degan nazariyasi vujudga keldi. Ushbu nazariyaga ko'ra iqtisodiyotning o'sishi va yangi texnologiyaning ishlab chiqarishga tadbiq natijasida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ortib boradi, mo'l-ko'lchilik natijasida iste'mol mahsulotlarining ko'plab realizatsiya qilinishi natijasida jamiyatdagi har bir kishining baxtli va nizolarsiz hayot kechirishi ta'minlanadi. Hozirgi kunda shunday davlatlar fikrimizcha rivojlangan kapitalistik davlatlarda, ayniqsa Skandinaviya davlatlari hayotida asta-sekin namoyon bo'lib bormoqda.

2. **Istemol qilish jamiyati.** Unchalik nazariy, empirik va amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan tushuncha. Amerika sotsiologlari tomonidan XX asr 40-50 yillarida jamiyatning har bir a'zosining hayot darajasini yaxshilash maqsadida paydo bo'layotgan tasavvurlarning keng yoyilishi natijasida vujudga kelgan nazariya.

3. **Ochiq va yopiq jamiyati.** Sotsiologiyaga K.Popper tomonidan kiritilgan bo'lib, taraqqiyotning turli bosqichlarida turli jamiyatlarning madaniy-tarixiy va siyosiy tasvirlanishi ifoda etiladi. Ochiq jamiyat- demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat, yopiq, jamiyat esa dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi. Ochiq jamiyat olamni ratsional anglash, krititsizm va individualizm tamoyillari bilan xarakterlanadi. K.Popper yopiq jamiyatlarga o'zining siyosiy va ijtimoiy kelib chiqishidan turlicha bo'lgan davlatlarni kiritadi, bularga Spartak, Prussiya, chor Rossiyasi, natsistlar Germaniyasi, Sovet Ittifoqini kiritadi. Ochiq jamiyatga qadimgi Afina va g'arb rivojlangan davlatlarini kiritadi. Ochiq va yopiq jamiyat konsepsiyasi hozirgi zamon davlatlarining ideologik siyosiy va ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

4. **Industrial (sanoat) jamiyati.** An'anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, g'arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning kelib chiqishi va tabiati to'g'risidagi ikki asosiy kategoriyaning biri. Ushbu termini birinchi bo'lib Sen-Simon ishlatgan, uni O. Kont, T. Spenser, Dyurkgeym va boshqalar rivojlantirganlar, qaysi jamiyatda sanoat ishlab chiqarish iqtisodiy tashkilotni boshqaruvchi shakli bo'lsa, bu tashkilot xususiy shaxslar qo'lida bo'lsa, bu tadbirkor xususiy boshqaruvchi bo'ladi, u mehnat jarayoni va ishchilarni boshqarib boradi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarini, menedjer-administratorlar nazorat qiladilar.

5. **Postindustrial jamiyat.** Amerikalik sotsiolog D. Bell tomonidan ishlab chiqishgan konsepsiya. Postindustrial jamiyat konsepsiyasining nazariyasiga ko'ra jamiyat taraqqiyoti uchta bosqichda ko'riladi:

J) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr; 2) industrial sanoat jamiyat davri; 3)

postindustrial jamiyati davri. Industrial jamiyatgacha bo'lgan davrda asosiy omil qishloq xo'jaligi munosabatlari, cherkov va armiya jamiyatning asosiy sotsial instituti hisoblanardi, bu davrdan industrial-sanoat jamiyatiga o'tilgach, sanoat korporatsiyalar va firmalar jamiyatning asosiy omili bo'lib qoldi, postindustrial jamiyat davrida esa universitetlar asosiy joyi bo'lgan nazariy-bilimlar sanoat va ishlab chiqarishning bir joyga to'planib. qolishida asosiy rol o'ynaydi. Bu jamiyatda D. Bellning fikricha, kapitalistlar hukmronligi yo'qolib, uning o'rnina yuqori bilimga ega bo'lgan malakali huquqiy elita egallaydi. Xususiylik jamiyatning asosiy mezon sifatida o'zining ma'nosini yo'qotadi, uning o'rnini ta'lim va bilimniig yuksak darajasi egallaydi. Industrial jamiyatda asosiy nizo mehnat kapitali orasida bo'lsa, postindustrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqur bilimga ega emaslik o'rtasida boradi.

Jamiyat tuzilishiga ko'ra quyidagiga bo'linadi:

1. **Totalitar jamiyat:-** (lotincha butun, umumiy, jamiki). Avtoritar shakllaridan biri. Jamiyat hayotining barcha soxalari ustidan yalpi nazorat o'rnatiladi.
2. **Avtoritar jamiyat:-** (lotincha ijodkor, asoschi, boshlovchi, avtor). Demokratik bo'liagan siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy xukmronlik qilishning o'ta reaktion shakli. SHaxsning diktatorlik elementlari bilan uyg'unlashib ketadi.
3. **Demokratik jamiyat:-** (yunon. xalq hokimiyati)- xalqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi.

**Sharq mutafakkirlarining jamiyat haqidagi qarashlari.** Ma'lumki, sotsiologiya fani rasman G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan bo'lsada, uning ildizlari Sharqqa borib taqaladi. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi mazmunini xalqimizning tarixiy, ma'naviy qadriyatlari sanalmish Qur'oni Karim, Hadisi sharif sharqning ulug' allomalari Farobiy, Ibn Sino, Hazrati Bahouddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Imom Al-Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug'beq Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va boshqa ulug' mutafakkirlar asarlarida ilgari surilgan fikrlar tashkil etadi. Sharq xalqlarining hayotga bo'lgan ijtimoiy qarashlari mohiyat e'tiboriga ko'ra g'arb sotsiologlarining ijtimoiy yondashuvlaridan farq qiladi. Qadimgi sharq kishisi uchun o'zlikni anglash, ma'naviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, o'zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iboratdir. Qadim Sharq falsafasi, uning teologik asoslari qadimgi Movarounnahr hududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlash tarziga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, o'zbek xalqi va uning boy ma'naviyatining shakllanishida islom dinining kirib kelishi va uning xalq tomonidan qabul qilinishi o'ziga xos hodisa bo'ldi. O'zbek xalqi ham Islom diniga o'z milliy xususiyatlari urf-odatlarini, turmush tarzi, an'analari bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan islom teologiyasi nazariyasiga tegishli aniqliklar va tadrijiy o'zgartirishlar kiritilishini taqozo eta boshladi. Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda Abu Mansur al-Moturudiyning o'rnini beqiyosdir. Uning asarlariga nafaqat dinshunoslik balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan, shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr xalqlari hayoti tarzi mentalitetiga

muvofoq keluvchi, g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiq. Al-Moturidiy qarashlari oqilona me'yor, inson sha'ni, mavqeyiga mos keluvchi nazariyadir. Inson shaxsi va mavqeyi masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturudiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisiga emas, balki Movarounnahrda real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy jamoa va jamiyatning voqelik mohiyatini ramzlarda talqin etishga diqqatini qaratadi. Movarounnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik aiglash va o'rganish ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy tomonidan kengaytirildi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insoniylik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab berdi. Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilining juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikricha, inson barcha haqiqatlarni anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emaSorokin Shu boisdan u o'zidan oldingi ajdodlari tomonidan bildirilgan fikrlarni o'zlashtirish, ilm-ma'rifat bobida yetuk donishmandlar fikriga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy jamiyatning boobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Forobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donish-mandlari fikriga tayanib, ish tutish zarurligiga urg'u beradi.

Ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy ham sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy kitobini insoniyat tarixining o'tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar, deb baholash mumkin. Ushbu kitobda ulug' mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari, qo'llagan usullari xususida so'z yuritib, shunday yozgan: «Mazkur asarni yozish asnosida o'zimga ishonch hosil qildimki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo'li bilan haqiqiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahllari» va turli din arboblarga, shu (e'tiqodlarga amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini asos tutish bilan belgilanadi. So'ngra ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi».<sup>1</sup>

Abu Rayhon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi.

Ayni chog'da, Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyatlar emas, balki turli ijtimoiy darajadagi murosas va konsensus ekanligini uqtiradi. «Qarama-qarshiligi ravshan, ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi»,<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. Tom 1, 1968, 406-bet.

<sup>1</sup> Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. Tom 1, 1968, 406-bet.

deb qarama-qarshiliklardan holi bo'lgan jarayonlarda o'zgarish ehtiyojini kuchayishiga ishora qiladi. Beruniy sotsiologiyadagi ijtimoiy tabaqalanish haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab-odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan». Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning ijtimoiy qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb hisoblaydi. Hamma narsaning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutlaqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi.

Yusuf Xos Hojibning XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» asari ham ijtimoiy qarashlarga boyil Bu kitob axloq-odob ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir. Yusuf Xos Hojib jamiyat va tabiat borasidagi barcha bahslarni ta'lim atrofida olib borar ekan, o'z davri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma'naviy-moddiy hayot jarayonlari xususida mufassal ma'lumotlar beradi. U o'sha davrning turli ijtimoiy tabaqalari, toifasafaari va guruhlari, ularning turmush tarzi, rasm-rusumlari, qonun-qoidalari, hunar va kasb-korlari, jamiyatda tutgan mavqelari, davlat tuzumining qanday asoslarda quril-ganligi, har bir tabaqaning dunyoqarashi xususida atroflicha sotsiologik asoslangan ma'lumotlarni o'rta tashlaydi. Yusuf Xos Hojib jamiyatning tom ma'nodagi kamoloti faqat ta'lim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar mu-vaqqatdir, o'tkinchidir, bilim boyligi qancha sarf etilsa, shuncha ko'payaveradi, deydi.

#### **4-MAVZU: SOTSIAL GURUHLAR VA SOTSIAL INSTITUTLAR.(2 SOAT)**

---

<sup>2</sup> Shu yerda, 44-bet. .

## Reja:

1. Sotsial guruh tushunchasi.
2. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi va uning belgilari.
3. Din sotsiomadaniy institut sifatida.
4. Oila ijtimoiy institut sifatida.
5. Ijtimoiy mehnat va kasb.

**Sotsial guruh tushunchasi.** Sotsial (ijtimoiy guruh)- individlar majmui. Ijtimoiy guruh mansub individlar ushbu guruhga mansub har bir a'zoning boshqalariga nisbatan mo'ljali asosida o'zaro harakat qiladi.

Guruh — bu xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan o'zining xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar sistemasi bilan bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlikdir.

Guruhda xarakterli xususiyatlar qo'yidagilar: guruh soni, ichki tashkilot ya'ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jixatidan tashkil etadigan a'zolar yig'indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a'zolar soni qancha bo'lishi kerakligi haqida aniq bir to'plamga kelingani yo'q. Bu to'g'risida guruh turlari xaqida so'z ketganda gapirib o'tiladi. Guruhlar eng avvalo miqdor jixatidan katta va kichik guruhlariga bo'linadi. Sotsiologiya va sotsial psixologiya fanida katta sotsial guruhlar o'zining aniq ta'rifiga ega emas. Umuman, katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlarini tushuniladi. Katta sotsial guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat;

- 1) A'zolar soni ko'pligi;
- 2) yagona hududning mavjud emasligi;
- 3) a'zolar o'rtasidagi aloqalarni asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;
- 4) guruh stukturasi murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarini o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar 2 guruhga bo'linadi.

1 **Tasodifiy, stixiyali** paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olamon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. **Tarixiy rivojlanish** natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlar sistemasida ma'lum o'ringan ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlariga sotsial sinflar, turli etnik guruxlar (elat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarini kiritish mumkin. Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, guruhlarini bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog E.Meyo tomonidan taklif qilingan edi, guruhlarini rasmiy va norasmiy guruhlariga ajratishasosida guruh munosabatlarining strukturasi yotadi.

**Rasmiy guruhlar**-bu xuquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi xisoblanadigan mavjud insitut, tashkilotdagi mexnat doirasida aniq,

maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir.

Rasmiy guruhlariga quyidagi belgilar xos: aniq va izchil maqsad, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan xuquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, gurux faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Rasmiy guruhlarda guruh maqsadlari, funksiyalari xatti – xarakat qoidalari, xatto a'zolik shartlari maxsus xujjatlarda (dastur, instruksiya, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi.

Rasmiy guruhlariga siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar, ishlab chiqarish kollektivi, maktab sinfi, sport komandasi va boshqalarni kiritish mumkin.

**Norasmiy guruh** deb, gurux jipsligining yuqori darajasi, a'zolar aloqalarining shaxsiy sifatlari, boshqa sotsial strukturalardan mustaqilligi, gurux faoliyatining aniq bo'lmagan maqsadi, norasmiy nazorat sistemasi bilan harakterlanadigan guruhga aytiladi.

**Birlamchi va ikkilamchi guruhlar.** Shaxsning yaqinligiga ko'ra kichik guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'linadi. Fanga birlamchi guruh terminini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog Ch. Kuli tomonidan XX asr boshlarida kiritilgan.

Birlamchi guruh termini yaqinlik yaxshi ko'rishlik, bevosita aloqa tushunchalariga sinonim sifatida ishlatiladi. Shunga bog'liq ravishda, birlamchi guruhlarda muhit samimiy bo'ladi va a'zolarining sidqidildan o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Mana shu xususiyati bilan birlamchi guruh boshqa guruhlardan farq qiladi.

Birlamchi guruhlarining harakterli belgilari quyidagilardan iborat: a'zolar sonining kamligi, guruh a'zolarining yaqinligi, bevosita samimiy munosabatlar, yashashning uzoq davom etishi, maqsadlarning umumiyligi, guruhga a'zo bo'lishning erkinligi va a'zolar xatti-harakati ustidan norasmiy nazorat.

Ikkilamchi guruhlar deb, biror bir aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan xar qanday turdagi guruhlariga aytiladi. Ularda moddiy aloqalar muxim ahamiyatga ega. Ularning faoliyati tartib-intizom qoidalari bilan boshqariladi. Umuman ikkilamchi guruhlar-bu katta guruhlardir. Ba'zan birlamchi guruhlar bo'lishi mumkin. Ikkilamchi guruhlariga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarni kiritish mumkin.

**Referent va a'zolik guruhlar.** Kichik guruhlarining o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, "Referent guruh" deb atladigan guruhlarini tahlil xisoblanadi. "Referent guruh" termini amerikalik sotsial-psixolog Mustafo Sherif tomonidan kiritilgan. "Referent guruh" termini (inglizcha so'z, "mansub bo'lish" degan ma'noni anglatadi) individ ongli ravishda; kiradigan sotsial guruhlariga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan ishlatiladi.

**Kvaziguruhlar-** bu tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin. Olomon ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi: favqulodda olomon, shartli olomon, ekspressiv olomon.

**Inguruhlar-** bu guruh yoki sotsial kategoriya bo'lib, bunday guruhda individ guruhga a'ziligini xis etadi. Bunday guruhlar uyushgan guruhlar bo'lib, individ



guruhda “biz ” tushunchasini xis etadi.

**Autguruhlar-** bu guruh yoki sotsial kategoriya bo`lib, bunday guruhda individ guruhga a`ziligini xis etmaydi. Bunday guruhlar uyushmagan guruhlar bo`lib, individ guruhda “biz ” tushunchasini xis etmaydi, o`zini bu guruhga begonaday ko`radi.

### **Sotsial institutlar.**

Sotsiologiyada jamiyat hayotini o`rganishda ijtimoiy tashkilotlar, institutlar kabi tushunchalardan ham foydalaniladi.

Sotsial institut /lotincha – institutum, ruscha lug`aviy ma`nosi - ustanovleniya/ o`zbekcha ma`nolarda, birinchidan nizom, qoidalar yoki ularning to`plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi. Sotsial institut tushunchasi sotsiologiyaga huquqshunoslik fanidan kirib kelgan. Yurisprudensiyada sotsial institutlar deyilganda,- ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni idora qiladigan huquqiy normalar /merosxo`rlik, mulkka egalik, oila va nikoh institutlari/ tushuniladi.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. Yuzaki ko`rinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko`ra esa, sotsial institut shaxslarning konkret vaziyatlarda amal qiladigan maqsadga muvofiq, rasmiy va norasmiy, barqaror, standartlashgan tamoyil, normalar, o`rnashmalarini bildiradi.

Sotsial institut, qisqacha ta`rifda, odamlar sotsial tashkillashgan va regulyasiya qilinadigan faoliyatlarini anglatadi. Sotsial strukturaga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyatdagi vazifalarni ado etish uchun tashkil topadi, har bir sotsial institut faoliyat maqsadi, unga erishishni ta`minlovchi konkret funksiyalar, ushbu institutga xos bo`lgan sotsial pozitsiya va rollar, shuningdek, maqsadga muvofiq, kerakli hatti-harakatlarni rag`batlantiruvchi deviant /og`ma/ hatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar /sanktsiyalar/ tizimi tavsiflanadi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy, huquqiy va halqaro sohalariga xos bo`lgan sotsial institutlarni ajratib ko`rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne`matlarning ishlab chiqarilishining taqsimlanishini ta`minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri – oila hisoblanadi. Uning faoliyati /ota-onalar, ota-onalar va bolalar o`rtasidagi tarbiya usullari/ huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar /maorif, sog`liqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan, din institutlari/ amal qiladi.

Sotsial institutlar sotsial muhit bilan o`zaro ta`sirda bo`ladi. Bu o`zaro ta`sir normal tarzda, shuningdek, normaning buzilishi sharoitida ham bo`lishi mumkin. Har qanday real jamiyatda normativ tartibotga bo`ysunmaydigan anomik hodisalar bo`lish tabiiydir.

Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quyidagi ko`rinishlarini ajratib ko`rsatish mumkin:

**Relyatsion institutlar.** Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-mashg`ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi;

**Integrativ /uyg'unlashtiruvchi/ sotsial institutlar.** Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga mas'ul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi;

**An'anaviy sotsial institutlar.**bu institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bog'liqdir.

**Madaniy sotsial institutlar.** Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq;

Sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a/ jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;

b/ sotsializatsiya /individga ijtimoiy ahamiyatli bo'ladigan qadriyat va normalarni etkazishning turli xil shakllar/;

v/ tartibga rioya qilish va ahloqni saqlab turish;

Jamiyat taraqqiyotning har bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar amal qilishini taqazo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi tomon qadam tashlayotgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanishi jarayoni ro'y bermoqda. Bular iqtisodiy sohada – bozor iqtisodiyoti amal qilishiga xizmat qiladigan sotsial institutlar, siyosiy sohada – demokratik hokimiyat turli bo'g'inlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar, jamiyat barcha jabhalariga yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident I.A.Karimov izchil tadbiq qilayotgan konsepsiyaga muvofiq, yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda.

#### **Din sotsiomadaniy institut sifatida.**

Sotsiologiyaning asoschisi O.Kont tasnifida insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi: teologik, metafizik va ilmiy bosqichlardir. Kont fikriga, har uchala bosqichda ham din muayyan rol o'ynaydi.

Din sotsiologiyasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllandi. Din sotsiologiyasining shakllanishi M.Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bog'liq. Maks Veber din va jamiyat munosabatlarini taxlil qilar ekan umuman din to'g'risida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim to'g'risida fikr yuritiladi.

Maks Veberning fanidagi eng katta xizmatlaridan biri, uning xristian dinidagi protestantlik mazxabining iqtisodiy taraqqiyotga o'tkazgan ta'sirini kashf etishidir. Uning nazariyasiga ko'ra, boylikni, boylik orttirishga intilishni unga xushlamaydigan xristian dini mazxablari iqtisodiy taraqqiyotga muayyan darajada to'siqlik qilganlar. Boylikni xudoning ne'mati, unga intilishni ega bandalarning burchi deb talqin qiladigan protestantlik esa iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Veber talqinida, protestantlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablardan biri edi.

M. Veber dinlarni taxlil qilish natijasida ular sanoat kapitalizmi rivojlanishiga g'ov bo'lmoqda degan xulosaga keldi. Moliyaviy munosabatlarga cheklovlar qo'yish, ijtimoiy xayotga passiv munosabatni targ'ib qilish orqali bu dinlar, Veber fikricha, ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Uning talqinida xristian dini, ayniqsa protestantlik passiv kuzatib o'tirmay, uni bartaraf qilish uchun faol kurashga

chaqirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga katta turtki berida.

Markaziy Osiyoda aqidaparstlarning keskin xurujlaridan biri XX asr boshlarida yuz berdi. Xijozdan kirib kelgan aqidaparast oqimlar Markaziy osiyoda ijtimoiy tanglikni keltirib chiqardilar. Bid'atga qarshi kurash niqobida ular ijtimoiy xayotda yuz bergan barcha yangiliklarni yo'q qilish uchun kurash boshladilar.

Aqidaparastlarning ijtimoiy taraqqiyotni ortga qaytarish uchun qilgan xarakteriga qarshi taraqqiyotparvar ma'rifatchilar xarakati vujudga keldi. Tarixda jadidchilik nomini olgan bu xarakter namoyandalari xalqni ilm-ma'rifatli qilish diniy e'tiqodda mutaassiblikdan mo'tadillik tomon yuz tutish g'oyalari bilan chiqdilar.

XX asr o'rtalarida sotsiologiyada "fuqarolik dinlari" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushuncha ilohiy kuchlar va xodisalarga emas, ijtimoiy turmushdagi narsa-xodisalarga sig'inishni anglatadi.

Din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrda din atamasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqni o'rganadi.

Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil – din doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Sotsiologiya fanining asoschisi hisoblanuvchi O.Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lar ekan asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Uning tasnifida insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi. Bular quyidagilar: teologik, metafizik va ilmiy bosqichlar. Kont fikricha, har uchchala bosqichda ham din muayyan rol o'ynaydi. Dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va rolini tahlil qilish uchun, avvalo, din o'zi nima? degan savolga javob topish kerak. Bu savol engil tuyulsa ham javob berish ancha murakkab. Bu savolga dinshunoslik, sotsiologiya va falsafadagi turli oqimlar turlicha javob beradilar. Bu javoblarning aksariyati esa bir-biriga zid va bir-birini inkor qiladi. Sho'rolar davrida chiqarilgan falsafa va atoizmga oid adabiyotlarda din voqelikning kishilar ongidagi fantastik inikosi, deb ta'riflangan va u xalq uchun af'yun deb e'lon qilingandi. Bu adabiyotlarda dinning asosiy belgilaridan biri ilohiy kuchga, ya'ni xudoga ishonish deb belgilanardi. Holbuki, dunyoda shunday dinlar borki, ularda xudo tushunchasi umuman yo'q. Sotsiologiya va dinshunoslikka oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish ularda dinga ko'plab ta'riflar berilganini ko'rsatadi. Biz bu ta'riflar qatoriga yana bittasini qo'shish o'rniga dinning o'ziga xos belgilarini sanab o'tmoqchimiz. Ular quyidagilar:

1. Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi. Har bir din dunyoni o'z nuqtai nazarida izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi.

2. Marosim va rasm-rusumlar. Har bir din o'ziga xos marosim va rasm-rusumlarga ega.

3. Diniy marosim, rasm-rusumlar muayyan qismning faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi faqat sinagoga va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan o'qiladigan namoz asosan shams masjidlarida o'qiladi. Dinlar sehrgarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, ya'ni muayyan marosimlarni muayyan joylarda bajarish bilan farqlanadilar. Sehrgar va shamanlar g'ayritabiiy harakatlarni

individual holatda bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarining asosiy qismini jamoa bo'lib bajaradilar. Sanab o'tilgan belgilarning uchchalasi ham dunyoviy dinlarning barchasida mavjud. Bu dinlar quyidagilar: iudaizm, xristianlik va islom.

Iudaizm (yahudiy dini) ular ichida eng qadimiysi bo'lib, miloddan taxminan ming yillar oldin shakllangan. Bu din o'sha davrda mavjud bo'lgan boshqa dinlardan farqli o'laroq, yakka xudoni tan olgan.

Milodiy eraning dastlabki asrlarida yahudiylar dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqab kettilar, lekin biror mamlakatda iudaizm rasmiy din sifatida tan olinmadi. Ko'p joylarda bu din vakillari ta'qib ostiga olindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida millionlab yahudiylar natsistlarning kontslagerlarida o'ldirib yuboriladi. Urush tugagach, Isroil davlati tashkil topti va unda iudaizm rasmiy din sifatida e'tirof etildi.

Xristianlik dastavval sekta sifatida iudaizm tarkibida vujudga keldi va kichik Osiyo, Yunoniston va Rimda tarqala boshladi. Imperator Konstantin davrida bu din Rim imperiyasining rasmiy dini deb e'lon qilindi. Milodiy era davomida xristianlik G'arb mamlakatlarida asosiy din bo'lib kelmoqda. Xristianlikning provaslavi, katolitsizm, protestantlik kabi bir necha tarmoq va oqimlari mavjud.

Islom dini VII asrda shakllandi. Bu dinning asosini besh farz tashkil qiladi:

- Iymon
- Namoz
- Ro'za
- Zakot
- Haj

Islomda sunniylik va shia yo'nalishlari bo'lib, ular ham o'z navbatida bir qator mazhablarga bo'linadi. Musulmon dini dunyoning besh qit'asida va deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Saudiya Arabistoni, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Iordaniya, Jazoir, Pokiston, Eron kabi qator mamlakatlarida islom rasmiy din deb e'lon qilingan. Islom dinida ham mo''tadil va aqidaparast oqimlar mavjud.

Uch olamiy dindan tashqari, buddaviylik, induizm, konfutsilik kabi dinlar ham ko'p millionlik tarafdorlariga ega. Induizm miloddan avvalgi ming yillikda shakllangan. Bu din tarafdorlari asosan Hindistonda istiqomat qiladi.

Bu din ta'limotiga ko'ra, erda tug'ilish, o'lish va qayta tug'ilish jarayoni abadiy kechadi. Yangi tug'ilganlar tanasiga avval o'lganlarning ruhi joylashadi. Bu ruhning avvalgi hayotdagi mavqeiga mos ravishda insonlar ijtimoiy hayotda o'z mavqelariga ega bo'ladilar. Shunday qilib, bu din odamlarning kastalarga bo'linishini ilohiy sabablar bilan izohlaydi.

Buddaviylik, konfutsilik va daosizm dinlari uchun umumiy hususiyat shundaki, ularning tarafdorlari xudoni e'tirof etmaydilar.

Buddaviylik miloddan avvalgi VI asrda Nepalda yashagan Sudxari Gautama ta'limotidan boshlanadi. Unga ko'ra insonlar tug'ilish va qayta tug'ilish doirasidan o'z hohish va ehtirosalaridan voz kechish orqali chiqishlari mumkin. Buddaviylikning asosini nirvana to'g'risidagi ta'limot tashkil qiladi. Bu din Tailand, Birma, Nepal, Shri-Lanka, Xitoy, Yaponiya, Koreya singari

mamlakatlarda tarqalgan.

Konfutsilik miloddan avvalgi VI asrda yashagan Kun-Fu-Chi ta'limotiga asoslanadi. U budda bilan bir vaqtda yashagan bo'lib, insonning tabiat bilan uyg'unlashish yo'llarini axtargan.

G'arbda sotsiologiyaning fanga aylanishi O.Kont nomi bilan bog'lansa, undan ko'p asrlar avval ham G'arb va Sharq olimlari din va jamiyat muammosi ustida ko'p bosh qotirganlar. Bu masalada Markaziy Osiyoda etishib chiqqan ulkan allomalar Yusub Xos Xojib, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari o'nlab va yuzlab olimu fuzalolar chuqur fikrlar bildirganlar. Kichik bir bobda dinning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni to'g'risida Markaziy Osiyolik olimlar bildirgan fikrlarning barchasini qamrab olish imkoni yo'q. Shuning uchun Markaziy Osiyodan otishib chiqqan olimlar ijodida dinning jamiyatda tutgan o'rniga katta e'tibor berilganini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu olimlar dinning ijtimoiy hayotdagi o'rnini tahlil qilar ekanlar, bir dinni madh etib boshqasini tanqid qilish yo'lidan bormadilar. Ular turli dinlarning jamiyat taraqqiyotiga o'tkazayotgan ta'sirini tahlil qilishda kuzatish, qiyoslash va tarixiylik usullaridan keng foydalandilar. Xususan, Abu Rayhon Beruniy o'zining qator asarlarida, ayniqsa «Hindiston» kitobida turli qabilalar, elatlar va xalqlar hayotida dinlar qanday rol o'ynaganini chuqur tahlil qilib berdi.

G'arb va Sharq olimlari din va diniy oqimlarning odamlar va jamiyat hayotiga o'tkazadigan ta'siri to'g'risida qanchalik chuqur fikr bildirmasalar, din sotsiologiyasi maxsus ilmiy yunalish sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllandi.

Din sotsiologiyasining shakllanishi M.Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bog'liq. Sotsiologiya fanining asoschilaridan biri hisoblanadigan nemis olimi M.Veber ijodida dinni sotsiologik tahlil qilish markaziy o'rinni egallaydi. Barcha dinlarni inkor qilib ularni xalq uchun af'yun deb e'lon qilingan. Marks ta'limotidan farqli o'laroq Maks Veber jamiyat munosabatini tahlil qilar ekan umuman din to'g'risida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim to'g'risida fikr yuritadi.

Maks Veberning fandagi eng katta xizmatlaridan biri, uning xristian dinidagi protestantlik mazhabining iqtisodiy taraqqiyotga o'tkazgan ta'sirini kashf etishida bo'ldi. Uning nazariyasiga ko'ra, boyligni, boylig orttirishga intilishni unga o'xshamaydigan xristian dini mazhablari iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Veber talqinida, protestantlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablardan biri edi.

Veber izdoshlari uning fandagi xizmatlarini ko'klarga ko'tarib maqtashdi. Uning xizmatlarini e'tirof etish bilan birga, shuni ham ta'kidlash lozimki, u iqtisodiy taraqqiyotga faqat diniy mazhab – protestantlikning o'tkazgan ta'sirini keng tadqiq qildi.

Islom dinidagi oqimlar, mazhablar, yo'nalishlar turlicha bo'lib, ularning barchasi faqatgina o'zlari mansub bo'lgan mazhab yoki yo'nalish haqiqiy islom dini ekani, boshqalar esa yo'ldan adashganlar, deb da'vo qilishadi. Boshqa dinlarda bo'lgani kabi islomda ham aqidaparast (fundamentalistik) va mo'tadil oqimlar o'rtasida kurash borgan. Aqidaparast oqimlarning vakillari dinni ilk paydo bo'lish

davridagi holatga qaytarmoqchi bo'ladilar. Aslida esa bu g'oyalar mavjud tuzumdan norozilik alomati bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini orqaga burish uchun urinish ifodasidir.

Aqidaparastlarning ijtimoiy taraqqiyotni ortga qaytarish uchun qilgan harakatlariga qarshi taraqqiyparvar ma'rifatchilar harakati vujudga keldi. Tarixda xadidchilik nomini olgan bu harakat namoyandalari xalqni ilm-ma'rifatli qilish, diniy e'tiqodda mutanosiblikdan mo''tadillik tomon yuz tutish g'oyalari bilan chiqdilar.

Ma'rifatchilik harakatini vujudga keltirgan asosiy sabablardan biri diniy fikr ilmini talqin qilishda ulusi qadimiya va usuli jadidiya o'rtasidagi munozara va kurashlar orasida edi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki XIX asr oxiri va XX asr boshlarida diniy aqidaparast atamasi muomalada deyarli bo'lmagan. Uning o'rnida «qadimchilar» atamasi keng qo'llanilgan. qadimchilar dinni «asl» holiga qaytarish, yangiliklaridan himoya qilish uchun harakat qilganlar. Usuli jadidiya tarafdorlari, ya'ni ma'rifatchilar meyorlarini belgilashda jamiyatda yuz bergan va berayotgan o'zgarishlarni hisobga olish, yangiliklarini qo'llash tarafdori edilar. Diniy aqidaparastlar qirg'inidan omon qolgan ma'rifatchilar kommunistik aqidaparastlar qirg'iniga duchor bo'ldilar. 20-30 yillarda kommunistik tuzumi jadidlarning qadimchilar qirg'inidan tirik qolganlarini qirib bitirdi. Shunday qilib, jadidlar ikki aqidaparast terroristik kuchlar: diniy aqidaparastlar va kommunistik aqidaparastlar tomonidan ta'qib va qirg'in qilindilar. Chunki ular targ'ib qilgan ma'rifat va istiqloq mafkurasi xalifalikni tiklamoqchi bo'lgan diniy aqidaparastlarning ham, kaltani cho'zib, uzunni uzib barchani teng qilmoqchi bo'lgan kommunistik aqidaparastlarning ham mafkurasiga to'G'ri kelmas edi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda juda ko'p xunrezliklarga sabab bo'lgan diniy aqidaparastlik asr so'ngida ham ijtimoiy tanglikni keltirib chiqarishga urindi. Sho'rolar tuzumining oxirgi yillarida hokimiyatning bo'shashgani va kishilar ongida mafkuraviy bo'shliq vujudga kelganidan foydalanib, aqidaparastlar o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qildilar. Ularning bu harakati O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda ham davom etdi. O'zlarini etarli kuchga ega, deb hisoblagan aqidaparastlar O'zbekistondagi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik yo'li bilan ag'darishga urindilar. 1999 yil 16 fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan portlatishlar, bundan oldinroq FarG'ona vodiysida va boshqa ba'zi viloyatlarda bo'lib o'tgan salbiy hodisalar shundan guvohlik beradi. Lekin asr boshida ma'rifatparvar kuchlarga qattiq zarba bergan aqidaparastlar asr so'ngida o'z qilmishlari tufayli xalqning qaxr-g'azabiga uchradi. Mana shu hodisa ham diniy oqimlar radikallasib aqidaparastlikka aylana borgani sari ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'lishi va aksincha, mo''tadil oqimlar ijtimoiy barqarorlikka barakali ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi.

XX asr o'rtalarida sotsiologiya fanida «fuqarolik dinlari» tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushuncha ilohiy kuchlar va hodisalarga emas, ijtimoiy turmushdagi narsa-hodisalarga siG'inishni anglatadi. Masalan, Buyuk Britaniya, AqSh kabi mamlakatlarda bayroq, madhiyaga cheksiz hurmatini, taxtga o'tirish va inaugurations marosimlarini bu tushuncha tarafdorlari diniy marosimlar bilan tenglashtiradilar. Sobiq sovet ittifoqida Marks, Engel's, Lenin shaxslari amalda

ilohiylashtirilgan edi. Ular sha'niga, ayniqsa, Lenin sha'niga biror tanqidiy gap aytish man qilingan, ularning ishlari va gaplarini faqat madh etishga ijozat berilgan edi. Bu hodisalar XX asr ikkinchi yarmidagi diniy sotsiologiya yo'nalishlarida fuqarolik dinlari deb ataladi.

Shunday qilib din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrda din atamasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hulqini o'rganadi. Mustaqil O'zbekistonda dinga milliy qadriyat sifatida qaralishi xalq ongida ushbu hodisaga nisbatan to'g'ri xolis munosabatning shakllanishiga zamin bo'ldi. Bu boradagi yoshlar va fikr tarbiyasining asosiy yo'nalishi ham islom diniga xos bo'lgan insonparvarlik tamoyillarini ongga singdirib borishini taqozo etadi.

**Oila ijtimoiy institut sifatida.** Oila sotsiologiyasi — sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, bu fan oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida o'z vazifalari mavjuddir. Ularga jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish, oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash, nikoh va oila turlari evolyutsiyasini o'rganish, oilani tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlash, oila tarbiyasi, oilaning rekriativ faoliyatining va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish, mehnat taqsimotida oila o'rnini o'rganish kabilar kiradi.

Oila sotsiologiyasi oilaning tabiiy biologik, nikoh, qarindoshlik, ma'naviy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni birliktiruvchi jamiyatni kichik bir bo'lagi sifatida o'rganar ekan, uning jamiyat bilan o'zaro bog'liqligini asosiy e'tiborini qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida uning davomiyligini ta'minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo'lishi — avlodlar almashuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib, kamolga etib, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim, tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug'iga, qariyalarga, atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarini avlodlardan avlodga etkazuvchi sotsial institut hisoblanadi.

Oila asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi tashkil etadi. Oila faqatgina erkak bilan ayol munosabatini emas, er bilan xotin, ota-onalar bilan bolalar munosabatini ifodalaydi. Oila jamiyat bag'rida tashkil topdi, taraqqiy etib borar ekan, o'zi ham ana shu jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oila taraqqiyotiga ta'sir etadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat o'zaro bog'liq holda taraqqiy etib, rivojlanadi.

Oila taraqqiyoti uch yo'nalishida tanlash maqsadiga muvofiqdir.

- 1.Oila demografik taraqqiyoti.
- 2.Oila ijtimoiy taraqqiyoti.
- 3.Oila iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning demografik taraqqiyoti - deganda oilaning miqdori, shakllanish va demografik tarkibi (Oilaning, oilada yashayotgan kishilar miqdoriga qarab guruhlariga bo'linishi) ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti - esa oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqe salomatligi borasida o'zgarishi, hamda ularning ta'lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat tabiyatda va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini takomillashib borishidir.

Oilaning oziq,-ovqat, kiyim-kechak, uy joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlashish darajasining o'zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat hayotida turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator fanlarning o'rganish mavzusidir. Bularga etnografik, demografik, psixologiya, pedagogika, tibbiyot, huquq, iqtisodiyot, tarix va sotsiologiya fanlari kiradi.

Ular oila vazifalarni va taraqqiyot yo'nalishlarining alohida tomonlarini o'rganadilar. Masalan, iqtisodiyot oila jamiyat taraqqiyotida iste'molchi guruh sifatida o'rgansa, etnografiya oiladagi urf-odatlar qadriyatlarini etnik ko'lamda o'rganadi, demografiya esa asosiy e'tiborini oilaning eng muhim vazifasi bo'lmish avlod davomiyligini ta'minlashga qaratadi. Oila sotsiologiyasi esa yuqorida qayd etilganidek oilani jamiyat taraqqiyotida muhim vazifalarini, jamiyat taraqqiyotida, muhim vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. U o'z tadqiqoti davomida oilani o'rganuvchi barcha fanlar olib borgan tadqiqot natijalaridan keng foydalanadi va ular bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Ma'lumki, oila paydo bo'lganidan to hozirgi davrga qadar uning turlari va ijtimoiy-demografik tarkibi muntazam o'zgarib bordi. Oila turlari va tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga ta'sir etuvchi omillarini jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlari uchun alohida o'rganish ham oila sotsiologiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oila sotsiologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri oilaning mohiyati va faoliyatini o'rganishdir.

Oilaning mohiyati uning faoliyati, ya'ni u bajarayotgan vazifalar bilan belgilanadi. Ularga avlod yaratish vazifasini (jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, inson zotini davom ettirish); ijtimoiy vazifasi (oiladagi farzandlarni tarbiyalash, ularni o'zaro tabiatga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish, oila a'zolarining dam olishi va salomatligini tiklash); iqtisodiy vazifasi (oilaning a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash kiradi).

Oilaning sotsiologiyasi oila vazifalarini turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda, davlatlarda bajarilishi omillari va xususiyatlari oila vazifalariga bo'lgan munosabatlarni ham atroflicha o'rganadi. Oilaning eng muhim vazifasi bu farzandlarning tug'ilishi, ya'ni jamiyat davomiyligi ta'minlovchi yangi avlod yaratishdir. Tug'ilish dunyodagi turli xalqlarda turlicha ko'rsatkichlarga ega.

Yer shari bo'ylab tug'ilishning o'zaro farq qilishi avvalo mamlakatlar aholisining moddiy va madaniy turmush darajasi, asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelgan urf-odatlariga, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari tug'ilishga aholining jinsiy yoshi bo'yicha taqsimlashi, nikoh va ajralish jarayonlari, tibbiyotning rivojlanish darajasi, shuningdek har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir etadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ta'sirida oilaning bolaga bo'lgan talabi, jamiyatning bolaga bo'lgan talabi, o'zgarib



boradi. Oila sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlarida, dunyoga barcha xalqlar va davlatlar miqyosida tug'ilishning o'zgarib borishiga oilaning bolaga bo'lgan ehtiyojiga ta'sir etuvchi omillarni, aholining turli demografik va ijtimoiy guruhlarining hamda er-xotinning oilada farzandlar miqdoriga bo'lgan munosabatlarini sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan aniqlanib beradi.

Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, iqtisodiy-mulkiy, ma'naviy-huquqiy, psixologik munosabatlar, o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zolarining o'z ijtimoiy o'rni bor.

Ma'lumki oilaning asosini — yadrosini er-xotin tashkil etadi. Oilada er-xotin, o'zi yoki farzandlari bilan etishadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin. Oila muhiti, uning jamoada tutgan o'rni oila a'zolariga, ularning xulq-atvorlariga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa oila muhitida ayolning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oila a'zolarining oilaga, atrof-muhitga va o'zaro munosabatlarini o'rganish ham oila sotsiologiyasining vazifalaridan biridir.

Oilaning tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanishida demografik vaziyat muhim ahamiyatga egadir. Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni o'rganish ham oila sotsiologiyasi o'rganadigan muhim masalalardan hisoblanadi, Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi deganda, oilada yashab kelayotgan kishilarning nikoh qondoshlik-qarindonlik munosabatlari, ijtimoiy guruhlari va miqdori asosida turlarga bo'linishi tushuniladi. Oilaning eng ko'p tarqalgan ijtimoiy, turli nuklear oddiy oila bo'lib, unda er-xotin nikohga kirmagan, ya'ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Agar birorta farzand turmush qurib, shu oilada birga yashasa, unda bu oila kengaygan yoki murakkab oilaga aylanadi. Murakkab oilada ikki yoki undan ko'p oddiy oilalar, 3 va undan ko'p avlod vakillari istiqomat etishadi. Ma'lumki, oilaning asosini — yadrosini er-xotin tashkil etadi. Agar oilada er-xotin mavjud bo'lsa, yashasa, unda oila to'la, tugal oila, ularning biri oilada yashamasa (bo'lmasa), tugalmas oila hisoblanadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin. O'zbekistonda ham oilani quyidagi turlarga bo'lib o'rganilgan:

1. Er-xotin bolalari bilan yoki bolasiz yashaydigan oilalar;
2. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi bilan yashaydigan oilalar;
3. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan shaydigan oilalar;
4. Ikki yoki undan ortiq. oddiy oila (nikoh juftlari)bolalari bilan yoki bolasiz, ota-onalarining biri (yoki ularsiz)va boshqa qarindoshlari bilan (yoki ularsiz) yashaydigan oilalar;
5. Ona va bolalar bilan yashaydigan oilalar;
6. Ota va bolalar bilan yashamaydigan oilalar;
7. Ona-bolalar va onaning (yoki otaning) ota-onalaridan biri yashaydigan oilalar;

8. Ota-bolalar, otasining (yoki onasining) ota-onalaridan biri bilan yashaydigan oilalar;

9. Boshqa oilalar.

Oila uning a'zolarining ijtimoiy guruhlariga qarab ham turlarga bo'linadi;

1. Oila a'zolari bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar.

2. Turli guruhga mansub oilalar:

Oilalarning o'sha oila a'zolari miqdoriga qarab turlarga bo'linishi uning demografik tarkibini tashkil etadi. O'zbekiston uchun shartli ravishda oilaning 3 ta demografik turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Kichik oilalar — 2—4 kishi istiqomat etuvchi oilalar;

2. O'rta oilalar — 5—6 kishi istiqomat etuvchi oilalar;

3. Katta oilalar — 7 va undan ortiq kishilar istiqomat etuvchi oilalar.

Oila sotsiologiyasi o'rganadigan navbatdagi demografik jarayon bu nikohdir.

Ma'lumki, oila nikohdan boshlanadi. Nikoh jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'ldi va qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar, din, urf-odatlar, qadriyatlar ta'sirida shakllanib boradi. Nikoh va uning turlari, tarixiy evolyutsiyasi, uning turli xalqlar ijtimoiy guruhlar, xududlar bo'yicha xususiyatlarini, nikoh qonuniyatlarini, oilada mehnat taqsimotini va yoshlarni nikohga psixologik, iqtisodiy tomonidan tayyorlash va aholini nikohga bo'lgan munosabatlarini o'rganish ham oila sotsiologiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oila tarkibida hamda rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik omillardan yana biri — nikohning bekor etilishi, ya'ni ajralishdir. Ma'lumki, oilada er-xotinning ajrashishi birinchi navbatda oilaning tarkibiga ta'sir etadi. Oila tugal oiladan, tugalmas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug'ilishi ma'lum darajada kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning takror barpo bo'lishiga salbiy ta'sir etadi. Oila sotsiologiyasi mustahkamligiga salbiy ta'sir etuvchi ajralish jarayonini o'rganar ekan, uning sabablarini turli tarixiy davrlarda, davlatlarda, xalqlarda va ijtimoiy guruhlardagi xususiyatlarini ochib beradi.

Aholi migratsiyasi ham oilaning ijtimoiy-demografik tarkibiga ta'sir etuvchi omillardandir. Insonning bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi ijtimoiy-iqtisodiy muhitga o'tishi (masalan, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga ko'chishi), uning oilaga bo'lgan demografik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga ta'sir etadi.

Ma'lumki, oila paydo bo'lib to tugagunga qadar bir qancha bosqichlardan o'tadi. Ular oilaning tashkil topishi (nikohga kirish) birinchi farzandni tug'ilishi (farzand ko'rish faoliyatini boshlanishi), ohirgi farzand tug'ilishi (farzand ko'rish faoliyatini tugallanishi), oxirgi farzandni oilali bo'lishi, oilasini tashkil etgan er yoki xotinni dunyodan ko'z yumishi (oilaning tugallanishi). Yuqorida keltirilgan jarayonlar oilaning hayotiy davrlari bo'lib, oila davomiyligiga muntazam qaytarilib turadi. Ushbu davrlarning har birini o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mavjuddir. Ana shu muammolar ham oila sotsiologiyasining o'rganish doirasiga mansubdir.

Oila tarbiyasi masalalarini o'rganish ham oila sotsiologiyasida keng o'rin olgandir. Oila tarbiyasi oilada ota-onalar, katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash bo'lib, yosh avlodni har tomondan rivojlanishida muhim ahamiyatga

egadir. Oila tarbiyasida oilaviy tartib, oila a'zolarining bir-biriga munosabati, ota-ona va katta kishilarning hulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, oila byudjeti, sharoiti asosiy omil hisoblanadi.

Oila huquqi ham oila sotsiologiyasi tomonidan o'rganilib, unda asosiy e'tibor nikoh, qarindoshlik, bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olishdan kelib chiqilgan munosabatlarni, nikohga kirish munosabatlarini, er-xotin, ota-ona bilan bolalar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shahsiy va mulkiy homiylik, vasiylikdan kelib chiqadigan munosabatlarni hamda nikohning bekor qilinishi bilan bog'liq masalalarni o'rganishga qaratiladi.

Oila sotsiologiyasi qator ijtimoiy va tabiiy fan yo'nalishlari bilan uzviy aloqada tadqiqot o'tkazadi va rivojlanib boradi. Bularga psixologiya, demografiya, etnografiya, tarix, ijtimoiy geografiya, siyosatshunoslik, aholi sotsiologiyasi, tug'ilish sotsiologiyasi, o'lim sotsiologiyasi, migratsiya sotsiologiyasi, nikoh sotsiologiyasi, matematika, statistika, ekologiya kabi fanlar kiradi.

Oila sotsiologiyasi o'z tadqiqotlarida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, tarixiy taqqoslash, statistik va matematik usullardan foydalanadi.

Oila sotsiologiyasi fan yo'nalishining tadqiqot natijalari oilaning kelajak istiqbolini aniqlashda, davlat tomonidan oila va nikoh mustahkamligini ta'minlovchi qonun va tadbirlar joriy etilishida ilmiy asos va yo'llanma sifatida qo'llaniladi. Oila sotsiologiyasi – umumiy sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, u oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida vazifalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish;

- oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash;

- nikoh va oila turlari evolutsiyasini o'rganish;

- oila tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlash;

- oila tarbiyasi;

- oilaning rekreativ faoliyatini va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish;

- mehnat taqsimotida oilaning o'rnini o'rganish.

Oila sotsiologiyasi oilaning jamiyat bilan o'zaro bog'liqligiga ham e'tibor qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida, uning davomiyligini ta'minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Oilaning asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi va nasl tashkil etadi.

Oila taraqqiyoti to'g'risida qator nazariyalar mavjud. Quyida biz AQSHlik etnograf L.Morganning oila taraqqiyoti bosqichlari to'g'risidagi fikrini keltiramiz:

- Promiskuitet – yovvoyilikning quyi bosqichiga xos bo'lib, bunda ayrim oilalar bo'lmagan, oilaviy hayot ijtimoiy hayotga teng bo'lgan.

- Qon-qarindoshlikka asoslangan oilada nikoh qabila va urug' a'zolari orasida bo'ladi. Bunday oila endogam birlikni tashkil qiladi (guruhiy nikoh).

- Punalual oila va ona avlodi bo'yicha yaqin qarindoshlar bilan nikoh man qilinadi.

- Monogam oila bir erkak va bir ayol orasida bo'lib, u otalikni tan olish va

oila mulkiga egalik qilishga asoslanadi. Monogam oila eski urug'chilik tuzumining yemirilib, yangi kishilik hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq.

Oilaning vazifasi uning strukturasi bilan uzviy bog'langan. Oila funksiyasi sotsiolog M.S.Matskovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiritilgan:

- 1) reproduktiv (nasl qoldirish) funksiya;
- 2) tarbiya funksiyasi;
- 3) xo'jalik-maishiy funksiya;
- 4) iqtisodiy funksiya;
- 5) birlamchi ijtimoiy nazorat funksiyasi;
- 6) ma'naviy munosabat va aloqalar funksiyasi;
- 7) ijtimoiy maqomiy funksiya;
- 8) hordiq chiqarish funksiyasi;
- 9) emotsional funksiya.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilaning jamiyat taraqqiyotidagi, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashdagi katta ahamiyatini hisobga olib, oilaga daxldor boy hamda chuqur mazmunli milliy an'analarni asrash maqsadida 1998-yil 2-fevralda «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

**Ijtimoiy mehnat va kasb.** Mehnat faoliyati har vaqt ma'lum iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarga kiritilgan va u yoki bu kasbiy guruhlariga qarashlidir, ijtimoiy institutlar bilan bog'liq, vaqt va maydonda chegaralangan mehnat jamoasida axloqiy va ijtimoiy-psixologik iqlim bilan, ma'lum mulkchilik shakllari bilan. Quyida mehnat sharoitlar va shakllari uning tavsifi (jamoat yoki shaxsiy mehnat) va motivatsiya muammolari ko'rib chiqiladi.

Jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlar inson omilining faollashuviga, insonlarning mehnat va intellektual salohiyatidan imkon boricha unumli foydalanishga, barcha mehnatkashlarning ijodiy quvvatlarini to'la ishga solishga hamda shaxs bilan jamiyat va davlat o'rtasidagi qiziqish va munosabatlarning mutanosibligini ta'minlashga bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy fanlar oldiga juda katta vazifalarni qo'ymoqdaki, ularsiz jamiyatni o'rganish, yangilanish jarayonlarining istiqbolini belgilash va ilmiy-nazariy asoslarini yaratish mumkin emas. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi ta'minlashda, belgilangan beshta tamoyilni amalga oshirishda mehnat sotsiologiyasi alohida o'rin egallaydi. Zero, sotsiologiya fanining bu yo'nalishi mehnat sohasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi va ularni boshqa omillar bilan birga boshqarishni ta'minlaydi. Mehnat sotsiologiyasining yaratilishi ancha uzoq, tarixga ega va katta manbalarga ega bo'lsa ham hali u fan sifatida to'la shug'ullanmagan. Mehnat sotsiologiyasi bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar juda katta izlanishlar lozimligini ko'rsatmoqda. Lekin hozirgi kunda qo'limizdagi bor uslub va uslubiyotlar, tajriba natijalari mehnat sohasidagi ijtimoiy siyosatni chuqur o'rganib jamiyatning barcha tarmoqlaridan mehnatni to'g'ri tashkil qilishga mehnatga adolatli haq to'lashni ta'minlashga va ohir oqibatda mehnat unumdorligi doimo oshib borishini ta'minlashga imkon

yaratadi. Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi bo'yicha barcha sotsial axborotlarni to'plashga, ishlab chiqarish zaxiralaridan to'la foydalanishga, hamda mehnatni boshqarishni optimal strategiyasi va taktikasini belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur sotsiologiya darsligining mehnat sotsiologiyasi qismi oliy ta'lim talabalari uchun juda qisqa yozilgan bo'lib, barcha tarmoqlar bo'yicha faqatgina mehnat sotsiologiyasining umumiy yo'nalishlarinigina beradi xolos. Bu qismda mehnat sotsiologiyasi predmetini, uslub va uslubiyotlarini bayon qilinadi. Bu uslub va uslubiyotlar sotsiologlar va boshqa soha mutaxassislari uchun mehnat va mehnatga bo'lgan munosabatni ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qishish, mehnat va mehnat zahiralarni tadqiq qilish, hamda mehnat jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish uchun tadbirlar yaratishda yordam beradi. Bu fanning kelib chiqish tarixini o'rganish esa uning taraqqiyoti uchun yordam beradi. Shuning uchun bu bobda qisqacha bo'lsa ham mehnat sotsiologiyasining shakllanish tarixi bayon qilindi.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasi va uning xalq xo'jaligidagi o'rni katta ahamiyat kasb etish bilan birga mamlakatda huquqiy va demokratik tizimni rivojlantirishga, sotsial adolat o'rnatishga, mehnat unumdorligining doimo oshib borishiga yordam beradi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat sotsiologiyasining oldiga nazariy hamda amaliy jihatdan mehnat muamolarini to'la-tukis yechib berishni va uning istiqbollarni belgilashni hayotning o'zi qo'ymoqda. Bugungi kunda mehnatni boshqarishning barcha turkum omillarini hisobga oluvchi axborotlar bazasini yaratish va uning sotsiologik monitoringini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy mehnat o'zida murakkab tuzilishni tasavvur etadi. Buning natijasida u to'la fanlar qatorida o'rganish mavzusi bo'lib hisoblanadi. Mehnat sotsiologiyasida tahlil qilishning birnecha yo'nalishlari ajratiladi: biznes ishlab chiqarish va hokazolarni boshqarishning tuzilishi va iyerarxiyasini o'rganuvchi tashkilotlar sotsiologiyasi; u yoki bu faoliyatning afzalliklarini o'rganuvchi kasblar sotsiologiyasi, qimmatboho orientatsiyalar, kasbga layoqatlilik va boshqalar; mehnat faoliyati ijtimoiy jarayon sifatida; mehnat unumdorligini oshiruvchi ijtimoiy omillar; texnologik va ijtimoiy sharoitlarning mehnat munosabatlariga ta'siri va h.

Shubhasiz, nisbatan bir kichik bobning o'zida qo'yilgan muammolarning barcha aspektlarini ko'rib chiqish mumkin emas. Ulardan ba'zi eng muhimlarida to'xtab o'tamiz. Bizni o'rtacha saviyadagi nazariya ko'proq darajada qiziqtiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida istemol bahosi, moddiy va manaviy manfaat paydo bo'ladi. Marks va Engelslarning fikricha, bu «shunday jarayonki, unda inson o'z xususiy faoliyati bilan tabiat va o'zi o'rtasidagi modda almashuvini vositalaydi, boshqaradi va nazorat qiladi». Ushbu mualliflarning asarlaridan yana bir fikrni keltirishimiz kerak, ya'ni mehnat butun inson hayotida birinchi va asosiy shart –sharoitdir, chunonchi shu darajadagi, biz aytishimiz kerak; mehnat insonni o'zini yaratadi. Mehnat biz tomondan kishilik jamiyati hayoti faoliyati asosiy shakli, turmushining muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi. Mehnat tarixan jamiyatni tabiatdan, insonni bo'lsa hayvonot olamidani ajralishiga

sabab bo'ldi va imkon tug'dirdi.

Mehnat jarayoni o'z ichiga uch lahza kiritadi; 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi; 2) mehnat mavzusi, ya'ni bu faoliyatning nimaga yo'naltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning turli rivojlanish bosqichlarida mehnat davr ijtimoiy munosabatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari hisoblangan turli shakllarda ko'rinadi.

Hozirgi paytda biz doimo eshitib turadigan ikkita o'xshash tushinchalarni taqsimlashimiz zarurdir: yakka tartibdagi mehnat va yakka tartibdagi mehnat zonasini bildiradi bu mehnatning texnologik taqsimoti tarkibiy qismidir. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati – mehnatning iqtisodiy taqsimoti tarkibiy qismidir. Bu fuqarolarning ijtimoiy foydali faoliyati bo'lib, u alohida bir shaxs va uning oila azolari shaxsiy mehnatiga asoslangan. Bunday faoliyat asosini shaxsiy mulkda bo'lgan mehnat vositasi, uy joy binosi va qurilmalari, yer, ishlab chiqarish maxsulotlari, transport vositalari va hokozolar. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati jamiyat ichidagi mehnatning taqsimlanishi elementi bo'lib qatnashadi.

«Mehnat shartlari» toifasi muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy tavsifini aniqlovchi tafsilotlarga berilmasdan, faqat mehnat sharoiti normal va zararli bo'lishi mumkinligini aytib o'tishimiz kerak. Normal sharoitlardagi ish inson salomatligiga aniq zarar keltirmaydi. Zararli mehnat sharoitlari (shaxtalarda, domna va marten pechlarida, kimyoviy ishlab chiqarishning bazi sexlarida va boshqa joylarda ishlash) inson salomatligi uchun xaflidir ko'pincha inson hayotini tahdidga soladi. Bundan tashqari, mehnat sharoitlari sotsiologlar tomonidan ekstremal, nisbatan normal va qulay sharoitlarga bo'linadi. Ko'p hollarda ular mehnat mazmuni va uni tashkil qilishga bog'liqdir. Mehnatni tashkil qilish deganda odatda, moddiy mehnat bilan jonli mehnatning bog'lanish tartibi, usullari va shakli tushuniladi (inson jihozlar, mashinalar asboblari). Mehnatni tashkil qilish ishchi joylari, mehnat taqsimoti va uning kooperatsiyasi, ishning taqsimlanishi va nazorat kabi muhim elementlarga asoslanadi. So'ngi element iqtisodiy vositalar, sotsial sanksiyalar va huquqiy normalar qo'llanishini bildiradi.

Mehnat mazmuni uning texnik funktsional tomonlarini, mehnatning mazmundorligi esa sotsial-psixologik tuzilishini ifodalaydi. Agar xususiy reja bo'yicha tuzilgan bo'lsa, mehnat mazmunli va ijodiy sub'ekt sifatida ko'riladi. Begona hokimlikni irodaga bo'ysindirish – psixologik va ijtimoiy yiroqlashishga yo'l. Mana shuning uchun ishchilar, xodimlar oldiga maqsad va vazifani qo'yish va bu maqsadga erishish yo'llarini tanlashda, shubhasiz, uning faoliyatini noziklik bilan nazorat qilish bilan ular fantaziyasiga keng yo'l ochib berishga intilish muhimdir.

Ishlab chiqarishda mehnatni tashkil qilish, uni boshqarishda, biznesda, huquqshunoslik idorasida mehnatni rag'batlantirish va asoslash katta ahamiyat kasb etadi. Rag'batlantirish – bu to'g'ri va qisman shaklda ifodalangan mehnatni kuchaytirishni moddiy va ma'naviy mukofotlash tizimidir. Rag'batlantirish – majburiy mehnatdan ixtiyoriyga qadam. Mehnat asoslari – ixtiyoriy mehnatga boshqacha, yanada kengroq qadam, muhim inson ehtiyojlarini qondirishga

asoslangan faol mehnat faoliyatiga moyillik (kuchli shaxslarga faol biznesmenlarga va boshqalarga mansublik mavqeini aniqlab olish). Asoslar qadriyatlar va yo‘l yo‘riqlar bilan uzviy bog‘liqdir. Asoslar u yoki bu holatni, dalili subektiv baholashga mo‘ljallangan, ular nisbiydir. Qadriyatlar asosida jamiyat tomonidan nimanidir shak-shubhasiz normalar sifatida obektiv tan olinishi yotadi, qadriyatlar axloqiy talab bo‘lib, ular absolyutdir.

«Mehnat sotsiologiyasi» darsligi mualliflarining haqqoniy ta’kidlashlaricha, mehnat mazmundorligining asosiy elementlari bo‘lib, agar uning mehnat faoliyatining ijtimoiy psixologik tuzilishi sifatida tushinilsa, quydagilar hisoblanadi: maqsad-oldindan seziladigan natijalarni tan olingan obrazi ta’sir qilishning ideal rejasi; mehnatga munosabat-uning asosida mehnatning ongliyligini va maqsadga tegishliliylikni o‘zini kidek sezish, atrof olamni shaxsiy reja bo‘yicha qayta rivojlantirish; mehnatni rag‘batlantiruvchi omillar-mehnat falligiga undovchi tashqi omillar; mehnat asoslari – muhim bir narsadek tan olinuvchi ehtiyoj, ichki rag‘batlantiruvchi omillar; qadriyatlar va ularga qarab mo‘ljallash-mehnat faoliyatining axloqiy talabi.

Mehnat faoliyati, yuqorida qayd qilinganidek, yakka tartibda va guruhli bo‘lishi mumkin. Guruhli faoliyat ayniqsa yirik korxonalarda aksionerlik jamiyatlarida tartibi bo‘yicha, jamoadan boshqa hech qanday o‘zgacha bo‘lishi mumkin emas. Mehnat jamoasi-bu «faoliyat davomida shaxsan qimmatli va ijtimoiy-ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarni bajarish uchun uyushgan kishilarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy birlashtirishdir».

Mehnat jamoasi-ijtimoiy mehnatning muhim tavsifidir. Uning ijtimoiy mushtaraklik sifatida (bir tomon) hamda ijtimoiy uyushganlik sifatida (ikkinchi tomon) ko‘rib chiqish zarurdir. Mehnat jamoasi ikkala tomonlari birlashuvi harakatlarni aniq qati’y belgilanishi, intizom, saktsiyalar tizimida yuzaga kelgan xuddi shu vaqtda, inson mehnat qilish huquqiga ega bo‘ladi va tasdiqlangan vazifalarni bajarish bilan birga, norasmiy munosabatlar sohasida o‘z ixtiyori bo‘yicha harakat qiladi.

Shuning uchun mehnat jamoasi—bu kamfikrlarning ixtiyoriy mushtarakligi va faoliyatning qattiq uyushgan shakli, turli manfaatlarning birlashuvi hamda bir vaqtning o‘zida to‘qnashuvi sodir bo‘ladigan joy. Ijtimoiy uyushma sifatida bu ijtimoiy oliygohning bir turi bo‘lib, ijtimoiy mushtaraklik sifatida esa — jamiyatning ijtimoiy tuzilishi elementidir. Unda doim munosabatlarning rasmiy va norasmiy tizimi mavjud: ma'muriy-huquqiy tuzilish va o‘zaro shaxsiy aloqalari bo‘lgan, kichik guruhlar tuzilishi.

Ma'muriy tashkilot xokimiyat tuzilishiga va mansabdorlik iyerarxiyasiga (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo‘ysunishi) (ishchilarning huquq va burchlari majmui) suyanadi. «Jamoaning ijtimoiy tuzilishi — bu avvalo mansabdor va maqsadli guruhlar majmui, shuningdek, ijtimoiy uyushmalar yacheykalari va ularning o‘zaro munosabatlari. Ushbu guruhlar maqsadning birligi bilan birlashgan va uni amalga oshirishda ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalar bo‘yicha farqlanadi.».

Darhaqiqat, bunday murakkab tizimga har turli elementlar kirar ekan, ular o‘rtasida hamisha ichki qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu — har bir mehnat

tashkiloti rivojlanishi va ishlab turishida tabiiy hol. Tashkilotlarning muhim vazifasi — shu qarama-qarshiliklarni, iloji bo'lsa, ularni nizo chiqarmasdan hal qilish.

Yuqorida qayd qilganimizdek, mehnat birlashmasi ijtimoiy tashkilotlari bilan jamiyatning ijtimoiy tuzilishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Lekin mehnat jamoasi hali kishilarning mushtaraklik xududiga kiradi (qishloq, shahar va joylarda joylashgan). U jamiyat bilan bevosita bog'liq; uning ishchilari — qo'shma faoliyat maqsadlari bilan birlashgan jamiyat a'zolari majmuidir. Uning tarkibi ijtimoiy xususiyatlari bilan etnik, demografik, kasbiy, sinfiy va boshqa tavsiflari bilan determinlangan.

Mehnat tashkilotlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari: sanoat, qurilish, qishloq; va o'rmon xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha yuk transporti, moddiy-texnik ta'minlash va boshqalar.

2. Noishlab chiqarish tarmoqlari jamoasi: sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, san'at, ilm va ilmga xizmat qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga va noishlab chiqarish tarmoqlariga xizmat qilish bo'yicha aloqa va passajir transporti, davlat-ma'muriy organlari apparati, boshqaqaruv organlari, kooperativ, aksionerlik va jamoatchilik tashkilotlari, sug'urta qilish va kreditlash va hokazolar.

Xalq xo'jaligida band bo'lgan jamoalaridan tashqari, yana o'quv, yarmiya va sport jamoatlari, hamda qiziqishlar bo'yicha (baliqchilik, turistik, havaskorlik).

Mamlakatda mehnat tashkilotlari hayotida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lmoqda: xususiy mulkchilikka o'tish jarayoni ketmoqda. Davlat statistik ma'lumotlari bo'yicha 1 yanvar 1997 yilda davlatga mulkchilikning taxminan 15% i qarashlidir. Jamoa statusini aniqlash kriteriyasi bo'lib mulkchilikka munosabat hisoblanadi. Ko'pchilik sotsiologlar, iqtisodchilar shunday hisoblaydilar. Shu munosabat bilan mehnat tashkilotlarini sinfiylashtirishda bir qancha fikrlar mavjud. Ulardan eng ko'p uchraydiganlarini keltiramiz.

- Kooperativ, aksionerlik mulkchiligi negizidagi mehnat tashkilotlari.
- Asosida umumxalq, davlat mulkchiligi mavjud bo'lgan jamoalar.
- Xususiy sektorda mehnat bilan band bo'lgan jamoalar.
- Chet el firmalariga ega bo'lgan qo'shma korxonalarining mehnat jamoalari.
- Profsoyuz va boshqa jamoat tashkilotlarining mulkidan foydalanuvchi mehnat tashkilotlari.

- Sanoat va boshqa noqishloq; xo'jalik korxonalarida tomorqa bilan shug'ullanuvchi jamoalar.

Qayd qilingan mehnat birlashmalarining shakllari mamlakatdagi vujudga kelgan ahvolni to'liq aks ettira olmaydi. Ishlab chiqarish, ilmiy tekshirish, muxandislik joriy qilish tashkilotlari, oliy o'qov yurtlari, ilmiy-texnikaviy, ijodiy ittifoqlar va boshqa sub'ektlar kiritilish shartnoma asosidagi jamoatlarning shunday birlashmalari tashkil qilinmoqda. Turli davlatlar sub'ektlari o'rtasidagi integratsiyaning iqtisodiy, ilmiy, moliyaviy kabi yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Ular xalqaro kapitallarning qo'shilishi negizida tashkil qilipgan. Umumiy xalqaro xo'jalik majmui paydo bo'lmoqda. Ularni tashkil etuvchi qismlari (aksiyalar ulushi



bo'yicha) alohida bir davlat firmasinnng xususiy mulki bo'lib qoladi, lekin shunday bir yaxlit majmua harakat qiladiki, masalan xalqaro energotizimlar, mashinasozlik va kimyoviy majmualar neft, oltin qazib olish, olmosni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha va h.

So'nggi yillarda mayda savdo korxonalarini, yakka tartibdagi tadbirkorlik va mayda guruhli mehnat korxonalarini kengaytmoqda, ular faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda, soliq, kredit, narx-navo siyosatini qayta ko'rib chiqish ketmoqda. Qishloq, joylarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha sanoat korxonalarini borgan sari ko'paytmoqda. Agrar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan korxonalar qurilmoqda (yog'ochni qayta ishlash, kulolchilik, tikuv ustaxonalarini, uy-ro'zg'or buyumlari, loydan va fayansdan ishlangan o'yinchoqlar tayyorlash bo'yicha sexlar), ya'ni agrosanoat majmui tuzilishi o'zgarib bormoqda.

Rejali taqsimot tizimidagi xo'jalikni boshqarishning korxonalar jamoasi uchun bozor iqtisodiga o'tish, uning faoliyatidagi printsiplarning jiddiy o'zgarishlari bilan bog'liqdir, chunki u mehnat bozorida, tovar va kapitalda mustaqil sub'ekt bo'la boshlaydi, tegishli buyumlarga (tovar) talabni o'zi tekshiradi va xizmat qilish taklifi haqida sarflarni o'rganadi. Shuning uchun korxonalar, tashkilot jamoasi yangi sharoitlarga ko'nikma hosil qilishi uchun tegishli vaqt zarur, aks holda salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini oldini olib bo'lmaydi. Ushbu va boshqa muammolarni echishgaijtimoiy rivojlanishining uzoq muddatli rejalari yordam berishi mumkin edi. Lekin ularni tayyorlash bilan hech kim amalda shug'ullanmayotir.

Mehnat jamoasi, birlashmalar ichida o'z ijtimoiy muhim qiymat normalari va yo'l-yo'riqlari, talab ehtiyojlari shakllangan katta bir guruh sifatida chiqishi mumkin. Mehnat jamoasiga, birlashmaga qadam qo'ya turib, shaxs yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shiladilar, jamiyat va jamoa oldida alohida javobgarlikni qabul qiladilar. Har bir individing-jamoa talablariga, prinsiplariga va normalariga ko'nikishi sodir bo'ladi. Yangi kelgan odam jamoada vujudga kelgan o'sha «uyni qoidalari»ni qabul qilishga majbur, aytganlaridek, unga moslashishlari kerak. Aks holda, tizim (jamoa) ko'p hollarda uni favqulodda ajratib qo'yadi.

Mehnat jamoasi — faoliyat sub'ekti. Ishlab chiqarish munosabatlari (mustaqillik, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, o'z fond va mablag'larini idora qilish va h.) ko'p hollarda jamoa a'zolarining istaklariga xilof ravishda yuzaga keladi. Lekin boshqarish, rivojlanish, vositalarni qo'llash ishlab chiqarish qatnashchilarining ixtiyoriy-ongli faoliyati tufayligina sodir bo'ladi. Mehnat birlashmalari qatnashchilarining ishlab chiqarishning natijalari, sharoitlari va vositalariga faol munosabatlari ishlab chiqarish qatnashuvchilariga tegishli ravishda so'nggilari ishtirok etadilar. Bu holda mehnat jamoasi ishlab chiqarish munosabatlarining sub'ekti bo'la boshlaydilar. Jamoa a'zolarining qanchalik egalik qilish xissi kuchliroq, bo'lsa, ularning mulk va o'z-o'zini boshqarish oliygohida mustahkamlangan mehnat va ijtimoiy faolligi shunchalik yuqori bo'ladi. Mulki va o'z-o'zini boshqarish oliygohi bir kishining boshqa bir kishilar tomonidan davlat apparati yordamida boshqaruvidan farqli o'laroq, har bir ishchida mashinalar va jihozlar, yer va energiya tashuvchilar va qishloq xo'jalik munosabati bilan

foydalanishga shaxsiy manfaatdorlikni yuzaga keltiradi.

Mehnat o'zining keng ma'nosida sotsioantropogenetik vazifani bajaradi. Mehnat tashkiloti, jamoa esa — ko'p funksional ta'limni. Uning asosiy vazifalari bo'lib ishlab chiqarish, sheriklik, tashkiliy — muntazam, yoki boshqaruv, ijtimoiy, tarbiyaviy va h. hisoblanadi.

Asosiy vazifasi — ishlab chiqaruvchi. Jamoa samarali ishlashi uchun, unga dam olish va normal mehnat sharoiti yaratib berish muhimdir. Bundan tashqari, bu ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun muhim shart-sharoitdir.

Asosiy vazifalarni amalga oshirish o'z navbatida, keyingi juda muhim vazifalaridan biri — sheriklikni (ishlab chiqarish vositalariga) oldindan belgilaydi. Ishlab chiqarish vositalariga egalikka sherik bo'lish (davlat, aktsionerlik, xususiy va h.) — mas'ul va ba'zan xavfli ishdir. Bu vazifa mehnat faoliyati jarayonida avvalo ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Korxonalarining (zavodlar, fabrika, konlar, yer, qurilmalar, bo'limlar va banklar va h.) asosiy fondlarini xususiylashtirgan jamoa o'z rivojlanishiniig sharoitni boshqarish sub'ekti bo'lib yaqqol ko'rinadi. Mehnat tashkiloti faoliyatining boshqa shakllari xususiy qo'shma korxonalarda vujudga keladi.

Jamoaning birinchi vazifasi asosan mehnatning texnik-iqtisodiy mazmunini aks ettiradi, ikkinchisi — uning ijtimoiy iqtisodiy harakterni va xususan, jamoaning ijtimoiy tizimida ifodalanadi. Mehnat jamoasiga ham korxonaga egalari, ham yollanma ishchilar kirishi mumkin. Qo'shma va xususiy korxonalaridagi ikkinchi vazifasi ishlab chiqarish maxsulotlarini taqsimlash tizimida, uni o'zlashtirish usulida jamoaning mehnatni umumiy tashkil qilishdagi roli va o'rnini ifodalaydi.

Ikkinchi vazifani amalga oshirish darajasini shunday ko'rsatkichlar yordamida o'lchash mumkinki, ular: mehnat jamoasini ijtimoiy tashkil qilish, kadrlar ijtimoiy, vertikal ko'chishini tanlash, joy-joyiga qo'yish, o'qitish tizimi, mehnatga munosabatni mukammallashtirish, ma'naviy-psixologik klimat va b.

Shaxsning shakllanishi jarayonida jamoaning, insonning mehnat faoliyati muhim ahamiyatga ega. Mehnatning ta'sir doirasi shaxs tuzilishining barcha muhim elementlarini o'z ichiga oladi. Mehnat ko'pincha inson psixologik ehtiyojlarini tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz bo'lib, ular hayotini tartibga soluvchi, atrof-muhit bilano'zaro munosabatini, ahloqini boshqaruvchi vosita vujudga keladi. Shunday qilib, mehnat jamoasining asosiy vazifasi moddiy boyliklarni ishlab chiqarishdir. Uni amalga oshirishda jamoa birinchi shaxs bo'lib chiqqan. Ikkinchi vazifaga kelsak — ishlab chiqarish vositalariga umumxalq mulkiga sherik bo'lish — u taqdir taqazosi bilan doim sahna ortida shovqinni aks ettirib, uzoq, vaqt faqat ikkinchi shaxs bo'lib kelgan, chunki so'nggi vaqtgacha ishlab chiqarish vositalarining bosh boshqaruvchisi korxonaga emas, har holda davlat bo'lib kelgan xatto kolxozlar o'z artel mahsulotiga xo'jayinlik qilish imkoniga ega emas edilar. Tarmoqlar bo'yicha vazirlikdagi amaldorlar davlat nomidan, xalq nomidan ko'pincha hamma masalalarni o'zlarining tor mahkamachilik talablarini nafaqat mehnat jamoalari, balki umumxalq (masalan, daryolarni burish, o'rmon kesish va h.) talablaridan yuqori qo'ya turib, hal qilishgan. Korxonaga huquqi va ishlab chiqarish vositalarining alohida qismiga, hamda xususiy daromadlar ega

bo'lish huquqi inkor qilingan.

Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin yillarda mamlakat iqtisodida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi: foyda keltirmaydigan korxonalarining yopilishi va mahsulot birligiga jonli mehnat solishtirma og'irligi qisqarishi natijasida ishsizlar darajasi ko'payadi; ishlab chiqarishga malakali mehnatni mo'ljallagan yoshlar keladi; mehnat sarflarining tabiiy ortishi qisqaradi va h. Shuning uchun mehnat jamoasining korxonalar ijtimoiy rivojlanishi rejalarining ahamiyati boshqalarning ta'kidlashicha, jiddiy ravishda o'sadi, pasaymaydi. Yangi va rekonstruksiya qilinayotgan korxonalarining loyihalariga shunday chora-tadbirlarni qo'shish kerakki, ular ishchilar mehnati mazmunini boyitsin. Mehnat jamoalari rivojlanishi rejalarida ijtimoiy ko'rsatkichlar nafaqat ma'lumot vazifasini, balki boshqaruv masalalariga osongina aylanishlari kerak. Mehnat jamoalarida, tashkilotlarda ko'pincha ixtiloflar, nizolar ro'y beradi. Ularning sababi juda xilma-xildir. Nizoga olib keluvchi sub'ektlar (ularni ko'pincha nizo agentlari deyishadi) to'g'ridan-to'g'ri teskari maqsadlarni o'z oldilariga qo'yadilar. Nizo agentlariga birinchi saflarda harakat qiluvchi va hammadan ham o'z manfaatlarini qondirishga intiluvchi guruhlar kiradi; shunday guruhlar borki, ular nizoni avj oldirishga bevosita aralashmagan holda bilvosita xissalarini qo'shadilar, lekin nizoning o'sib borishi davrida birinchi rollarda bo'lib qolishi mumkin, guruhlarning uchinchi turi — bu nizolarni bartaraf qilishga manfaatdor bo'lganlardir.

Shuni bilishimiz kerakki, ya'ni nizo — vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf qilishning samarasiz yo'lidir, chunki nizo paytida alanga oladigan hissiyotlar tufayli, fikrlash susayadi va qisqaradi, psixikaning yanada ibtidoiy qatlamlari harakatga keladi va ishlaydi. Ammo tanlash imkoni bo'lmasa o'z nizo — ziddiyatlarni tartibga solishning yagona mumkin bo'lgan usuli bo'lsa, u holla jamoaning, tashkilotning rahbari nizoni boshqarishi, tashabbusni qo'lida ushab turishi uchun unda qatnashishi kerak. Nizoga kirishishdan oldin quyidagi savollarga javobni bilish zarur:

Ziddiyatni bartaraf qilishning umuman imkoni bormi va zaruriyati bormi? Shuni qilish kerakmi? (chunki ziddiyat — tashkilot rivojlanishining dvigateli)?

Agar ziddiyatni bartaraf qilish zarur bo'lsa, u holda ushbu masalani yechishda qanday yo'llar, vositalar tejamli va axloqiy bo'ladi?

Nizo qanchalik uzoq; vaqtga cho'zilishi mumkin va g'alaba qilishga sizning kuchingiz yetadimi?

Nizoning natijalari qanday bo'lishi mumkin?

Bundan tashqari, nizoli sub'ektlarning kuchlari haqida, ittifoqchilari haqida, boshqa sub'ektlar {brigadalar, jamoalar, boshqa smenalar, sexlar, konkurentlar, jamoat tashkilotlari, davlat korxonalari va h.) tomonidan nizoga bo'lgan munosabat haqida aniq, tasavvurga ega bo'lish kerak.

Agar nizo bo'lishi aniq, bo'lsa, hissiyotlarni nazorat qilgan holda, nizoning haqiqiy sabablarini aniqlash, uni to'htashi, himoyada haddan ziyod konsenratsiyadan holi bo'lish, tashabbusni o'z qo'lida ushlab turish. Nizoning asos qilib olingani to'rtga bo'lishi mumkin:

I. (ish tashlovchilarning, stachkalarining va h.) talablariga bo'ysunish; 2. kompromiss; 3. nizodan qochish yoki vaziyatni topshirish; 4. ziddiyatlarni

oqilona bartaraf qilishni izlashda nizoli tomonlar kuchini birlashtirish, integratsiya. Bunday hollarda nizoni quyidagi omillarning ta'siri bilan yumshatish mumkin:

kooperatsiyaga, hamkorlikka va o'zaro yordamga orientatsiya tenglashtiradigan kollektivizmning qimmatlari sifatida;

ishchilarning qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilishda ishtiroki, bu nizoni yo'l qo'yilgan chegaralarda ushlab turishga imkon beradi;

nizoning tuzilishi manbaini istisno qiluvchi vaziyatlar o'raining chalkashishi.

Shuni yodda tutish kerakki, asossiz tenglashtirish (tekischilik) o'zini ijtimoyalangan deb ko'ruvchi, barchani teng biluvchilarning qoniqmasligini kuchaytiradi. Tekischilik mafkurasi — nizo ishtirokchilarining agressiv xulq-atvorining sabablaridan biridir. Boshqa sababi — ma'muriyat tomonidan hamda mehnat jamoasi tomonidan aynan bir hil bo'lmagan nizoga munosabat. Uchinchi — nizoni yumshatish usulining ishlab chiqilmaganligi, buning natijasida dekonstruktiv kuchlar konstruktiv kuchlardan yuqori keladilar. To'rtinchi sabab — ba'zan ijtimoiy muammolarni ko'pchilik bo'lib yechish o'rniga ma'muriyat bo'yniga asossiz qo'yilishi. Muhimi, ikkala nizoli tomonlar o'ziga ham huquq, ham majburiyatlarini olsalar, asosiysi — doim nizo oqibatlarini bilan kurashmasdan, uni kelib chiqish sabablarini topishlari kerak.

Mamlakatda mehnat jamoalari bozor munosabatlarining tarkib topishi asosida ko'p hollarda mavjud axloq me'yorlarini yo'qotmoqdalar, ayniqsa, rag'barlar va uning qo'l ostidagilar, ishdagi oshnalar, turli jamoalar va boshqalar o'rtasidagi muloqat doirasida. Normal bozor munosabatlarining shakllanishi normal axloqiy psixologik atmosferani, sog'lom konkurensiyani, faqat shaxsiy moddiy boyligi uchungina emas, balki butun jamiyat uchun ham foyda keltirish uchun ishlash qoniqishini ko'zlaydi va tashkil qiladi.

## **5-MAVZU: Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor. (2 soat)**

**Reja:**

1. Shaxs sotsiologiyasi.
2. Deviant-xulq atvor sotsiologiyasi.
3. Ijtimoiy me'yorlar va ularning turlari
4. Sotsial nazorat.
5. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi haqidagi nazariyalar.

### **Shaxs sotsiologiyasi.**

Shaxsning jamiyatdagi o'rni va mohiyati sotsiologiya fanining muhim va baxstlab sohalaridan biri bo'lib keldi. Inson mohiyatini dastlab o'rgangan olimlar Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Insonning muhim hususiyatlaridan biri uning ijtimoiy mavjudod ekanligidir. Inson o'zining extiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan xoli bo'lsa, undagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi.

Individ inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biridir. Shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida uning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratadi. Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlaridagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi-uning darajasi sekinlik bilan yuksak ta'lim tajribaga, shuningdek yuqoriy kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirish rasmiy tizimining shakllanishi, ijtimoiy boshqaruv takomillashgan tizimning yaratilishi, diniy davlat va boshqaruvdan ajratilish, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini ximoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi.

Shaxs o'zing sotsial shart-sharoitiga bog'liq bo'lgan va individual suratda ifodalangan suratlariga: intellektual, emotsional va irodaviy sifatlarga ega bo'lgan odam. Shaxsni ilmiy tushinish inson moxiyatini ijtimoiy munosabatlar majmui deb ta'riflashga asoslanadi. Psixologiyada o'ziga xos individual xarakterga intellekt, emotsional xususiyatlariga ega bo'lgan xar bir kishi shaxsning psixologik xususiyatlariga odamning xarakteri, temperamenti, qismlarning o'tish xossalari kiradi.

Psixik xolatlar (kechinmalar, xatti-xarakat mativlari va boshqalar) uzliksiz o'zgarganda shaxsning psixologik tuzilishi yoki kiyofasi ma'lum darajada doimiy bo'lib qoladi, bu esa turmush sharoitining nisbiy doimiyliigi bilan individ nerv sistemasining tipologik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shaxs psixologik tuzilishining o'zgarishlari, inson turmushida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning, ijtimoiy tarbiya protsessining natijasidir. Shaxs insonning ichki xislatlari va xususiyatlarining aloqador majmui bo'lib, barcha tashqi ta'sirlar mazkur xususiyatlar orqali singib o'tadi. Shaxsning faollik manbai-insoning xilma-xil

shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlardan iborat. Shaxsdagi sub'ektivlik (kechinmalar, ong extiyojlari) inson bilan tevarak atrofdagi vokelik o'rtasida vujudga keladigan ob'ektiv munosabatlardan ajralmasdir. Shaxsning rivojlanish darajasi mazkur munosabatlar tarixan nechog'lik progressiv ekanligiga bog'liq.

### **Deviant xulq- atvor va uning turlari**

**Deviatsiya** (lotincha chetga og'uvchi fe'l-atvor degan ma'noni beradi) ko'pgina hollarda sotsial sanksiyalarga muhtoj bo'ladi. Deviatsiyaning shunday ko'rinishlari borki, ular odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar normalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatga jiddiy zarar etkazmaydi. Ular ijtimoiy fikr va o'zaro munosabatlar qatnashchilarining o'zlari tomonidan boshqariladi.

Deviatsiyaning pozitiv va negativ ko'rinishlari mavjud. Pozitiv deviatsiya hollari normalar eskirib, talabga javob bermay qolganda va ulardan og'ish tizimning rivojiga, fe'l-atvorning mavjud konservativ standartlarini o'zgartirishga yordam berishi mumkin bo'lganda uchraydi. Negativ deviatsiya sotsial patologiyadir va uning ko'rinishlari konkret shaxsga va butun jamiyatga jiddiy zarar etkazadi.

Bugungi kunda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida adminstrativ boshqaruv tizimi tomonidan yuzaga keltirilgan va kutilgan natijalarni bermayotgan ilgarigi fe'l-atvor normalarining devalvatsiyasiga olib keluvchi sifatga xos o'zgarishlar ro'y berayotgan davrda deviatsiya muammosi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish, eski iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy munosabatlarining buzilishi, odamlarining moddiy ahvolda negativ aks etayotgan ishlab chiqarishning stabil bo'lmagan rivojlanishi bilan bog'liq muammolar, kutilgan natija va reallik o'rtasida qarama-qarshiliklarga, jamiyatda jiddiylilikning va odamlarning o'z fe'l-atvori o'zgartirishga va mavjud normalar chegarasidan chiqishga moyilligiga olib keldi.

Deviatsiyaning quyidagi klassifikatsiyasi mavjud: jinoyatchilik, alokogolizm, giyohvandlik, suitsid, fohishabozlik.

**Jinoyatchilik** franko-belgiyalik olim matematik statistik L.A.Ketle o'zining «sotsial-fizika» (1835 yil) kitobida shunday xulosaga keladiki, har qanday sotsial tuzum o'zining tashkil topishiga ko'ra kelib chiquvchi jinoyatlarning ma'lum bir miqdori va tartibini belgilaydi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar jinoyatni bir qator obyektiv va subyektiv faktorlardan kelib chiqishidan ko'rsatdi: sotsial o'rin (mavqe), faoliyat turi, ma'lumot darajasi, qoniqtirmaydigan moddiy ahvol, individ va sotsial guruh o'rtasida munosabatlarni pasayishi, madaniy chegaralarning yo'qligi, sotsial nazoratni talabga javob bermasligi.

Jahon amaliyoti ko'rsatganidek, bozor munosabatlariga o'tishda, ayniqsa, birinchi davrlarda jinoyatni kuchayishi kuzatiladi. Jinoyatchilikni ahvoliga nosog'lom konkurensiya, ishga joylashishga qiyinchiliklari, infilyasiya katta ta'sir ko'rstaadi. Jinoyat bu insoniyatni barcha nuqsonlarini aks ettirishidir. Hech qaysi jamiyat uni yo'q qilishga erishgani yo'q. Shunday bo'lsada, jamiyatni majburiy bo'lgan vazifasi o'sish templarini pasayishiga erishish va jinoyatchilikni sotsial chidamkorlik darajasida nazorat ustida ushlab turishidir.

**Alkogolizm (ichkilikbozlik)**, bayram, tantanali marosimlar, oilaviy tantanalarni o'tkazishda, shuningdek, shaxsiy muammolarni hal etish yo'lida spirtli

ichimliklar ichish majburiy bo'lib qolganligi an'anasi insonlar hayotida alkogolni qattiq o'rnashib qolganligiga asos bo'ladi. Lekin bu sotsial-madaniy an'ana jamiyatga qimmatga tushmoqda. Statistika ko'ra, sobiq ittifoq davrida mayda bezorilikni 90%, tajavuzkorlikni 90%, boshqa jinoyatlarni qariyb 40% ichkilikbozlik bilan bog'liq bo'lgan.

Tarix guvohlik beradiki, jamiyat alkogolizmga qarshi 2 yo'l bilan kurashgan:

1) Spirtli ichimliklarni chegaralash, ularni ishlab chiqarishni va sotishni qisqartirish, narxini oshirish, ta'qiq va chegaralarni buzganligi uchun jazoni kuchaytirish yo'lidir.

2) Bu alkogolga ehtiyojni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni kuchaytirish, hayotni sotsial va iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash, umumiy madaniy va ma'naviyatni o'sishi, alohida alkogolsiz fe'l-atvor stereotiplarini shakllantirish yo'lidir. Ikkinchi yo'l maqsadga muvofiqdir, lekin bu alkogolizmga qarshi kurashni administrativ yo'lini rad etmaydi. Bu 2 yo'lni birga ongli ravishda muvofiqlashtirish lozim.

**Giyohvandlik (narkomaniya).** Shaxsga va jamiyatga bugun buzg'unchi ta'sir ko'rsatuvchi, og'ir sotsial oqibatlariga ko'ra giyohvandlik asosiy o'rin tutadi. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, odamlar rohat olish, o'tkir hissiyotlarga kirishish uchun giyohvand moddalarga berilib qoladilar. Giyohvandlar asosan yoshlar ichida ko'p uchraydi. Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshqa odamlar ta'siri ostida, asosan do'stlari, tanishlari orqali giyohvand moddalarga berilib qolmoqdalar. Xavfli tomni shundaki, narkotiklar qabul qilishni boshlanish etaplarida odam hech qanday yomon ta'sir, og'ir sezmaydi, aksincha giyohvand moddani qabul qilganda kayfiyat ko'tariladi. Jism shunday rohat oladiki, buni ko'pchilik sog'liqqa yaxshi yordam beradi, tinchlantiradi deb o'ylaydi. Jismoniy va psixik degradatsiya bosqichida esa, ular boshi berk ko'chaga kirib qolganligini anglab etadilar. Lekin bu odatdan voz kechishga kuchlari etmaydi, unga bo'ysunib qoladilar. Giyohvandlik bilan kurashida sotsial, iqtisodiy, madaniy xarakterdagi chora-tadbirlar va shuningdek maxsus meditsinaga oid, huquqiy chora-tadbirlardan foydalaniladi.

**Suitsid (o'z-o'zini o'ldirish).** Suitsid bu odamning o'zini-o'zi o'ldirishga harakat qilishdir. Ko'p hollarda suitsid chetga og'uvchi fe'l-atvor sifatida echilishi mumkin bo'magan muammolardan, umuman hayotdan qutulish usuli bo'lib keladi. Bunday hollar kuzatilib, o'rganilib, shunday xulosaga kelindiki, ular ma'lum darajada jins, yosh ma'lumot, sotsial va oiladagi tutgan o'rniga bog'liq holda kelib chiqadi. Suitsidlar, asosan rivojlangan davlatlarda ko'p uchraydi va bugungi kunda ularni ko'payishi kuzatilmoqda. Erkaklar orasida sodir etilayotgan suitsid hollari ayol orasidagiga qaraganda ko'proq og'ir ahvollarga olib keladi. O'z joniga qasd qilish 20 yoshgacha va 55 yoshdan oshganlar ichida uchraydi. Hozirgi o'z-o'zini o'ldirish hollari 10-12 yoshli bolalar ichida ham kuchaymoqda. Jahon statistikasiga ko'ra, suitsid fe'l-atvor ko'pincha shaharlarda, yolg'iz yashovchi odamlar orasida kuzatiladi. O'rta Osiyoda 60-yillardayoq ayollar ichida o'z joniga qasd qilish hollari kuzatilgan. Asosan o'zini yoqish ko'paygan. Buning sotsial sababi ayollarga bo'lgan noto'g'ri munosabatlar, ularga jamiyat tomonidan befarq qaralganligi turmushdagi qiyinchiliklar, ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga,

ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etishda zarur shart-sharoitni yaratish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni mahalliy boshqarish organlari tomonlaridan noto'g'ri hal etilganligidir.

**Fohishabozlik.** Bu termin lotincha «Prostitutio» so'zidan olingan bo'lib, ornomusni yo'qotish, xo'rlash, toptash degan ma'nolarni beradi. Mehnat taqsimoti, shaharlarni vujudga kelishi jarayonida paydo bo'lgan fohishabozlik kapitalistik munosabatlar bilan bir qatorda rivojlanib bordi. XX asrning 20 yillarining boshlaridan Yevropada ham, Shimoliy Amerikada fohishabozlikni kamayishi kuzatilmoqda. Bu an'anani sababi tadqiqotchilarni fikriga ko'ra ayollarni iqtisodiy ahvolini yaxshilanishi, birovga qaram bo'lib qolmasligidir. Sobiq ittifoqda fohishabozlik to'g'risida gapirilmas edi, yaqindan boshlab tadqiqot natijalari ochiq matbuotda e'lon qilina boshlandi, qaerlardadir bu harakatlar qonuniylashtirilgan. 20-yillarda ko'p ayollar bunday ish bilan ochlik va etishmovchilik tufayli shug'ullanishgan. Ular asosan ma'lumoti past ayollar edi. Bugungi kunda sotsial va yosh bazasini keskin kengayishi kuzatilmoqda. Ayollar bunday ishni ochlikdan, yo'qchilikdan emas, balki moddiy ahvolini yanada yaxshilashga, «chiroyli hayot»ga intilishlari tufayli qilmoqdalar. Fohishabozlikka qarshi turli siyosatlar olib borilgan: progibitsionizm (ta'qiq), reglamentatsiya (ro'yhatga olish va meditsinaga oid ko'rsatish), abolitsionizm (profilaktika), tushuntirish-tarbiyalash ishlari. 1-2 formani etarlicha effektiv emasligi ma'lum bo'ldi. Moddiy manfaatdorlikni o'sishi bilan ayollarni axloqiy o'sishi fohishabozlikni bora-bora chetga chiqishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda o'smirlar orasida deviant fe'l-atvorni o'sishi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. O'smirlar ko'pincha chetga og'uvchi hatti-harakatlarni ongsiz ravishda, behosdan qiladilar. Shuning uchun ularning ko'pchiligi qilgan ishlarini mohiyatini anglab etmaydi, o'z xatosini, aybini ko'rmaydi. So'rovlar natijasiga ko'ra, o'smirlarni ko'pchiligi o'z jinoiy ishlarini sababini tashqi shart-sharoitlardan qidiradilar, tashqi dunyoni ayblaydilar, so'ralganlarni to'rtdan bir qismi o'xshash vaziyatda har biri shunday hatti-harakat qilishini aytib o'tganlar. O'smirlarni hatti-harakatida chetga og'ish hollarini asosida sotsial-madaniy ehtiyojlarni rivojlanmaganligi, ma'naviy dunyoni etishmovchiligi yotadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, yoshlar deviatsiyasi-jamiyatdagi sotsial munosabatlarni aks ettirishdir. Chetga og'uvchi fe'l-atvor sabablarini topish, sotsial yordam tizimini tashkil qilish, tushuntirish tarbiya ishlarini olib borish bo'yicha yaxshi o'ylangan, maqsadli yo'naltirilgan ishlar qilish kerak.

### **Ijtimoiy me'yorlar.**

Mehnat faoliyati har vaqt ma'lum iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarga kiritilgan va u yoki bu kasbiy guruhlarga qarashlidir, ijtimoiy institutlar bilan bog'liq, vaqt va maydonda chegaralangan mehnat jamoasida axloqiy va ijtimoiy-psixologik iqlim bilan, ma'lum mulkchilik shakllari bilan. Quyida mehnat sharoitlar va shakllari uning tavsifi (jamoat yoki shaxsiy mehnat) va motivatsiya muammolari ko'rib chiqiladi.

Jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlar inson omilining faollashuviga, insonlarning mehnat va intellektual salohiyatidan imkoni boricha unumli foydalanishga, barcha mehnatkashlarning ijodiy quvvatlarini to'la ishga solishga



hamda shaxs bilan jamiyat va davlat o'rtasidagi qiziqish va munosabatlarning mutanosibligini ta'minlashga bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy fanlar oldiga juda katta vazifalarni qo'yimoqdaki, ularsiz jamiyatni o'rganish, yangilanish jarayonlarining istiqbolini belgilash va ilmiy-nazariy asoslarini yaratish mumkin emas. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi ta'minlashda, belgilangan beshta tamoyilni amalga oshirishda mehnat sotsiologiyasi alohida o'rin egallaydi. Zero, sotsiologiya fanining bu yo'nalishi mehnat sohasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi va ularni boshqa omillar bilan birga boshqarishni ta'minlaydi. Mehnat sotsiologiyasining yaratilishi ancha uzoq, tarixga ega va katta manbalarga ega bo'lsa ham hali u fan sifatida to'la shug'ullanmagan. Mehnat sotsiologiyasi bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar juda katta izlanishlar lozimligini ko'rsatmoqda. Lekin hozirgi kunda qo'limizdagi bor uslub va uslubiyotlar, tajriba natijalari mehnat sohasidagi ijtimoiy siyosatni chuqur o'rganib jamiyatning barcha tarmoqlaridan mehnatni to'g'ri tashkil qilishga mehnatga adolatli haq to'lashni ta'minlashga va ohir oqibatda mehnat unumdorligi doimo oshib borishini ta'minlashga imkon yaratadi. Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi bo'yicha barcha sotsial axborotlarni to'plashga, ishlab chiqarish zaxiralaridan to'la foydalanishga, hamda mehnatni boshqarishni optimal strategiyasi va taktikasini belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur sotsiologiya darsligining mehnat sotsiologiyasi qismi oliy ta'lim talabalari uchun juda qisqa yozilgan bo'lib, barcha tarmoqlar bo'yicha faqatgina mehnat sotsiologiyasining umumiy yo'nalishlarinigina beradi xolos. Bu qismda mehnat sotsiologiyasi predmetini, uslub va uslubiyotlarini bayon qilinadi. Bu uslub va uslubiyotlar sotsiologlar va boshqa soha mutaxassisleri uchun mehnat va mehnatga bo'lgan munosabatni ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qilish, mehnat va mehnat zahiralari tadqiq qilish, hamda mehnat jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish uchun tadbirlar yaratishda yordam beradi. Bu fanning kelib chiqish tarixini o'rganish esa uning taraqqiyoti uchun yordam beradi. Shuning uchun bu bobda qisqacha bo'lsa ham mehnat sotsiologiyasining shakllanish tarixi bayon qilindi.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasi va uning xalq xo'jaligidagi o'rni katta ahamiyat kasb etish bilan birga mamlakatda huquqiy va demokratik tizimni rivojlantirishga, sotsial adolat o'rnatishga, mehnat unumdorligining doimo oshib borishiga yordam beradi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat sotsiologiyasining oldiga nazariy hamda amaliy jihatdan mehnat muamolarini to'la-tukis yechib berishni va uning istiqbollari belgilashni hayotning o'zi qo'yimoqda. Bugungi kunda mehnatni boshqarishning barcha turkum omillarini hisobga oluvchi axborotlar bazasini yaratish va uning sotsiologik monitoringini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy mehnat o'zida murakkab tuzilishni tasavvur etadi. Buning natijasida u to'la fanlar qatorida o'rganish mavzusi bo'lib hisoblanadi. Mehnat sotsiologiyasida tahlil qilishning birnecha yo'nalishlari ajratiladi: biznes ishlab chiqarish va hokazolarni boshqarishning tuzilishi va iyerarxiyasini o'rganuvchi tashkilotlar sotsiologiyasi; u yoki bu faoliyatning afzalliklarini o'rganuvchi kasblar sotsiologiyasi, qimmatboho orientatsiyalar, kasbga layoqatlilik va boshqalar;

mehnat faoliyati ijtimoiy jarayon sifatida; mehnat unimdorligini oshiruvchi ijtimoiy omillar; texnologik va ijtimoiy sharoitlarning mehnat munosabatlariga ta'siri va h.

Shubhasiz, nisbatan bir kichik bobning o'zida qo'yilgan muammolarning barcha aspektlarini ko'rib chiqish mumkin emas. Ulardan ba'zi eng muhimlarida to'xtab o'tamiz. Bizni o'rtacha saviyadagi nazariya ko'proq darajada qiziqtiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida istemol bahosi, moddiy va manaviy manfaat paydo bo'ladi. Marks va Engelslarning fikricha, bu «shunday jarayonki, unda inson o'z xususiy faoliyati bilan tabiat va o'zi o'rtasidagi modda almashuvini vositalaydi, boshqaradi va nazorat qiladi». Ushbu mualliflarning asarlaridan yana bir fikrni keltirishimiz kerak, ya'ni mehnat butun inson hayotida birinchi va asosiy shart –sharoitdir, chunonchi shu darajadagi, biz aytishimiz kerak; mehnat insonni o'zini yaratadi. Mehnat biz tomondan kishilik jamiyati hayoti faoliyati asosiy shakli, turmushining muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi. Mehnat tarixan jamiyatni tabiatdan, insonni bo'lsa hayvonot olamidani ajralishiga sabab bo'ldi va imkon tug'dirdi.

Mehnat jarayoni o'z ichiga uch lahzani kiritadi; 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi; 2) mehnat mavzusi, ya'ni bu faoliyatning nimaga yo'naltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning turli rivojlanish bosqichlarida mehnat davr ijtimoiy munosabatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari hisoblangan turli shakllarda ko'rinadi.

Hozirgi paytda biz doimo eshitib turadigan ikkita o'xshash tushinchalarni taqsimlashimiz zarurdir: yakka tartibdagi mehnat va yakka tartibdagi mehnat zonasini bildiradi bu mehnatning texnologik taqsimoti tarkibiy qismidir. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati – mehnatning iqtisodiy taqsimoti tarkibiy qismidir. Bu fuqarolarning ijtimoiy foydali faoliyati bo'lib, u alohida bir shaxs va uning oila azolari shaxsiy mehnatiga asoslangan. Bunday faoliyat asosini shaxsiy mulkda bo'lgan mehnat vositasi, uy joy binosi va qurilmalari, yer, ishlab chiqarish maxsulotlari, transport vositalari va hokazolar. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati jamiyat ichidagi mehnatning taqsimlanishi elementi bo'lib qatnashadi.

«Mehnat shartlari» toifasi muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy tavsifini aniqlovchi tafsilotlarga berilmasdan, faqat mehnat sharoiti normal va zararli bo'lishi mumkinligini aytib o'tishimiz kerak. Normal sharoitlardagi ish inson salomatligiga aniq zarar keltirmaydi. Zararli mehnat sharoitlari (shaxtalarda, domna va marten pechlarida, kimyoviy ishlab chiqarishning bazi sexlarida va boshqa joylarida ishlash) inson salomatligi uchun xaflidir ko'pincha inson hayotini tahdidga soladi. Bundan tashqari, mehnat sharoitlari sotsiologlar tomonidan ekstremal, nisbatan normal va qulay sharoitlarga bo'linadi. Ko'p hollarda ular mehnat mazmuni va uni tashkil qilishga bog'liqdir. Mehnatni tashkil qilish deganda odatda, moddiy mehnat bilan jonli mehnatning bog'lanish tartibi, usullari va shakli tushuniladi (inson jihozlar, mashinalar asboblari). Mehnatni tashkil qilish ishchi joylari, mehnat taqsimoti va uning kooperatsiyasi, ishning taqsimlanishi va

nazorat kabi muhim elementlarga asoslanadi. So‘ngi element iqtisodiy vositalar, sotsial sanksiyalar va huquqiy normalar qo‘llanishini bildiradi.

Mehnat mazmuni uning texnik funktsional tomonlarini, mehnatning mazmundorligi esa-sotsial-psixologik tuzilishini ifodalaydi. Agar xususiy reja bo‘yicha tuzilgan bo‘lsa, mehnat mazmunli va ijodiy sub‘ekt sifatida ko‘riladi. Begona hokimlikni irodaga bo‘ysindirish – psixalogik va ijtimoiy yiroqlashishga yo‘l. Mana shuning uchun ishchilar, xodimlar oldiga maqsad va vazifani qo‘yish va bu maqsadga erishish yo‘llarini tanlashda, shubhasiz, uning faoliyatini noziklik bilan nazorat qilish bilan ular fantaziyasiga keng yo‘l ochib berishga intilish muhimdir.

Ishlab chiqarishda mehnatni tashkil qilish, uni boshqarishda, biznesda, huquqshunoslik idorasida mehnatni rag‘batlantirish va asoslash katta ahamiyat kasb etadi. Rag‘batlantirish – bu to‘g‘ri va qisman shaklda ifodalangan mehnatni kuchaytirishni moddiy va ma‘naviy mukofotlash tizimidir. Rag‘batlantirish – majburiy mehnatdan ixtiyoriyga qadam. Mehnat asoslari – ixtiyoriy mehnatga boshqacha, yanada kengroq qadam, muhim inson ehtiyojlarini qondirishga asoslangan faol mehnat faoliyatiga moyillik (kuchli shaxslarga faol biznesmenlarga va boshqalarga mansublik mavqeini aniqlab olish). Asoslar qadriyatlar va yo‘l yo‘riqlar bilan uzviy bog‘liqdir. Asoslar u yoki bu holatni, dalili subektiv baholashga mo‘ljallangan, ular nisbiydir. Qadriyatlar asosida jamiyat tomonidan nimanidir shak-shubhasiz normalar sifatida obektiv tan olinishi yotadi, qadriyatlar axloqiy talab bo‘lib, ular absolyutdir.

«Mehnat sotsiologiyasi» darsligi mualliflarining haqqoniy ta‘kidlashlaricha, mehnat mazmundorligining asosiy elementlari bo‘lib, agar uning mehnat faoliyatining ijtimoiy psixalogik tuzilishi sifatida tushinilsa, quydagilar hisoblanadi: maqsad-oldindan seziladigan natijalarni tan olingan obrazi ta‘sir qilishning ideal rejasi; mehnatga munosabat-uning asosida mehnatning ongliylikini va maqsadga tegishlilikni o‘ziningdek sezish, atrof olamni shaxsiy reja bo‘yicha qayta rivojlantirish; mehnatni rag‘batlantiruvchi omillar-mehnat falligiga undovchi tashqi omillar; mehnat asoslari – muhim bir narsadek tan olinuvchi ehtiyoj, ichki rag‘batlantiruvchi omillar; qadriyatlar va ularga qarab mo‘ljallash-mehnat faoliyatining axloqiy talabi.

Mehnat faoliyati, yuqorida qayd qilinganidek, yakka tartibda va guruhli bo‘lishi mumkin. Guruhli faoliyat ayniqsa yirik korxonalarda aksionerlik jamiyatlarida tartibi bo‘yicha, jamoadan boshqa hech qanday o‘zgacha bo‘lishi mumkin emas. Mehnat jamoasi-bu «faoliyat davomida shaxsan qimmatli va ijtimoiy-ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarni bajarish uchun uyushgan kishilarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy birlashtirishdir».

Mehnat jamoasi-ijtimoiy mehnatning muhim tavsifidir. Uning ijtimoiy mushtaraklik sifatida (bir tomon) hamda ijtimoiy uyushganlik sifatida (ikkinchi tomon) ko‘rib chiqish zarurdir. Mehnat jamoasi ikkala tomonlari birlashuvi harakatlarni aniq qati‘y belgilanishi, intizom, saksiyalar tizimida yuzaga kelgan xuddi shu vaqtda, inson mehnat qilish huquqiga ega bo‘ladi va tasdiqlangan vazifalarni bajarish bilan birga, norasmiy munosabatlar sohasida o‘z ixtiyori bo‘yicha harakat qiladi.

Shuning uchun mehnat jamoasi—bu kamfikrlarning ixtiyoriy mushtarakligi va faoliyatning qattiq uyushgan shakli, turli manfaatlarning birlashuvi hamda bir vaqtning o'zida to'qnashuvi sodir bo'ladigan joy. Ijtimoiy uyushma sifatida bu ijtimoiy oliygohning bir turi bo'lib, ijtimoiy mushtaraklik sifatida esa — jamiyatning ijtimoiy tuzilishi elementidir. Unda doim munosabatlarning rasmiy va norasmiy tizimi mavjud: ma'muriy-huquqiy tuzilish va o'zaro shaxsiy aloqalari bo'lgan, kichik guruhlar tuzilishi.

Ma'muriy tashkilot xokimiyat tuzilishiga va mansabdorlik iyerarxiyasiga (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi) (ishchilarning huquq va burchlari majmui) suyanadi. «Jamoaning ijtimoiy tuzilishi — bu avvalo mansabdor va maqsadli guruhlar majmui, shuningdek, ijtimoiy uyushmalar yacheykalari va ularning o'zaro munosabatlari. Ushbu guruhlar maqsadning birligi bilan birlashgan va uni amalga oshirishda ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalar bo'yicha farqlanadi.»

Darhaqiqat, bunday murakkab tizimga har turli elementlar kirar ekan, ular o'rtasida hamisha ichki qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu — har bir mehnat tashkiloti rivojlanishi va ishlab turishida tabiiy hol. Tashkilotlarning muhim vazifasi — shu qarama-qarshiliklarni, iloji bo'lsa, ularni nizo chiqarmasdan hal qilish.

Yuqorida qayd qilganimizdek, mehnat birlashmasi ijtimoiy tashkilotlari bilan jamiyatning ijtimoiy tuzilishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Lekin mehnat jamoasi hali kishilarning mushtaraklik xududiga kiradi (qishloq, shahar va joylarda joylashgan). U jamiyat bilan bevosita bog'liq; uning ishchilari — qo'shma faoliyat maqsadlari bilan birlashgan jamiyat a'zolari majmuidir. Uning tarkibi ijtimoiy xususiyatlari bilan etnik, demografik, kasbiy, sinfiy va boshqa tavsiflari bilan determinlangan.

Mehnat tashkilotlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari: sanoat, qurilish, qishloq; va o'rmon xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha yuk transporti, moddiy-texnik ta'minlash va boshqalar.

2. Noishlab chiqarish tarmoqlari jamoasi: sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, san'at, ilm va ilmga xizmat qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga va noishlab chiqarish tarmoqlariga xizmat qilish bo'yicha aloqa va passajir transporti, davlat-ma'muriy organlari apparati, boshqaruv organlari, kooperativ, aksionerlik va jamoatchilik tashkilotlari, sug'urta qilish va kreditlash va hokazolar.

Xalq xo'jaligida band bo'lgan jamoalaridan tashqari, yana o'quv, yarmiya va sport jamoatlari, hamda qiziqishlar bo'yicha (baliqchilik, turistlik, havaskorlik).

Mamlakatda mehnat tashkilotlari hayotida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lmoqda: xususiy mulkchilikka o'tish jarayoni ketmoqda. Davlat statistik ma'lumotlari bo'yicha 1 yanvar 1997 yilda davlatga mulkchilikning taxminan 15% i qarashlidir. Jamoa statusini aniqlash kriteriyasi bo'lib mulkchilikka munosabat hisoblanadi. Ko'pchilik sotsiologlar, iqtisodchilar shunday hisoblaydilar. Shu munosabat bilan mehnat tashkilotlarini sinfiylashtirishda bir qancha fikrlar mavjud. Ulardan eng ko'p uchraydiganlarini keltiramiz.

- Kooperativ, aksionerlik mulkchiligi negizidagi mehnat tashkilotlari.
- Asosida umumxalq, davlat mulkchiligi mavjud bo‘lgan jamoalar.
- Xususiy sektorda mehnat bilan band bo‘lgan jamoalar.
- Chet el firmalariga ega bo‘lgan qo‘shma korxonalarining mehnat jamoalari.
- Profsoyuz va boshqa jamoat tashkilotlarining mulkidan foydalanuvchi mehnat tashkilotlari.

- Sanoat va boshqa noqishloq; xo‘jalik korxonalarida tomorqa bilan shug‘ullanuvchi jamoalar.

Qayd qilingan mehnat birlashmalarining shakllari mamlakatdagi vujudga kelgan ahvolni to‘liq aks ettira olmaydi. Ishlab chiqarish, ilmiy tekshirish, muxandislik joriy qilish tashkilotlari, oliy o‘qov yurtlari, ilmiy-texnikaviy, ijodiy ittifoqlar va boshqa sub'ektlar kiritilish shartnoma asosidagi jamoatlarning shunday birlashmalari tashkil qilinmoqda. Turli davlatlar sub'ektlari o‘rtasidagi integratsiyaning iqtisodiy, ilmiy, moliyaviy kabi yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Ular xalqaro kapitallarning qo‘shilishi negizida tashkil qilipgan. Umumiy xalqaro xo‘jalik majmui paydo bo‘lmoqda. Ularni tashkil etuvchi qismlari (aksiyalar ulushi bo‘yicha) alohida bir davlat firmasinnng xususiy mulki bo‘lib qoladi, lekin shunday bir yaxlit majmua harakat qiladiki, masalan xalqaro energotizimlar, mashinasozlik va kimyoviy majmualar neft, oltin qazib olish, olmosni qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha va h.

So‘nggi yillarda mayda savdo korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlik va mayda guruhli mehnat korxonalari kengaymoqda, ular faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda, soliq, kredit, narx-navo siyosatini qayta ko‘rib chiqish ketmoqda. Qishloq, joylarda qishloq. xo‘jalik maxsulotlarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha sanoat korxonalari borgan sari ko‘paymoqda. Agrar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan korxonalar qurilmoqda (yog‘ochni qayta ishlash, kulolchilik, tikuv ustaxonalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, loydan va fayansdan ishlangan o‘yinchoqlar tayyorlash bo‘yicha sexlar), ya'ni agrosanoat majmui tuzilishi o‘zgarimoqda.

Rejali taqsimot tizimidagi xo‘jalikni boshqarishning korxonalar jamoasi uchun bozor iqtisodiga o‘tish, uning faoliyatidagi printsiplarning jiddiy o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir, chunki u mehnat bozorida, tovar va kapitalda mustaqil sub'ekt bo‘la boshlaydi, tegishli buyumlarga (tovar) talabni o‘zi tekshiradi va xizmat qilish taklifi haqida sarflarni o‘rganadi. Shuning uchun korxonalar, tashkilot jamoasi yangi sharoitlarga ko‘nikma hosil qilishi uchun tegishli vaqt zarur, aks holla salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni oldini olib bo‘lmaydi. Ushbu va boshqa muammolarni echishgaijtimoiy rivojlanishining uzoq muddatli rejalari yordam berishi mumkin edi. Lekin ularni tayyorlash bilan hech kim amalda shug‘ullanmayotir.

Mehnat jamoasi, birlashmalar ichida o‘z ijtimoiy muhim qimmat normalari va yo‘l-yo‘riqlari, talab extiyojlari shakllangan katta bir guruh. sifatida chiqishi mumkin. Mehnat jamoasiga, birlashmaga qadam qo‘ya turib, shaxs yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘shiladilar, jamiyat va jamoa oldida alohida javobgarlikni qabul qiladilar. Har bir individing-jamoa talablariga, prinsiplariga va normalariga ko‘nikishi sodir bo‘ladi. Yangi kelgan odam jamoada vujudga kelgan o‘sha «uyni

qoidalarini»ni qabul qilishga majbur, aytganlaridek, unga moslashishlari kerak. Aks holda, tizim (jamoat) ko'p hollarda uni favqulodda ajratib qo'yadi.

Mehnat jamoasi — faoliyat sub'ekti. Ishlab chiqarish munosabatlari (mustaqillik, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, o'z fond va mablag'larini idora qilish va h.) ko'p hollarda jamoa a'zolarining istaklariga xilof ravishda yuzaga keladi. Lekin boshqarish, rivojlanish, vositalarni qo'llash ishlab chiqarish qatnashchilarining ixtiyoriy-ongli faoliyati tufayligina sodir bo'ladi. Mehnat birlashmalari qatnashchilarining ishlab chiqarishning natijalari, sharoitlari va vositalariga faol munosabatlari ishlab chiqarish qatnashuvchilariga tegishli ravishda so'ngilari ishtirok etadilar. Bu holda mehnat jamoasi ishlab chiqarish munosabatlarining sub'ekti bo'la boshlaydilar. Jamoa a'zolarining qanchalik egalik qilish xissi kuchliroq, bo'lsa, ularning mulk va o'z-o'zini boshqarish oliygohida mustahkamlangan mehnat va ijtimoiy faolligi shunchalik yuqori bo'ladi. Mulk va o'z-o'zini boshqarish oliygohi bir kishining boshqa bir kishilar tomonidan davlat apparati yordamida boshqaruvidan farqli o'laroq, har bir ishchida mashinalar va jihozlar, yer va energiya tashuvchilar va qishloq xo'jalik munosabati bilan foydalanishga shaxsiy manfaatdorlikni yuzaga keltiradi.

Mehnat o'zining keng ma'nosida sotsioantropogenetik vazifani bajaradi. Mehnat tashkiloti, jamoa esa — ko'p funksional ta'limni. Uning asosiy vazifalari bo'lib ishlab chiqarish, sheriklik, tashkiliy — muntazam, yoki boshqaruv, ijtimoiy, tarbiyaviy va h. hisoblanadi.

Asosiy vazifasi — ishlab chiqaruvchi. Jamoa samarali ishlashi uchun, unga dam olish va normal mehnat sharoiti yaratib berish muhimdir. Bundan tashqari, bu ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun muhim shart-sharoitdir.

Asosiy vazifalarni amalga oshirish o'z navbatida, keyingi juda muhim vazifalaridan biri — sheriklikni (ishlab chiqarish vositalariga) oldindan belgilaydi. Ishlab chiqarish vositalariga egalikka sherik bo'lish (davlat, aktsionerlik, xususiy va h.) — mas'ul va ba'zan xavfli ishdir. Bu vazifa mehnat faoliyati jarayonida avvalo ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Korxonalarining (zavodlar, fabrika, konlar, yer, qurilmalar, bo'limlar va banklar va h.) asosiy fondlarini xususiylashtirgan jamoa o'z rivojlanishini sharoitni boshqarish sub'ekti bo'lib yaqqol ko'rinadi. Mehnat tashkiloti faoliyatining boshqa shakllari xususiy qo'shma korxonalarda vujudga keladi.

Jamoaning birinchi vazifasi asosan mehnatning texnik-iqtisodiy mazmunini aks ettiradi, ikkinchisi — uning ijtimoiy iqtisodiy harakterni va xususan, jamoaning ijtimoiy tizimida ifodalanadi. Mehnat jamoasiga ham korxonaga egalari, ham yollanma ishchilar kirishi mumkin. Qo'shma va xususiy korxonalaridagi ikkinchi vazifasi ishlab chiqarish maxsulotlarini taqsimlash tizimida, uni o'zlashtirish usulida jamoaning mehnatni umumiy tashkil qilishdagi roli va o'rnini ifodalaydi.

Ikkinchi vazifani amalga oshirish darajasini shunday ko'rsatkichlar yordamida o'lchash mumkinki, ular: mehnat jamoasini ijtimoiy tashkil qilish, kadrlar ijtimoiy, vertikal ko'chishini tanlash, joy-joyiga qo'yish, o'qitish tizimi, mehnatga munosabatni mukammallashtirish, ma'naviy-psixologik klimat va b.

Shaxsning shakllanishi jarayonida jamoaning, insonning mehnat faoliyati

muhim ahamiyatga ega. Mehnatning ta'sir doirasi shaxs tuzilishining barcha muhim elementlarini o'z ichiga oladi. Mehnat ko'pincha inson psixologik ehtiyojlarini tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz bo'lib, ular hayotini tartibga soluvchi, atrof-muhit bilano'zaro munosabatini, ahloqini boshqaruvchi vosita vujudga keladi. Shunday qilib, mehnat jamoasining asosiy vazifasi moddiy boyliklarni ishlab chiqarishdir. Uni amalga oshirishda jamoa birinchi shaxs bo'lib chiqqan. Ikkinchi vazifaga kelsak — ishlab chiqarish vositalariga umumxalq mulkiga sherik bo'lish — u taqdir taqazosi bilan doim sahna ortida shovqinni aks ettirib, uzoq, vaqt faqat ikkinchi shaxs bo'lib kelgan, chunki so'nggi vaqtgacha ishlab chiqarish vositalarining bosh boshqaruvchisi korxonalar emas, har holda davlat bo'lib kelgan xatto kolxozlar o'z artel mahsulotiga xo'jayinlik qilish imkoniga ega emas edilar. Tarmoqlar bo'yicha vazirlikdagi amaldorlar davlat nomidan, xalq nomidan ko'pincha hamma masalalarni o'zlarining tor mahkamachilik talablarini nafaqat mehnat jamoalari, balki umumxalq (masalan, daryolarni burish, o'rmon kesish va h.) talablaridan yuqori qo'ya turib, hal qilishgan. Korxonalar huquqi va ishlab chiqarish vositalarining alohida qismiga, hamda xususiy daromadlar ega bo'lish huquqi inkor qilingan.

Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin yillarda mamlakat iqtisodida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi: foyda keltirmaydigan korxonalarining yopilishi va mahsulot birligiga jonli mehnat solishtirma og'irligi qisqarishi natijasida ishsizlar darajasi ko'payadi; ishlab chiqarishga malakali mehnatni mo'ljallagan yoshlar keladi; mehnat sarflarining tabiiy ortishi qisqaradi va h. Shuning uchun mehnat jamoasining korxonalar ijtimoiy rivojlanishi rejalarining ahamiyati boshqalarning ta'kidlashicha, jiddiy ravishda o'sadi, pasaymaydi. Yangi va rekonstruksiya qilinayotgan korxonalarining loyihalariga shunday chora-tadbirlarni qo'shish kerakki, ular ishchilar mehnati mazmunini boyitsin. Mehnat jamoalari rivojlanishi rejalarida ijtimoiy ko'rsatkichlar nafaqat ma'lumot vazifasini, balki boshqaruv masalalariga osongina aylanishlari kerak. Mehnat jamoalarida, tashkilotlarda ko'pincha ixtiloflar, nizolar ro'y beradi. Ularning sababi juda xilma-xildir. Nizoga olib keluvchi sub'ektlar (ularni ko'pincha nizo agentlari deyishadi) to'g'ridan-to'g'ri teskari maqsadlarni o'z oldilariga qo'yadilar. Nizo agentlariga birinchi saflarda harakat qiluvchi va hammadan ham o'z manfaatlarini qondirishga intiluvchi guruhlar kiradi; shunday guruhlar borki, ular nizoni avj oldirishga bevosita aralashmagan holda bilvosita xissalarini qo'shadilar, lekin nizoning o'sib borishi davrida birinchi rollarda bo'lib qolishi mumkin, guruhlarning uchinchi turi — bu nizolarni bartaraf qilishga manfaatdor bo'lganlardir.

Shuni bilishimiz kerakki, ya'ni nizo — vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf qilishning samarasiz yo'lidir, chunki nizo paytida alanga oladigan hissiyotlar tufayli, fikrlash susayadi va qisqaradi, psixikaning yanada ibtidoiy qatlamlari harakatga keladi va ishlaydi. Ammo tanlash imkoni bo'lmasa o'z nizo — ziddiyatlarni tartibga solishning yagona mumkin bo'lgan usuli bo'lsa, u holla jamoaning, tashkilotning rahbari nizoni boshqarishi, tashabbusni qo'lida ushab turishi uchun unda qatnashishi kerak. Nizoga kirishishdan oldin quyidagi savollarga javobni bilish zarur:

Ziddiyatni bartaraf qilishning umuman imkoni bormi va zaruriyati bormi?

Shuni qilish kerakmi? (chunki ziddiyat — tashkilot rivojlanishining dvigateli)?

Agar ziddiyatni bartaraf qilish zarur bo'lsa, u holda ushbu masalani yechishda qanday yo'llar, vositalar tejamli va axloqiy bo'ladi?

Nizo qanchalik uzoq; vaqtga cho'zilishi mumkin va g'alaba qilishga sizning kuchingiz yetadimi?

Nizoning natijalari qanday bo'lishi mumkin?

Bundan tashqari, nizoli sub'ektlarning kuchlari haqida, ittifoqchilari haqida, boshqa sub'ektlar {brigadalar, jamoalar, boshqa smenalar, sexlar, konkurentlar, jamoat tashkilotlari, davlat korxonalari va h.) tomonidan nizoga bo'lgan munosabat haqida aniq, tasavvurga ega bo'lish kerak.

Agar nizo bo'lishi aniq, bo'lsa, hissiyotlarni nazorat qilgan holda, nizoning haqiqiy sabablarini aniqlash, uni to'htashi, himoyada haddan ziyod konsenratsiyadan holi bo'lish, tashabbusni o'z qo'lida ushlab turish. Nizoning asos qilib olingani to'rtga bo'lishi mumkin:

1. (ish tashlovchilarning, stachkalarining va h.) talablariga bo'ysunish; 2. kompromiss; 3. nizodan qochish yoki vaziyatni topshirish; 4. ziddiyatlarni oqilona bartaraf qilishni izlashda nizoli tomonlar kuchini birlashtirish, integratsiya. Bunday hollarda nizoni quyidagi omillarning ta'siri bilan yumshatish mumkin:

kooperatsiyaga, hamkorlikka va o'zaro yordamga orientatsiya tenglashtiradigan kollektivizmning qimmatiga;

ishchilarning qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilishda ishtiroki, bu nizoni yo'l qo'yilgan chegaralarda ushlab turishga imkon beradi;

nizoning tuzilishi manbaini istisno qiluvchi vaziyatlar o'raminig chalkashishi.

Shuni yodda tutish kerakki, asossiz tenglashtirish (tekischilik) o'zini ijtimoyalangan deb ko'ruvchi, barchani teng biluvchilarning qoniqmasligini kuchaytiradi. Tekischilik mafkurasi — nizo ishtirokchilarining agressiv xulq-atvorining sabablaridan biridir. Boshqa sababi — ma'muriyat tomonidan hamda mehnat jamoasi tomonidan aynan bir hil bo'lmagan nizoga munosabat. Uchinchi — nizoni yumshatish usulining ishlab chiqilmaganligi, buning natijasida dekonstruktiv kuchlar konstruktiv kuchlardan yuqori keladilar. To'rtinchi sabab — ba'zan ijtimoiy muammolarni ko'pchilik bo'lib yechish o'rniga ma'muriyat bo'yniga asossiz qo'yilishi. Muhimi, ikkala nizoli tomonlar o'ziga ham huquq, ham majburiyatlarini olsalar, asosiysi — doim nizo oqibatlarini bilan kurashmasdan, uni kelib chiqish sabablarini topishlari kerak.

Mamlakatda mehnat jamoalari bozor munosabatlarining tarkib topishi asosida ko'p hollarda mavjud axloq me'yorlarini yo'qotmoqdalar, ayniqsa, rag'barlar va uning qo'l ostidagilar, ishdagi oshnalar, turli jamoalar va boshqalar o'rtasidagi muloqat doirasida. Normal bozor munosabatlarining shakllanishi normal axloqiy psixologik atmosferani, sog'lom konkurensiyani, faqat shaxsiy moddiy boyligi uchungina emas, balki butun jamiyat uchun ham foyda keltirish uchun ishlash qoniqishini ko'zlaydi va tashkil qiladi.

### **Sotsial nazorat.**

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu — oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishdan sog'lom oila



muhitini o'zini kattadir. Qolaversa, inson hatti-harakati va xulq-atvori, faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa qonunni himoya qilish organlari (sud, prokuratura, militsiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi. Sotsiologiyada ijtimoiy me'yor buzish jarayonlarini ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta'limot **E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasi** edi. Bunga ko'ra eski me'yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o'rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat'iy axloqning mavjud emasligi tushuniladi.

**R.Feris, Tiriakyan, T.Shibutani** va boshqalarning fikricha, deviant xulq-atvor sotsial buzilishlar natijasidir. Ijtimoiy ziddiyatlar ta'limotiga ko'ra, sotsial tizimda begona madaniyatga asoslangan madaniy xulq-atvor namunalari me'yor buzuvchi xulq-atvordir.

Amerika sotsiologiyasida **E.Saterlendnin** differensial, katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan me'yor buzuvchi xulq-atvor o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor me'yorlari boshqalarga o'rgatiladi.

Fenomenologik sotsiologiya namoyondalarining e'tirof etishlaricha, sotsiologik taxlil "yorliq yopishtirishga" asoslanishi kerak. Ularning fikricha, me'yor buzish sotsial baho va sanksiya qo'llash natijasidir.

Interaksionizm nazariyasiga ko'ra, (vakillari **G.Bekker, D.Kitsus, K.Erikson va boshqalar**) xodisani salbiy va ijtimoiy xavfli deb baholash nisbiy bo'lib, buni jamiyatdagi hukmron guruhlar belgilaydi. SHafqatsiz jamiyat himoyasiz insonni jinoyatchi qilib qo'yib, ezaveradi.

**Z.Freydning** fikricha, inson xulq-atvorining asosida atrof-muhitni ongli baholash bilan ongsiz ishtiyoq orasida ziddiyat yotadi. Ongsizlik asosida esa insonga beshikdan to qabrgacha soyadek ergashib yuradigan, uning barcha fikr va istaklarini belgilaydigan jinsiy rag'bat – "**libid**" yotadi. Barcha atrofimizdagi voqea-hodisalarni jinsiy rag'bat belgilaydi. Inson ruhiyatidagi barcha jarayonlar hayot instinkti eros va o'lim instinkti -tanatos o'rtasidagi kurash natijasi bo'lib, har qanday xulq-atvor, jumladan noto'g'ri xulq-atvor ham, jinsiy rag'bat va yashash uchun kurash natijasidir.

Deviant xulq-atvorga **R.Merton** ishlab chiqqan ta'limot zamonaviy sotsiologiyada etakchi o'rin tutadi. **E.Dyurkgeymning** anomiyasini rivojlantirib, **Merton** deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi; "**Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvori motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir**". Jamiyatning rasmiy tuzilmalari tomonidan maqsadga erishishning turli guruhlar uchun turlicha imkoniyatlar yaratib berishi natijasi bo'lmish funksional kamchiliklar maqsadga erishishga xizmat qiluvchi norasmiy tuzilmalarning tashkil bo'lishiga olib keladi. Maqsad va vositalarga turlicha munosabat quyidagi xulq-atvor turlariga olib kelishi mumkin.

1. **Bo'ysunish** (maqsad va vositalarni qabul qilish).
2. **Innovatsiya** (maqsadlarni qabul qilish va vositalarni inkor qilish).
3. **Ritualizm** ( maqsadlarni inkor etish va vositalarini qabul qilish).

4. **Retretizm**, chekinish (maqsad va vositalarni inkor qilish).

5. **Isyon** (maqsad va vositalarni inkor qilib, yangilarini o‘rnatish).

Ijtimoiy me‘yor – jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, ma‘lum shart-sharoitlarda shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorining moslashishi vositalaridan biri va ularning xulq-atvorlarini jamiyat tomonidan nazorat qilish vositasidir.

Ijtimoiy me‘yorning bir qancha turlari mavjud;

1. **Xuquq**. Individda nisbatan ob‘ektiv, tashqi uning xulq-atvorini boshqaruvchi qoidalar tizimi. Har qanday jamiyatda xuquq xukmron tabaqa demokratik ko‘pchilik yoki butun xalqning yagona irodasini namoyon etuvchi va shu sababli hech qanaqa o‘xshatmasi yoki muqobili bo‘lmagan yagona me‘yorlar majmuidir.

2. **Axloq**. Etika mutaxassislarining fikricha, umumiy va xususiy manfaatlarning moddiy determinatsiyalashgan qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Insonning o‘zini takomillashtirish va o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish qobiliyatlarini anglatadi. Xuquqdan farq qilib, axloq birinchidan, baholash vazifasini bajaradi (yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz), ikkinchidan, uning me‘yorlari birinchi navbatda nomus, burch, vijdon, adolat va shu kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan ichki ruhiy kechinmalar orqali faoliyat yurgizadi.

3. **Urf-odatlar**. Ushbu me‘yoriy tizim xulq-atvorning erkin moslashuvchi, shu sababli odatga aylangan tarixiy shakllangan namunalari, asosan kishilarning birga yashash qonuniyatlarini ifodalaydi. Axloqiy me‘yorlardan farq qilib, urf-odatlar aniq va bir xil, ba‘zan to‘la shakllangan ko‘rinishga ega bo‘ladilar.

4. Diniy me‘yorlar. Ushbu tizim juda qadimiy bo‘lib, diniy ta‘limot tavsifiga ko‘ra diniy me‘yorlar ham turlicha bo‘ladi. Shuningdek, mazmuniga ko‘ra diniy me‘yorlar turli, xuquqiy, axloqiy, urf-odat, estetik va tashkiliy me‘yorlarni o‘z ichiga oladi va shu sababli ko‘pincha yuqoridagi me‘yoriy tizimlarning har birining boshqaruv xususiyatlarini qamrab olishi mumkin. Diniy me‘yorlar ichki ta‘qiqalar bilan birga tashqi ta‘qiqalar orqali ham ta‘sir qiladi. Tarixiy tajribada, hamda hozirgi jarayonlar, ayniqsa islom davlatlarida aksariyat diniy me‘yorlar dindorlar uchun kuchli ta‘sir vositalari hisoblanib, ularni turli jinoyatlar, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi illatlardan saqlab turuvchi vosita ekanligini ko‘rsatmoqda.

Deviant xulq-atvorni fanda turlarga ajratib o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda ushbu jarayonlarni turlicha tasniflash mavjud bo‘lib, shulardan biri ularning ham ob‘ektiv ham sub‘ektiv tomonlari bilan bog‘liq bo‘lgan tasniflashdir. Bunga ko‘ra deviant xulq-atvor turlari 2 guruhga bo‘linadi;

a) **tashqi muhitga yo‘naltirilgan xulq-atvor** (ekstravertiv (masalan, jinoyatchilik));

b) **shaxsning o‘ziga yo‘naltirilgan xulq-atvor** (intravertiv (masalan, ichkilikbozlik)).

**Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi haqidagi nazariyalar.**

Dyurkgeym individ tug'ilishi bilan din, qonunlar va an'analar, o'zini tutish, yurish-turish qoidasr, til, pul tizimi va muomalasr kabilarga duch keladi. Bola ana shu ijtimoiy munosabatlar orasida ulg'ayadi, voyaga etadi.

Deviant hulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi ham E. Dyurkgeym hisoblanadi. Ilk bor u deviant hulq-atvorning turi bo'lmish o'z-o'zini o'ldirish psixologik patologiya natijasr emas, balki sotsial hodisa deb asosladi.

O'z-o'zini o'ldirish muammosi haqida maxsus tadqiqotlar o'tkazdi. Uning empirik tadqiqotlarida bosh prinsip sifatida sotsiologik metod: sotsial fakt(dalil)larni individning ichki dunyosi, uning hulqi irodasrga bog'liqlik jarayoni sifatida qaraydi. Dyurkgeym o'z-o'zini o'ldirishni psixologik asosini ijtimoiy sabablar bilan bog'laydi. O'z-o'zini o'ldirish individning faqat ichki dunyosi, tushunish tarzida emas, balki ijtimoiy sabablarini ham tadqiq etishga harakat qiladi.

Mutafakkir o'z-o'zini o'ldirishni ko'p omillarga bog'liqligini, ya'ni individning tashqi dunyosi, kishilar bilan o'zaro munosabati, mehnat va ijtimoiy faoliyati, psixologik holati, individual turmush tarzi va boshqa omillar bilan bog'laydi. Hatto u o'z-o'zini o'ldirishni ob-havoga ham bog'laydi. Bunda u o'z-o'zini o'ldirish darajasr yozda qish faslidan ko'ra ko'pligini, erkaklarda esa ayollarga qaraganda yuqoriroq, qariyalarda yoshlarga qaraganda ko'proq, oddiy askarlarda fuqarolarga nisbatan ko'pligi, protestantlar katoliklarga nisbatan, yolg'izlar, beva va oiladan ajralganlarda yana ko'proq, shaharda qishloqqa nisbatan o'z-o'zini o'ldirish ko'pligi haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plagan va bayon etgan.

«Individni individ sifatidagi maqsadi muddaosi va dunyo- qarashini o'rganish, ko'pqirrali murakkab ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish (oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy muhit ishdagi muhit va h.k.) o'z-o'zini o'ldirish darajasini, kamaytirish hatto oldini olish mumkin bo'larmidi, - degan fikrlarni ham ilgari suradi.

O'z-o'zini o'ldirishning bir necha tipini ko'rsatdi, shulardan:

«Egoistik»; «Altruistik»; «Anomik»; «Fatalistik».(qarang 36- bet)

Shunday qilib, o'z-o'zini o'ldirish qasddan va ongli qilingan hodisadir. Uning ijtimoiy sabablari yetakchi o'rin egallaydi. E.Dyurkgeym jamiyatni yaxlit normativ tizim sifatida qaraydi. Ayniqsa, ijtimoiy hamkorlik uning bosh mavzusi edi. Olim ijtimoiy hamkorlikka katta ahamiyat berdi. Buning uchun adolatsizlikka barham berish zarurligini ta'kidladi. Agar jamiyatda odam qadr-qiymati toptalar ekan, uning qadriga borilmas ekan, unda jamiyat rivojlanmaydi ham gullab-yashnamaydi ham. Shaxs erkinligi va individual I igini bo'g'ish - bu taraqqiyotga zid. Jamiyat va shaxs o'rtasida o'zaro bog'liqlik bor. Bu bog'liqlik buzilsa, har ikki tomon ham zarar ko'radi. Bundan tashqari, odam mashina yordamchisiga emas, balki uni boshqaradigan subyektga aylanishi kerak. Mehnat taqsimoti ham oqilona, normal bo'lishi kerak. Shunday qilib, tenglik adolat, erkinlik Dyurkgeym fikricha, jamiyat tuzilishining yuqori tipda tashkil topishining asosidir.

Anomiya nazariyasi ham Merton tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik tahlil yo'nalishini ko'rsatuvchi misol sifatida qaralishi mumkin. Bu Dyurkgeym naz-

yasidan olingan bo'lib, axloqiy qadriyatlar yemirilishi va ideallar vakumi bilan xarakterlanadigan o'ziga xos axloqiy-ruhiy holatni ifodalaydi. Anomiya sabablarini Merton AQSH da hukmron bo'lgan individualistik "me'yor-maqсадlar" (boylikka, hokimiyatga, muvaffaqiyatga intilish) va bu maqsadlarga erishish yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan vositalar o'rtasidagi ziddiyatdan axtaradi. Bu vositalar Merton xulosasiga ko'ra, amerikaliklarning aksariyatini o'z maqsadlariga qonuniy yo'l bilan erishish imkoniyatidan mahrum qiladi. Mana shu ziddiyat jinoyatchilik va isyonkorlikning o'sishiga, befarqlik hayotdan ko'ngil qolishi kabi holatlarga olib keladi. Bu ziddiyatni Merton butun industrial jamiyat uchun xos bo'lgan hodisa sifatida talqin qiladi. Merton AQSH da ommaviy axborot vositalari, shuningdek bilish va fan sotsiologiyasi bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazgan.

Jinoyatning mohiyatini qo'niqarli izohlash sotsiologik izohlash bo'lishi mumkin. Chunki jinoyatlar jamiyatning ijtimoiy institutlari bilan bog'liq. Sotsiologik yondoshuvning eng muhim jihatlaridan biri — turli ijtimoiy kontekstlarda konformlik va og'ishlarning o'zaro aloqadorligini ta'kidlashdir. Hozirgi jamiyatlarda ko'plab submadaniyatlar mavjud bo'lib, ulardan birida me'yoriy hisoblangan xulq, boshqasida og'ish sifatida baholanishi mumkin. Masalan, yoshlardan iborat bandaning a'zolaridan biriga avtomobilni o'tirib, «o'zini ko'rsatishi uchun» bosim o'tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, jamiyatda boylar va kambag'allar o'rtasida kuchli tafovutlar mavjud bo'lib, ular turli guruhlarning imkoniyatlariga kuchli ta'sir o'tkazadi. Kissavurlik yoki buzib kirish bilan bog'liq, o'g'irliklar aholining eng kambag'al qatlamlariga mansub odamlar tomonidan sodir etilishi taajjublanarli xol emas. Jinoyatlarning boshqa turlari — kamomad va soliq, to'lashdan qochishlar o'ziga to'q odamlar tomonidan sodir etiladi .

Edvin X. Sazerlend (Amerika sotsiologiyasidagi «Chikago maktabi»)ga mansub bo'lib, bu nom yo'nalishning Chikago universiteti bilan aloqasi tufayli berilgan) jinoyatlarni uning o'zi tabaqalashgan uyushma deb ataydigan xodisa bilan bog'laydi. Tabaqalashgan uyushma goyasi juda sodda. Ko'plab submadaniyatga ega bo'lgan jamiyatda ba'zi hamjamiyatlar qonunga xilof xarakatlarni rag'batlantirsalar, boshqasi qoralaydi. Individning o'zini kriminal me'yorlarning tashuvchilari bilan birlashtirganda xuquqbuzar yoki jinoyatchi bo'lib qoladi. Sazerlend fikriga ko'ra kriminal xulq ko'pincha birlamchi guruhlardan, jumladan tengdoshlar guruhlari o'zlashtiriladi. Bu nazariya jinoyatchilar va boshqalar bir-biridan psixologik xususiyatlari tufayli farqdanadi, degan nazariyadan tubdan boshqacha. Unga ko'ra, faoliyatning kriminal turlari ham qonuniy faoliyat turlari kabi o'zlashtiriladi, ayni paytda ular aynan bir xil extiyojlar va qadriyatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. O'g'rilar ham, oddiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan boshqa odamlar kabi «pul ishlamoqchi» bo'ladilar, biroq buning uchun noqonuniy vositalarni tanlaydilar.<sup>3</sup>

Jinoyat va devyatsiyaning boshqa shakllarini izohlashga bo'lgan dastlabki urinishlar asosan biologik xarakterda edi.

---

<sup>3</sup> Giddens E. Sotsiologiya. T.; 2000 y. b-147

Fransiyalik antropolog Broka jinoyatchilarning bosh chanog'i va miyasining tuzilishida qonunga amal qiluvchi aholinikidan farq qiladigan xususiyatlar bor, deb fikr bildirgan edi. XIX asrning 70-yillarida faoliyat yuritgan italiyalik kriminalshunos Chezare Lombrozo: "Ba'zi odamlar jinoiy mayllar bilan to'g'ildilar va ular ibtidoiy insonlar tipiga mansub bo'ladilar", degan xulosaga keldi. Uning fikriga ko'ra, jinoyatchi tiplarni bosh chanog'i shakliga qarab aniqlash mumkin. U ijtimoiy tajribaning kriminal xulq rivojiga ta'sirini inkor etar edi, uning asosiy g'oyasi — ko'pchilik jinoyatchilarning biologik jihatdan degenerativ va defektli ekanida edi.

Keyinchalik bu g'oyalar to'la rad etildi, biroq individning biologik tuzilishi jinoiy mayllarga ta'sir ko'rsatishi haqidagi tezis turli ko'rinishlarda yana ko'p marta paydo bo'ldi. Bir necha muddat kriminal xuni irsiyatning xulq shakllanishiga ta'siri oqibati sifatida qarash ham ommaviylashib yurdi. Richard Daygdeygl 1200 a'zodan 140 jinoyatchi «yetishtirgan» amerikalik Dyuklar shajarasini o'rganib chiqdi. U Dyuklarni kolonial Amerikada mashhur bo'lgan ruhoniylar Edvars avlodlari bilan solishtirdi. Dyuk va Edvarslarning shajarasini solishtirish, muallifning fikricha, genetik belgilar tufayli oilalardagi xulqlar o'rtasidagi tafovutlarni yaqqol ko'rsatib berishi kerak edi. Biroq tadqiqot jinoiy xulqda genetik mayl borligini ko'rsatishga o'zgarish qildi, chunki, Jonatan Edvarsning ajdoddari orasida ham jinoyatlar uchun sudlanganlar borligi ma'lum bo'lib qoldi. Agar kriminal xulq xaqiqatdan ham irsiy belgi bo'lsa, unda J. Edvars avlodlari orasida ham jinoyatchilar bo'lishi kerak edi. Oilalar shajarasini tadqiq etishga irsiyatning ta'siri xaqida hech narsa demadi, chunki irsiy ta'sir va muxit ta'sirini bir-biridan ayirish mumkin emas. Edvarsning bolalari o'sgan sharoitlar bolalari o'g'rilar muxitida o'sgan Dyuklar oilasi muhitidan keskin farq qilar edi.

Biologik omil va jinoyatga mayl orasidagi bog'liqlik goyasi Vilyam A.Sheldon ishlarida 1940 yillarda qaytadan tirildi. Sheldon odamlarning uch jismoniy tipini ajratib ko'rsatadi, uning fikricha, shu tiplardan biri xuquqbuzarlikka mayl bilan bevosita bog'liq. Mushakdor, faol (mezomorf) tip, Sheldon taxminiga ko'ra, subtil tana tuzilishiga (ektomorf) yoki yana xam to'laroq kompleksiya (endomorf) odamlarga ko'ra jinoyatchi bo'lishi ehtimoli kuproq. Boshqa olimlar tomonidan keyinroq o'tkazilgan tadqiqotlar ham shunga yaqin natijalar berdi. Xozirgi kungacha bunday qarashlarning himoyachilari bo'lsa ham, u tadqiqotlar kuchli tanqidga sabab bo'ldi.

Agar xatto odamning jismoniy tuzilishi va xuquqbuzarlikka mayli o'rtasida bog'liqlik mavjud, deb faraz qalsak ham, bu irsiyatning ta'siri masalasini ravshanlashtirmaydi. Sheldon jinoyatchilik bilan bog'lagan mushakdor odamlar kuch talab qilingani uchun ham bandalar faoliyatiga jalb etilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari bu sohadagi barcha tadqiqotlar yaqin o'tmishgacha bolalar koloniyalaridagi jinoyatchilarni o'rganish bilan cheklangan edi. Agar bu yerda ham jinoyatchilikning tana tuzilishi bilan qandaydir aloqasi bo'lsa, u faqat kuchli atlet tana tuzilishiga ega bo'lgan jinoyatchilarni kuchsiz va oriq jinoyatchilarga qaraganda tezroq panjara ortiga o'tkazib kuyishlarida ko'rinadi.

## **6-Mavzu: Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikatsion jarayonlar.**

Reja.

- 1.Sotsial struktura tushunchasi.
- 2.Stratifikatsion tizimlar: qullik,kasta, klan va sinf.
- 3.Sotsial stratifikatsiya va sotsial harakatchanlik(mobillik).

#### 4. Sotsial stratifikatsiya haqidagi nazariyalar.

##### **Sotsial struktura tushunchasi.**

Sotsial struktura – sotsial sistemadagi elementlarning mustahkam aloqasidir. Sotsial strukturaning asosiy elementlari ma'lum mavqeni (status) egallovchi, aniqlangan funksiyalarni (rol) bajaruvchi individlardir. Bu individlar ularning mavqeyi belgilari asosida sotsial-territorial, etnik va boshqa turdagi guruh va birlashmalarga birlashadi. Sotsial struktura jamiyatni jamoa, sinflar, qatlamlarga ob'ektiv bo'linishini anglatadi. Elementlarning qay biri muhimligiga qarab jamiyat strukturasi guruhiy, stratifikatsion, jamoaviy, institusional, tashkiliy va h.k. larga bo'linadi. Sotsial tarkib nuqtai nazaridan jamiyat strukturasi barcha elementlari gorizontall joylashgan, ya'ni real o'zaro ta'sirda rasman tengdir. Lekin real o'zaro aloqada ular teng emas. Har qanday jamiyatda turli individlar, guruhlar, sinflar, jamoalar, institutlar, tashkilotlar turlicha o'rinni egallaydi. Sotsial tengsizlik jamiyatda ierarxik strukturaning mavjudligini belgilaydi. Bir toifa individ, guruh, sinflar, jamiyatlar boshqalarga nisbatan yuqori yoki pastda joylashadi. Tengsiz tamoyildan kelib chiqqan holda, sotsial tarkib sotsial stratifikatsiyaga-vertikal ierarxik tarzda joylashgan sotsial shakllarga (guruhlar, sinflar, kastalar, zotlar va h.k.) aylanadi. Demak sotsial stratifikatsiya-vertikal tarzda joylashgan sotsial qatlamlar majmuasidir. Stratifikatsiya tushunchasi geologiya fanidan o'zlashtirilgan (stratum-qatlam, fasio-yasayman) Sotsial stratifikatsiya termini sotsiologiyaga rus-amerika sotsiologi Pitirim Sorokin tomonidan kiritilgan.

Sotsiologiyada stratifikatsiyaning 4 asosiy o'lchami mavjud:

1. Daromad.
2. Ma'lumotlilik darajasi.
3. Hokimiyat.
4. Kasbning prestijlili.

Daromad – alohida individning yoki oilaning ma'lum vaqt ichida so'mda yoki dollarda oladigan puli bilan o'lchanadi.

Ma'lumotlilik darajasi davlat yoki xususiy maktabda o'qigan yillari bilan o'lchanadi.

Hokimiyatsiz qabul qilayotgan qaror tegishli bo'lgan insonlar soni bilan o'lchanadi.

Jamoatchilik fikrida hurmatga ega bo'lgan mavqe. Shu mezon bo'yicha ba'zi kasblar obro'li, ayrimlari esa obro'ga ega emas deb hisoblanadi

Strata-stratifikatsiyaning 4 shkalasi bo'yicha o'xshash ob'ektiv ko'rsatkichlarga ega bo'lgan insonlarning sotsial qatlami.

Jamiyatda insonlarni 2 ko'rsatkich bo'yicha stratalarga ajratamiz:

Nominal status (jins, irq, etnik kelib chiqish, tug'ilgan joyi va h.k.)- peshonaga bitilgan.

Erishiladigan status.

##### **Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf.**

Sotsial stratifikatsiya - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va lining ayira

qatlamlari tuziishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi, yoki boshqacha aytganda jamiyatning mulk, maqom va hokimiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan tizimi bo'lib, u ijtimoiy rollar va vazifalarni o'zida aks ettiradi. Sotsial stratifikatsiya jamiyatdagi mehnat taqsimotida turli guruhlarning ijtimoiy differentsiatsiyasidan (tabaqalanishuvi), shuningdek u yoki bu faoliyatning ahamiyatini va ijtimoiy tengsizlikni qonuniylashtiruvchi qadriyatlar va madaniy namunalar (standartlar) tizimining xususiyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy vazifasi - turli faoliyat xillari uchun rag'batlantiruvchi tizim yordamida ijtimoiy rollarni mos ravishda idrok etish va bajarishni taminlashdir.

Sotsial stratifikatsiyada malumot, maishiy sharoit, mashg'ulot daromad, ruhiy, din va shu kabi belgilar asosida jamiyat «yuqori», «o'rta» va «quyi» sinflar hamda strata (qatlam)larga bo'linadi. Tengsizlik har qanday jamiyatda bor. Sotsial stratifikatsiya tizimida kishilarning o'z qobiliyatlari va kuch-g'ayratlariga muvofiq maqomlarni o'zgartirishlari (sotsial mobillik) esa jamiyatning barqarorligini taminlaydi va sinfiy kurashni «ortiqcha» qilib qo'yadi (Marksistik tadqiqotlar ijtimoiy sinflar nazariyasiga asoslanib kelingan).

Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. Shaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, malumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi<sup>4</sup>.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi - ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlardan tashkil topgan. Masalan, qadimgi Hindistonda jamiyat quyidagi kastalarga bo'lingan:

- a) braxmanlar (jamiyatning oliy tabaqasi)
- b) kshatriylar (harbiylar, savdogarlar va h.)
- v) vayshlar (dehqonlar, hunarmandlar va boshqa shu kabilar) g)
- shudralar (qora xalq - qullar)

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ham (er.avval 4-asr) jamiyat azolarini 3 guruhga ajratgan:

- a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);
- b) harbiy jangchilar;
- v) qullar - quyi tabaqa;

G'arb sotsiologiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rganiladi. Demak stratifikatsiya g'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlarga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi marksizm sotsiologiyasining sinflar va sinfiy kurash nazariyasiga zid bo'lib, jamiyatning sinflarga bo'linishining asosiy sababi mulkiy munosabatlardagi holatni tabiiy-tarixiy qonuniyat sifatida qaraydi. Bu sinflarni ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning malumoti, psixologik jihatlari, turmush sharoiti, ijtimoiy bandlik, daromadi va boshqa xususiyatlar bilan farq

---

<sup>4</sup> Узбекистан Республикаси Конституцияси. Т.: Узбекистан, 1999, 7-бет.



qiladi.

AQSHlik sotsiolog T.Parsons: «Stratifikatsiya - ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatining asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb, uni rivojlantirdi.

G'arb mamlakatlari sotsiologlari jamiyatni «yuqori», «o'rta», «quyi» sinf va qatlamlardan iborat deb talqin qilishadi. Masalan, G'arbiy Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvchilar toifasiga bo'ladi. O'z navbatida boshqaruvchilar toifasi 2 guruhdan: a) mulkdor boshqaruvchilar va b) mulkdor bo'lmagan boshqaruvchilar - mamuriy byurokrat menedjerlardan iborat deydi. Boshqariluvchilar toifasi ham 2 ga: yuqori - «ishchi aristokratiyasi» va quyi - malakasi past darajada bo'lgan ishchilardan iborat bo'lib, boshqaruvchilar va ishchi aristokratiyasining qo'shilishidan shakllanmoqda, deb fikr bildiradi.

Xuddi shuningdek, akademik T.I.Zaslavskaya ham hozirgi Rossiya jamiyatining sotsial tarkibini ko'rsatib bergan. Unga ko'ra, bu tarkibiy tuzilish quyidagi ko'rinishga ega: Yuqori, o'rta, bazaviy va quyi.

Yuqori qatlamga asosan elita guruhlari mansub bo'lib, ular davlat boshqaruvi, iqtisodiy sohalardagi yuqori mansablarni egallagan kishilar hisoblanadilar. O'rta qatlamga esa, o'rta va kichik tadbirkorlar, o'rta korxonalar menejmentlari, katta ofiserlar tegishli hisoblanadilar. Bazaviyga esa, ziyolilarning asosiy qismi, texnik xizmatchilar, savdo va xizmat ko'rsalish sohalari xodimlari hamda dehonlarning ko'pchilik qismi kiradi. Quyi tabaqaga asosan keksalar, past malumotlilar, sog'ligi unchalik yaxshi bo'lmaganlar hamda ayrim qochoqlar kiradi.

O.Kont sotsiologiyasida sotsial **dinamika** jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yondashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mexanikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limdir. Sotsial differensiatsiya va sotsial integratsiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin. Sotsial **differensiatsiya** tushunchasi birinchi bo'lib G.Spenser tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha, ijtimoiy evolyusiya bir vaqtning o'zida differensiatsiya (bir xillikdan ko'p xillikka o'tish: mehnat taqsimoti, maxsus sotsial institutlar paydo bo'lishi) va **integratsiya** (organlarining bir-birlariga tobora muvofiqlashib borishi, oddiydan murakkabga o'tish, umumiy aloqadorlik takomillashuvi), ijtimoiy tartibot mukammalashuvidan iboratdir.

E.Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differensiatsiya va integratsiya jarayonlariga etibor bergan. U differensiatsiyani aholi zichligining oshishi va shaxslararo va guruhlararo muloqatlar sur'atiga bog'lab tushuntirgan. Odatda, differensiatsiya tushunchasi «tafovut» so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu holda u rollar, statuslar (maqomlar), institut va tashkilotlarni turli mezonlar yordamida klassifikatsiya qilishga yordam beradi.

Strukturaviy funksionalizm va sistemali yondashuv tarafdorlari (Parsons, Etoni va b.) sotsial differensiatsiya bilan sotsial sistemaning o'z-o'zini saqlashi shart deb qaraydilar. Bunda sotsial differensiatsiyaning yaxlit jamiyat, uning ostki tizimlari, guruhlari darajasida ko'rinishlari qat'iy farqlanadi. Ularnig fikricha, quyidagi hayotiy muhim vazifalar - muhitga moslashish, maqsadlarini qo'ya bilish, ichki ixtiloflarni bartaraf etish (integratsiya) va hokazolar bajarilgandagina muayyan tizim mavjud bo'la olishi mumkin. Bu vazifalar esa faqat ozmi-ko'pmi

maxsuslashgan institutlar tomonidagina bajarilishi mumkin. Demak, bunga muvofiq sotsial tizimlar ozmi-ko'pmi differentsiyalashgan (tabaqalashgan) bo'ladi. Sotsial differentsiya o'sishi bilan faoliyatlar ham maxsuslashib boradi, shaxsiy va oilaviy aloqalar o'z o'rnini borgan sari odamlar o'rtasidagi shaxssiz narsaviy munosabatlarga bo'shatib beradi. Bu munosabatlar ko'proq ramziy vositalar bilan boshqariladi (masalan, iqtisodiy munosabatlar uchun bunday vositachi asosan - pul).

Sotsial integratsiya (lot. Integratio - to'ldirilish, tiklanish; integer yaxlit, butun) sotsial differentsiyaga nisbatdosh tushunchadir. Hozirgi zamon sotsiologiyasida tizimlar nazariyasidagi integratsiya tushunchasidan foydalaniladi. Unga ko'ra, integratsiyada alohida differentsiyalashgan qismlarni bir butun qilib turuvchi aloqa va shu holatga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Integratsiya turli xil sotsial subektlar - individlar, tashkilotlar, davlatlar va hokazolar o'rtasida ixtilofsiz munosabatlar bo'lishini ko'zda tutadi. Sotsial tizimlar integratsiyasining darajasi va mexanizmi to'g'risidagi qarashlar tarixan o'zgarib kelgan.

Bajaradigan vazifalari, sohalariga qarab sotsial dinamikaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

**Reproduktiv dinamika.** Sotsial dinamikaning bu turi tug'ilish, ishlab chiqarish, ekologiyaning sotsial jihatlarini o'z ichiga oladi. Aholi sonining o'sishi, tug'ilish miqdori, ularni belgilovchi omillar reproduktiv sotsial dinamika sohasiga kiradi. Ishlab chiqarish, ekologiya va sotsial subektlar reproduktiv o'rnashmalarga aloqador bo'ladi.

**Maqom (status) sotsial dinamika.** U o'z ichiga xizmat lavozimlarida ko'tarilish yoki pasayishni, turmush darajasi va sifati kabilarni qamrab oladi.

**Hududiy sotsial dinamika.** Aholi ko'chishlari surati va miqdorlarining sotsial jihatlarini, katta shahar vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan sotsial muammolar, ishlab chiqarishning joylashtirilishi, uning sotsial oqibatlari hududiy (territorial) sotsial dinamika obektlaridir.

**Manaviy hayot dinamikasi** manfaatlar, qadriyatlar, fikrlar, normalar harakati, o'zgarishi va rivojlanishi bu soha doirasida bo'ladi.

**Siyosiy dinamika** jamiyat sotsial-sinfy tarkibi, hokimiyat shakllari o'zgarishini anglatadi.

**Fan - texnika dinamikasi.** Fan-texnika taraqqiyotining sotsial jihatlarini, ishlab chiqarish vositalari o'zgarishlarining ijtimoiy subektlar hayotiga tasiri, axborot va kommunikasiya bilan bog'liq sotsiodinamik o'zgarishlar fan-texnika dinamikasiga kiradi.

Sotsial dinamika abstrakt, mavhum qonuniyat ifodasi emas. Har bir mintaqa, ijtimoiy tuzumda o'ziga xos sotsiodinamikani ko'rishimiz mumkin.

Sotsial dinamika **vertikal** (yuqori va pastga) va **gorizontal** (yani, parallel tomonga) yonalishda ro'y berishi mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha sotsial dinamika turlarini vertikal va gorizontal yo'nalishda tekshirish mumkin. Jumladan, sotsial-sinfy struktura elementlari harakati sotsial stratifikatsiya yondashuvi asosida qaralganda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sotsial stratifikatsiya (lot.

strath - tuzilma, qatlam) sotsiologik tushuncha bo'lib, bu tushuncha umuman jamiyatning, ayrim sotsial guruhlarning tarkibini, ularning turli-tuman belgilariga: daromadi, malakasi, malumoti va boshqa darajalariga qarab, odatda, ierarxiya (yuqori va quyi) tarzda joylashgan ijtimoiy qatlarni bo'linishini tavsiflaydi. Funktsionalizm nuqtai nazaridan, sotsial stratifikatsiya tizimi jamiyatdagi sotsial rol va mavqelarning differensiasiyasi bo'lib, u har qanday jamiyatning obektiv ehtiyojidir. Jamiyatning turli sohalarida stratalardan stratalarga harakatni ko'rish mumkin. Masalan, iqtisodiyot sohasida bar bir odam milloner bo'lishi mumkin; siyosatda yirik siyosiy mansabga erishish mumkin; armiyada har bir askar general bo'lishi mumkin; diniy faoliyat sohasida - oliy diniy martabaga erishish mumkin; fan - bu, faoliyatning nisbatan zoe ketadigan sohasi bo'lib, biroq bunda ilgari ham mumkin; nikoh orqali foydali nikoh vositasida jamiyatning eng yuqori pog'onalariga g'oyat tez ko'tarilish mumkin. Kishilarning sotsial zinapoyadagi yuqoriga qarab siljishga intilishi - ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Odam bir vaqtning o'zida bir necha strataga kirishi mumkin. Bu stratalar institusional, madaniy, norasmiy mezonlar asosida ajratib ko'rsatilishi mumkin va ularga mos bo'lgan sotsiodinamika ham mavjud. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi hozirgi zamon sotsiologiyasida differensiasiyaniing murakkab tarkibi va tizimlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklar o'rtasida o'zaro muosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan, ijtimoiy-sinfy, guruhlararo /sinflar, ijtimoiy guruhlar tabaqalar, qatlamlar/, ijtimoiy-demografik /yoshlar, o'rta yoshlilar, keksalar, ayollar, erkaklar/, ijtimoiy-etnik /millatlar, halqlar/, ijtimoiy-professional /kasbga qarab: o'qituvchilar, injenerlar, tibbiyot xodimlari, temirchilar, kosiblar va shu kabi/ va ijtimoiy-hududiy /mintaqa, shahar, qishloq, tuman, mahalla aholisi/ shular jumlasidandir.

Shu o'rinda g'arb sotsiologiyasida keng o'rganiladigan sotsial mobillik tushunchasi xusuida to'xtalib o'tish talab etiladi.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasiga asos solgan va uni yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan, yuqorida nomlari keltirilgan g'arb sotsiologlari sotsial mobillik to'g'risida ham o'z fikrlarini bildirganlar.

P.Sorokin o'zining "Inson. Sivilizatsiya. Jamiyat" asarida alohida bobni sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillikka bag'ishlagan. "Sotsial mobillik" tushunchasi sotsiologiyaga birinchi bor 1927 yilda P.A.Sorokin tomonidan kiritilgan. Uning qarashicha, sotsial mobillik kishilarning ijtimoiy pog'onalardan ikki yo'nalish bo'yicha harakat qilishidir. Birinchisi, vertikal yo'nalishda bo'lib, unda yuqori va past darajalarga qarab, ikkinchisi esa gorizontal yo'nalishda bo'lib, unda bir ijtimoiy darajadagi o'zgarishni anglatadi. Fransuz sotsiologlari P.Bertu va R.Burdonlar ham sotsial mobillikning jamiyat hayotining rivojlanishidagi muhim ahamiyatini ko'rsatib berganlar. Keyingi yillarda rus sotsiologlaridan akademik T.I.Zaslavskaya va professor R.V.Rivkinalar ham sotsial mobillikning Rossiya ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini tadqiq qilmoqdalar.

Sotsial mobillik deb ayrim shaxs yoki guruhlarning jamiyat tarkibidagi o'z o'rnini, mavqeini o'zgartirishiga aytiladi.

Sotsial mobillik ijtimoiy rivojlanish qonunlarining amal qilishi bilan bog'liq bo'lib, ayrim shaxs va guruhlarning ijtimoiy mavqeining quyiga yoki yuqoriga o'zgarib borishini ifodalaydi.

Sotsial mobillik vertikal va gorizontal tartibda bo'lishi mumkin. Vertikal sotsial mobillik – ijtimoiy mavqe tizimida yuqori yoki pastga qarab o'zgarib borishidir. Gorizontal sotsial mobillik – individ yoki guruhning ijtimoiy daraja bo'ylab o'zgarishini ifodalaydi. Sotsial mobillikda asosiy va asosiy bo'lmagan, ikkinchi darajali zaruriy va tasodifiy, ommaviy va xususiy kabi ko'rinishlar va yo'nalishlar mavjud.

**Sotsial tengsizlik haqidagi nazariyalar.** Eng mashxur nazariy yondashuvlar Karl Marks (1818—1883) va Maks Veber (1864—1920) tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning g'oyalari keyin ishlab chiqilgan deyarli barcha stratifikatsiya nazariyalariga asos bo'ldi. Ulardan tashqari, biz Erik Odin Rayt va Frenk Parxinning yangi nazariyalarini ko'rib chiqamiz. Marks va Veber g'oyalari umuman sotsiologiya va uning alohida sohalarini rivojlanishiga katta xissa qushdi.

Marks Germaniyada tug'ilgan, lekin hayotining asosiy qismini Buyuk Britaniyada o'tkazgan. Uning g'oyalari doimo ziddiyatli bo'lgan. Ko'pchilik mualliflar, shu jumladan Maks Veber ham, uning siyosiy qarashlarini inkor qila turib, ko'pincha, ularga asoslangan.

Marksning ko'p asarlari stratifikatsiya mavzusi bilan va birinchi o'rinda, ijtimoiy sinf tushunchasi bilan bog'liq, biroq, qizigi shundaki, u bu tushunchaning sistematik taxlilini bermagan. Marks to'umrining oxirigacha ishlagan qo'lyozmasi (keyinchalik uning asosiy asari — «Kapital» ning bir qismi sifatida chop etilgan) «Sinfni nima tashkil qiladi?» degan savolga to'xtagan. Shunday qilib, Marksning sinf tushunchasi uning butun ilmiy merosi ichidan yig'ib olinishi kerak. Uning sinflar mavzusiga ko'plab murojaatlari ba'zan bir-biriga zid kelib qolishi tufayli, olimlar doimo Marks bu gal nimani nazarda tutayotganligi xaqida baxs yuritadilar. Shunga qaramay, uning konsepsiyasidagi asosiy jihatlar aniq va ravshan.

Maks Veber ham, Marks singari olmon edi. Kasallik uni klassik ilmiy mansabga erishishiga yo'l qo'ymadi, biroq u birmuncha davlatga ega edi va hayotining ko'p qismini ilmiy ishlarga bag'ishlay oldi. Veber sotsiologiyaning asoschilaridan biri hisoblanadi, lekin uning qiziqishlari doirasi ancha kengroq, bo'lib, tarix, xuquq nazariyasi, iqtisod va dinning ko'p jihatlarini qamrab olar edi.

Veberning stratifikatsiya mavzusiga yondashuvi u takomillashtirib modifikatsiya qilgan Marks g'oyalarining tahliliga asoslanadi. Bu ikki nazariya o'rtasida ikki muhim xususiyati mavjud.

Birinchi, Veber, Marksning sinflar ob'ektiv iqtisodiy ahvol bilan bog'liqligi haqidagi tasavvurlariga qo'ushilgan holda, sinflar shakllanishiga Marks ko'rsatganidan ancha ko'proq omillar ta'sir qiladi deb hisoblagan. Veber fikricha, sinflarga bo'linish faqatgina ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish yoki bo'lmaslik emas, balki mulk bilan bevosita bog'liq bo'lmagan iqtisodiy farqlar bilan ham belgilanadi. Bu omillarga birinchi o'rinda, insonning biror ishni bajara olish-olmasligini belgilovchi mahorat va malaka kiradi. Professionallar va boshqaruvchilar toifasiga kiruvchi shaxslar ham ishga yo'llanadilar, lekin ularning

maoshlari va ish sharoitlari ishchilarnikiga qaraganda yaxshiroq. Malaka guvohnoma- emas, mish-mishlarga asoslangan yanglish fikrga moyilliq yangi ma'lumotlar oldida xam bu fikrni o'zgartira olmaslikdir. Insonlar uz guruhi vakillariga nisbatan ijobiy va o'zgalarga nisbatan salbiy noxolis fikrda bo'lishlari mumkin. Ma'lum guruhga nisbatan salbiy fikrga ega bo'lgan inson u guruh vakillarini xolisona tinglashni xoxlamaydi.

Diskriminatsiya bir guruh vakillardan boshqalarda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni tortib olishni nazarda tutadi. Masalan, oq tanlilar ishlashi mumkin bo'lgan ishga individlarni olinmasligi. Bid'atlar odatda diskriminatsiyaga asos bo'lishiga qaramasdan, bu ikki xodisa bir-biriga bog'liq bo'lmagan xolda ham yuz berishi mumkin. Insonlar munosabati bid'atga asoslangan bo'lsa xam, aniq xattixarakteratlarga olib kelmasligi mumkin. Xuddi shunday, diskriminatsiya ham bid'atga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lmasligi mumkin. Masalan, oq tanlilar asosan qora tanlilar istiqomat qiladigan joyda kuchmas mulk sotib olishdan bosh tortishlari mumkin. Lekin buning sababi qora tanlilarga bo'lgan salbiy munosabat emas, balki bu joyda kuchmas mulk narxlari tushib ketishidan xavfsirash bo'lishi mumkin. Bu xolda bid'atlar ham diskriminatsiyaga ta'sir qiladi, lekin bilvosita.

## 7-MAVZU: Sotsial munosabatlar. (2 soat)

Reja.

1. Sotsial munosabat strukturasi va tushunchasi.
2. Birdamlik va tanazzul.
3. Begonalashuv va uning turlari.
4. Milliy g'oya va mafkura sotsial munosabatlarni rivojlantiruvchi kuch sifatida.

**Sotsial munosabat strukturasi va tushunchasi.** Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat azolari bir-birlari bilan malum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiya dagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq Ittifoq falsafiy - sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa, ilg'or g'arb ijtimoiy adabiyotlarining, bu sohasi bo'yicha to'liq tadqiqot malumotlarining bizda yo'qligidir.

Munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng va tor manoda talqin qilingan. Keng manoda tushunish - sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p etibor bermaslik bilan bog'liqdir.

Tor manoda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretasiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng manoda quyidagicha tarif bilan belgilangan.

Sotsial munosabatlar - bu, tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy-siyosiy maqomlar paydo bo'ldi. eng muhimi esa, totalitar tuzum barham topib, yangi davlatlar vujudga keldi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik hukmronligi yemirildi va mustaqil suveren davlatlar barpo bo'ldilar. endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan, sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali, sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabat muammolari jahon ilmiy tafakkurining harxil yonalish natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joizdir. Chunki Sotsiologiya nafaqat bu muammonigina emas, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarni keng qamrovda kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi. Sotsial munosabatlar jamiyatdagi munosabatlardan kelib chiqqan holda ijobiy ta'sirli va salbiy ta'sirli munosabatlarga bo'linadi.

Ijobiy ta'sirli munosabatlarga birdamlik hamjihatliq kurash, kooperatsiya, tenglik kabi munosabatlarni keltirish mumkin. Salbiy ta'sirli munosabatlarga begonalashuv, tengsizliq tanazzul kabilarni misol keltirish mumkin.

**Birdamlik va tanazzul.**Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik - bu, ko'pgina manaviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'satayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligi ko'rinishidir. Avvalom bor shuni takidlab o'tishimiz joizki, Sotsiologiya faniga bu atama sotsial jiplashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O.Kont tomonidan kiritilgan edi. Bu muammoga ko'gina mutafakkilar o'zlarining keng etiborlarini qaratganlar. Ayniqsa e.Dyurkgeym, G.Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yonalishlarda olib borganlar. e.Dyurkgeymning fikricha, sotsial birdamlik, bu axloqiy prinsip va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir azosi tomonidan tan olinadi. O.Kont va G.Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikning asosini iqtisodiy mafaatlarni tashkil qilishi markaziy o'rinni egallaydi. G.Spenser o'zining birdamlik talimotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyati o'z rivojlanish yolida ikkita harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Butun hayot bu erda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoning ikkita jihatga ajratib tahlil qilinishini E.Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko'rish mumkin. U o'z talimotini mexanik va organik birdamlikka ajratadi. Rivojlanmagan va eski jamiyatlarda hukumronlik qiladigan birdamlikni Dyurkgeym, mexanik birdamlik, deb ataydi.

Mexanik birdamlik - bu, "jamoat turidagi" birdamlik bo'lib, u bu jamoadagi individlarning o'xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi. Jamiyatda ijtimoiy mehnatning taqsimlashishi tufayli individlar maxsus vazifalarini bajaradilar va bu xislatlar sababli jamiyat jonli organizmni eslatadi. Shu jamiyatda vujudga kelgan yangi turdagi birdamlikni Dyurkgeym, organik birdamlik, deb ataydi. Mehnatning taqsimlanishi individlarda o'zlariga xos qobiliyatlarning rivojlanishiga omil bo'ladi. endi har bir individlarning o'zi esa bir-birlariga bog'liq bo'ladilar va ular sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyg'ulariga erishadilar.

Ko'pgina g'arb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sermahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha, butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalarini guruhlar mulki qilib berish kerak. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa, «mamuriyat» xalqdan ajralib qoladi va shu sabab tufayli byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. O'z-o'zidan, tabiiyki, bu jarayonlar natijasida ishchilar o'z mehnatlaridan mafaatlardorlikni his qilmaydilar.

Prezidentimiz I. A. Karimov takidlab ko'rsatganlaridek, "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz ananalari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda... eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin.Xech bir korxonaga, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi<sup>5</sup>».

Jamiyat ijtimoiy tarkibida har bir shaxs qaysi ijtimoiy guruhga va undagi hududiy, tarmoq (soha) va ijtimoiy mavqe yo'nalishiga mansubligi bilan xarakterlanadi. Bulardan tashqari yana, shaxs jinsi, yosh jihati, ommaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi, milliy

<sup>5</sup> Каримов И.А. «Биздан озод ва обод Ватан қолсин». Т.2. - Т.: «Ўзбекистан», 1996, 281-бет.

mansubligi, malumoti, ilmiy darajasi kabi mezonlar bilan ham o'rganiladi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari ijtimoiy guruh va ayrim shaxslar qanchalik moddiy imkoniyatga egaligi, jamg'arma mablag'i miqdori kabi tomonlarni o'rganishni ham talab etadi. Hozirda ijtimoiy munosabatlarda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Xususiyl mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli, dunyo sari ochiq yuz tutgan iqtisodiyot paydo bo'layotir. Shuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiyasini ishlab chiqish sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirda mehnatning mazmunini chuqur va har jihatdan o'zgartirmay turib, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida sifat o'zgarishiga erishib bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, mehnatga yangicha munosabatni tarkib toptirish, yangi texnologiyani yaratish, fanni yanada taraqqiy ettirish, munosib malakali kadrlar tayyorlash, maorifni tubdan yangilash kabi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar amalga oshirilmog'i lozim..

### **Begonalashuv va tanazzul hamda ijtimoiy oqibatlar**

Hozirgi jamiyat hayotida quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Iqtisodiy. 2. Siyosiy. 3. Madaniy. 4. Ijtimoiy. 5. Ruhiiy.

Bu begonalashuv turlari o'zlarining malum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega: 1. Faoliyatdan begonalashuv. 2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashish. 3. Faoliyat natijalaridan begonalashish. Siyosiy begonalashish siyosiy hokimiyatdan begonalashishdan; madaniy begonalashish muloqatdan, insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv o'z-o'zidan begonalashishdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birlariga bog'liq hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish suratlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib, narxlar tez suratlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan, deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga salbiy tasir qilishi, bazi tartiblar kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa, tanazzul ham shunchalik, chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdir. Lekin shu bilan birga ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning shunday bir turi - ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnati natijasida begonalashib boradi. endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q. Marksizm talimoti bo'yicha xususiyl mulk ijtimoiylashtirilgach, ishlab chiqarish vositalariga endi bevosita ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini davlat mulkiga aylantirdi. Sotsialistik revolyusiya mantig'iga ko'ra, bu tadbirlar begonalashuv jarayoni ildiziga bolta urushi kerak edi. Lekin 70 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk davlat mulki edi. Bu mulk esa xususiyl mulkning eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Mehnat kishisi esa u ana mulkdan begonalashdi. Davlat mulki esa davlat apparatining xususiyl mulkiga aylanib, bu nomenklaturani «yangi» sinfga aylantirdi. Bu salbiy jarayonlar natijasida ishlab chiqarish o'zining haqiqiy egasini topa olmadi.

**Madaniy sohadagi begonalashuv** ham anchagina chuqur salbiy oqibatlarga olib



keladigan manaviy tanazzulni keltirib chiqardi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda manaviyat va madaniyatning o'rni o'zgacha. Chunki, ular individlarning barkamol bo'lib shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari, boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarining kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining ham milliy urf-odatlarini, ananalarini ham inkor qila boshlaydilar. Agarda yaqin o'tmishimizga, uning tirixiga murojaat esak, ushbu satrlarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz bizlarni atoqli adib Chingiz Aytmatovning ta'biricha, manqurtlarga aylantiray dedi, yani biz o'z xalqimiz tarixi, milliy ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik. Davlatimiz mustaqilligiga erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan sotsial begonalashish insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida doim insonlar bir-birlari bilan munosabatlarda muloqotlarda bo'ladilar. Muloqotning ijtimoiy ma'nosi shundaki, u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib ximat qiladi. Lekin iqtisodiy tanazzul ko'pgina insonlarni qiyin iqtisodiy ahvolga solib qo'yadi. Natijada jamiyat a'zolarining aksariyati bozor iqtisodi munosabalariga ko'nikishlari qiyin kechadi. Oqibatda inflyasiyadagi ehtiyojlar tizimining cheklanishi va normallashtirish insonlarda agressivlik kayfiyati, johillashish fuqarolarda an'ana va urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlarni yo'qotishga olib keladi. SHu kabi salbiy omillar insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlarini kuchaytiradi va hamma o'z holicha degan norasmiy qonun paydo bo'ladi.

**Ruhiy begonalashuv** - bu, insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishdir. Ushbu muammoni nemis mutaffakiri erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Uning fikricha, inson mohiyati doim o'ziga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan sotsial tuzilma tasiri ostidagi inson o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga malum bir sotsial xarakter - dunyoparastlik, ekspluatatorlik, retseptiv (andozalik, qolip), bozorga oidlik xosdir.

Zamonaviy jamiyatni E. Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «kompyuterlashtirish» va «robotlashtirish» jarayonlari yordamida begonalashuv uning darajasining bir mahsuli deb tariflaydi. Bozorga yo'naltirilgan sotsial harakat paydo bo'lib, unda iste'molga intilish, ikkilanishlar hissiyoti, yakkalanib qolishlik va boshqa salbiy holat, hissiyotlar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu erda psixologik va sotsial begonalashish bir-biri bilan juda uyg'unlashib ketishini ko'rish mumkin. Insonlar bir-birlaridan munosabatda, muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashish ham yuz beradi, chunki insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlari oqibatida ular yakkalanish, zerikish va hayotga qiziqishlari so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida inson o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

## **8-MAVZU. IJTIMOIIY TARAQQIIYOT SOTSILOGIIYASI**

### **REJA:**

1. Ijtimoiy taraqqiyot tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar.
3. Sotsial reformalar va ularning turlari.
4. Sotsial boshqaruv tushunchasi.

### **Ijtimoiy taraqqiyot tushunchasining mazmun-mohiyati.**

Ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati - madaniyatni qayta tashkil etish: shaxsan an'anaviy tur, qotib qolgan ijtimoiy formalarni o'zgaruvchan, jo'shqinlikni ifodalovchi tuzumlar va munosabatlar bilan almashtirish zarurligini belgilab beradi. Sub'ektiv sotsiologlar andozalarida shaxs, asosan harakatga keltiruvchi kuch sifatidagina emas, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'lchovi hamdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiladigan munosabatlarni yaratishdan iborat.

Kont nuqtai nazariga ko'ra, sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandır. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to'plangan empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

Empirik sotsiologiya jamiyat tarkibini alohida tizimiy bo'linmalar tarzida tadqiq etishni asoslab berdi. Garchi, empirik sotsiologiya tarafdorlari stratifikatsion differentsiatsiyani absolyutlashtirib, ijtimoiy integratsiya jarayonlarini e'tibordan soqit qiladilar.

Bu oqimlar umuminsoniy qadriyatlarga asoslanuvchi qonuniyatlarga, ilmiy nazariyalarga asoslanilsa, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo'lardi.

1. Strukturaviy funksionalizm oqimi. (T.Parsons, R.Merton va bosh.). Bu oqim ijtimoiy tizim integratsiyasi va yaxlitli prinsipiga asoslanadi.

2. Industrial jamiyatdan so'nggi jamiyat konsepsiya. (Dj.Bell, Dj.Gelbrayt, E.Bzjezinskiy, O.Toffler va boshqalar).

3. Axborotga asoslangan jamiyat nazariyasi (Yaponiya, AQSH, Yevropa). Ular jamiyatning axboratlashuvi va kompyuterlashuvi g'oyasini ilgari suradi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar sotsiologiyasida jamiyatda bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgan 2 model mavjud:

1. Muvozanatli integratsion model. Bu modelni AQSH olimi R.Appelbaum ishlab chiqqan. Uning tarkibiy elementlari:

a) har qanday jamiyat o'zini tashkil etuvchi uyg'un, mukamal integratsion elementlar yig'indisidan iborat;

b) jamiyat har bir elementi uning ish yuritishiga sharoit yaratadi;

v) har bir jamiyat o'z a'zolarining faolligi, yangiligiga tayanadi.

2. Jamiyatning konfliktli modeli (nemis tadqiqotchisi R.Darendorf ishlab chiqqan). U:

a) har bir jamiyat istalgan paytda ijtimoiy o'zgarishlarning doimiyliigi bilan harakterlanadi;

b) har bir jamiyat istalgan paytda doimiy ijtimoiy konfliktlarga ehtiyoj sezib turadi;

v) jamiyat har bir elementi o'zgarib borishga sharoit tug'dirib turadi;

g) har bir jamiyatda o'z a'zolarining bir qismi ikkinchi qismi tomonidan tazyiq ostida bo'lishi tabiiy holdir, deb biladi.

Shu boisdan ham G'arb mamlakatlarida o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadlariga ham qaratilgandir.

Inson iqtisodiy faoliyati ma'lum bir uslublar, nazariyalar, amaliyotlar, institut, tashkilotlar orqali boshqarilib kelinsa, ijtimoiy jarayon, hodisalar va munosabatlar esa hali unchalik boshqarilish darajasiga o'tgani yo'q. «Ijtimoiy boshqaruv» faniga XX asr boshlarida Teylor, M. Veber, A. Fayola kabi olimlar asos soldilar. XX asr o'rtalaridan boshlab sistemali yondashuv usuli qo'llanila boshlandi.

Ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni ko'zlaydi:

istiqbolni baholash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va unga oqilona etishishning samarali vositalarini belgilash.

me'yorlarni aniqlash, istiqboldagi asosiy ijtimoiy talab va uni qondirish imkoniyatlarini belgilash.

tahdidlarni taxminlash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga aks ta'sir etish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va tahlil etish.

Ijtimoiy bashorat turlari:

Istiqboldagi holatlarni bashorat qilish: o'tgan, hozirgi va kelgusi zamon hamda istiqbol an'alarini bashorat etish.

Me'yoriy bashorat - ijtimoiy hayotga mos me'yorlarni topish, aniqlash.

Tahdidlar bashorati - ijtimoiy taraqqiyot izdan chiqish holatining tahliliga asoslaniladi.

Ijtimoiy bashorat o'zaro mantiqiy bog'langan 4 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - bashorat ob'ekti bo'yicha ma'lumotlar manbaini va ko'rsatkichlarini aniqlash, bashorat dasturini ishlab chiqish, bashorat maqsadi masalalarini belgilab olishdan iborat bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - bashorat qilinuvchi ob'ektning dinamik modelini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich - bashorat qilinuvchi jarayon modeliga kiruvchi boshqaruv ko'rsatkichlarini belgilash, ularning o'zgarish tendensiyalarini va chegaralarini aniqlab olish, turli taxminiy variantlarini aniqlash.

Oxirgi bosqich - ko'p variantli bashoratni amalga oshirishni asoslash va tahliliy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy bashorat masalasini echishda matematik modellashtirish va ekspertiza usullardan foydalaniladi.

Axborot jamiyat faoliyatining ijtimoiy jihatdan o'ziga xos tamoyillarini ifodalaydi va uning yordamida ijtimoiy boshqaruv amalga oshiriladi. Ijtimoiy axborotning o'zi guruhlarga ajratiladi.

Birinchi guruhga ijtimoiy guruhlar tuzilmasi va holati haqidagi axborotlar kiradi.

Ikkinchi guruh odamlarning mehnat va turmush sharoiti haqidagi axborotlardan tashkil topadi.

Uchinchi guruh odamlarning hayot faoliyati, turmush tarzi va boshqa axborotlardan iborat.

Boshqaruv nuqtai nazaridan ijtimoiy axborot:

tashkiliy;  
nazorat – hisobga olish;  
natijaviy axborotlardan iborat.

Tashkiliy axborotlar ijtimoiy boshqaruv ob'ekti va sub'ekti o'zaro bog'lanishi, boshqaruv jarayoni, boshqaruv qarorlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni tashkil etadi.

Nazorat - hisobga olish, axborotlar, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning borishi va uning boshqaruv qarorlariga mosligi haqidagi ma'lumotlardir.

Natijaviy axborotlar - belgilangan boshqaruv tadbirlari, talablari, qoida va normalari haqidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy boshqaruv: sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi.

Sifat ko'rsatkichlari - ijtimoiy hodisa va jarayonning ta'rifiy xususiyatlari va tarkibiy tuzilishi ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlardir.

Miqdor ko'rsatkichli axborotlar – ijtimoiy hodisa va jarayonning miqdoriy o'lchov shaklida aniqlangan kattaliklaridan iborat. Bu axborotlar EHMga asoslangan holda matematik modellashtirishni va u orqali ijtimoiy bashorat qilishni, tahlil qilish va baholashni amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi davrda iqtisodiy hayotni ma'lum bir konsepsiyalarsiz, mafkuraviy maqsadlarga asoslanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, Prezident Islom Karimovning bozor iqtisodiyotiga o'tish davri tamoyillaridan biri bo'lgan «iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi» tamoyili iqtisodiy hayotning ma'muriy-buyruqbozlik mafkurasidan xoli bo'lishini, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy hayot inson ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liqdir.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi».

Iqtisodiy hayot sotuvchi va xaridor o'rtasida madaniy, ma'naviy munosabatlarsiz mavjud bo'lmaydi. Agar ishchining mafaatlari, ehtiyojlari inobatga olinmasa, ularning maqsadi va intilishlariga sharoit yaratilmasa, hech qanday texnik va texnologiya muammolarini hal qilishga imkoniyat bermaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, iqtisodiy hayot sotsiologiyaning tadkikot ob'ektiga aylandi. Xuddi shu davrda ishlab chikarishda inson omilining etakchilik roli anglab etildi va bu boradagi tafakkur shakllanib bordi.

Xozirgi davrda iqtisodiy hayotni ma'lum bir konsepsiyalarsiz, mafkuraviy maqsad larga asoslanmasdan tasavvur kilib bulmaydi. Shunga kura Prezident Islom Karimovning bozor iqtisodiyotiga o'tish davri tamoyillaridan biri bulgan «iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi» tamoyili iqtisodiy hayotning ma'muriy buyrukbozlik mafkurasidan xoli bulishini, iqtisodiyotni erkinlashtirishni kuzda tutadi.

Iqtisodiy hayot inson ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liqdir.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning bozor munosabatlariga utish modelimiz respublikaning uziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar,

urf-odatlar, turmush tarzini xar tomonlama xisobga olishga, utmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, besunaqay rivojlantirishning mudxish merosiga barxam berishga asoslanadi».

Iqtisodiy xayot sotuvchi va xaridor o'rtasida madaniy, ma'naviy munosabatlarsiz mavjud bulmaydi. Agar ishchining mafaatlari, extiyohlari inobatga olinmasa, ularning maqsadi va intilishlariga sharoit yaratilmasa, xech qanday texnik va texnologiya muammolarini xal qilishga imkoniyat bermaydi.

Garb davlatlarida XX asr 60-yillarida iqtisodiy sotsiologiya fanining ijtimoiylashuvi tendensiyasi kuchaydi. Iqtisodiy sotsiologiyani bugungi kunda global va xususiy masalalarni xal qiluvchi fan sifatida tasavvur qilish mumkin.

Iqtisodiy xayotni ijtimoiy talqin etishga birinchi bor g'arbda F.Teylor e'tibor berdi. U ishchilarning mexnatga bulgan kizikishini o'rgandi va 1894 yili mehnatga xaq tulash tizimiga asoslangan nazariyani ishlab chiqdi. Bu g'oya «iqtisodiy odam» konsepsiyasi asosida shu narsalarga e'tibor berildi:

1. Eng qiska vaqtda ishchi kancha ko'p xajmda ish bajarsa, unga shuncha xaq tulash.

2. Ishning xajmini emas, balki samaradorligi va yaxshiligini rag'batlantirish.

3. Ishchilarga kam ish xaq berish va kup berish baravar zararlidir.

4. Ishlovchida yuksak xaq oluvchi bulishga intilish xissini uyg'otish, yuksaklikka intilib yashash.

**Teylor konsepsiyasi** Amerika sanoatida Ford tomonidan ishlab chiqarishga tadbiq etildi, konveyer ishlab chiqarishi sharoitida mexnatning samaradorligi rag'batlantirildi. Sobiq SSSRda iqtisod moddiy rag'batlantirish o'rniga tenglik tushunchasini maydonga tashladi. Natijada mulkning davlat va kooperativ shakli mutloqlashtirildi. Bu esa ishchini mexnatdan, mulkdan begonalashuvga olib keldi. Kam ish xaqi oluvchilarning ish xaqi yuqori malakali mutaxassislarni rag'batlantirmasdi.

Xozirgi sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning quyidagi ko'rinishlarini tadqiq etmoqdalar:

- 1. An'anaviy jamiyat.**

- 2. Industrial jamiyat.**

- 3. Postindustrial jamiyat.**

### **Ijtimoiy taraqqiyot shakllari.**

Sotsiologik adabiyotda, shuningdek qator ijtimoiy fanlar doirasida «sotsial rivojlanish», «sotsial bosqich», «sotsial taraqqiyot» tushunchalari ko'p xollarda sinonim sifatida ishlatiladi. O'quv va ilmiy ish mafaatlari bu tushunchalarni konkretlashtirishni, ularning o'z o'rnida ishlatilishini talab etadi. Sobiq, sho'ro jamiyatshunosligi aqidalariga muvofiq sotsial rivojlanish sifatiiy o'zgarishlar (revolyutsiya) va miqdoriy o'zgarishlar (evolyutsiyaning) dialektik birligi, harakatlantiruvchi kuchlari ijtimoiy ziddiyat, sinflar kurashi bo'lgan jarayondir. Sotsial taraqqiyot (progress) esa ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning qonuniy, tabiiy-tarixiy tarzda almashinishi deb ta'riflangan edi. Sotsial rivojlanish tabiatga nisbatan nisbiy mustaqillikka olingan jamiyatning umumiy yo'nalishidagi harakatini ifodolovchi tushuncha deb olinishi mumkin. «Sotsial evolyutsiya» va «Sotsial revolyutsiya» sotsial rivojlanishning shakllari sifatida qaralishi mumkin. Albatga,

bunda islohot (reforma) o'zgarishlarini yo'lidagi inqilob (revolyutsiya) o'zgarishlari yo'lidagi, ularga bo'ysunadigan rivojlanish shakli deb qarash mumkin emas. Tabiatda ham, jamiyatda ham miqdoriy o'zgarishlar bilan aloqada bo'lmagan sifatiiy o'zgarishlar, (bizning misolimizda inqiloblar), bo'lishi mumkin emas. Sakrashlar, inqiloblar emas, balki evolyutsiya sotsial rivojlanishning shakli bo'lishi mumkin. Bu sotsial evolyutsiyaning sur'ati tashqi va ichki sharoitlar, jamiyatdagi ob'ektiv va subektiv jarayonlar nisbatiga ko'ra tez yoki sekin bo'lishi mumkin. Ijtimoiy rivojlanishda inqiloblar mavjud, lekin, ular ijtimoiy to'ntarish emas, «tez sur'atdagi evolyutsiya», deb qaralishi mumkin. Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li esa — reforma, islohotdir.

Jamiyat va uning qismlari, har bir elementi va hodisalaridagi o'zgarish va rivojlanish ob'ektiv va sub'ektia tomonlarni o'ziga oladigan qonuniyatli jarayondir. Ijtimoiy hayotning har bir sohasida — iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ma'naviy sohalarida o'zlarining ob'ektiv jarayoni deyilganda, kishilar ijtimoiy faoliyat ko'rsatayotgan, ularning hohish, irodalaridan tashqarida bo'lgan sharoit va munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy rivojlanishning sub'ektiv jarayoni deyilganda odamlarning mafkuraviy, ahloqiy, siyosiy va emotsial-ruhiy sabablar bilan harakatga keladigan faoliyatlarni ifodalovchi tushuncha anglanadi.

### **Revolyutsion va evolyutsion taraqqiyot shakllari.**

Avvalo, biz revolyusiya tushunchasiga mumkin qadar aniqroq, ta'rif berishimiz kerak. Kundalik hayotda bu atama turlicha talqinlarga ega. Masalan, davlat tuntarilishi, bir guruh yetakchilarning siyosiy institutlar va hokimiyat tizimini sezilarli o'zgarishlarsiz ikkinchi tizim bilan almashtirish aniq, sotsiologik ma'noda revolyusiya, deb atalishi mumkin emas. Revolyusiya, deb faqat bir qator sharoitlarga javob beradigan hodisalariga atalishi mumkin.

Hodisalar paydar-payligi, agar unda ommaviy ijtimoiy harakat kuzatilmasa, revolyusiya bo'la olmaydi. Mazkur shart revolyusiya toifasidan, aytaylik biror partiyaning saylovlar natijasida hokimiyat tepasiga kelishi, yoki hokimiyatning kichik bir guruh, masalan harbiylar tomonidan qo'lga olinishi kabi vaziyatlarni istisno qilish imkonini beradi.

Revolysiya keng ko'lamli islohotlar va o'zgarishlarga olib keladi. Jon Dan ko'rsatishicha, bu tamoyilga ko'ra hokimiyat tepasiga kelgan odamlar jamiyatni boshqarishga o'zlari ag'darib tashlagan odamlardan layoqatliroq bo'lishi kerak; revolyusiyaning yetakchilari hech bo'lmaganda o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarning ba'zilariga erishishlari kerak. Shunga o'xshash harakatlar hokimiyatning faqat tashqi, shakliy atributlariga ega bo'lib, keyinchalik real boshqarishga noqobil bo'lishsa, bunday jamiyat revolyusion jamiyat hisoblanmaydi. Bu jamiyat xaos holatida bo'ladi, yoki unga parchalanish tahdid soladi.

Revolysiya ommaviy harakat qatnashchilari tomonidan zo'rlik qo'llash tahdidini ko'zda tutadi. Revolyusiya bu — zo'rlik taxdidi yoki uni amalda qo'llash yo'lidan boshqa tarzda hokimiyatdan voz kechishni istamaydigan xukmron doiralar qarshilik ko'rsatishiga qaramay amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlar.

Har uch mezonni birgalikda jamlab revolyusiya, ommaviy harakat yetakchilari tomonidan davlat hokimiyatini zo'rlik yo'li bilan qo'lga olish va bu hokimiyatdan

keyinchalik radikal ijtimoiy islohotlar o'tkazish maqsadida foydalanish, deb ta'rif berishimiz mumkin. Revolyusiyalar zo'rlik bilan tahdid qilish yoki zo'rlikni qo'llash bilan bog'liq, biroq, jiddiy o'zgarishlarga olib kelmaydigan qurolli qo'zgonlardan farq qiladi. XVII asrda yuz bergan barcha ommaviy harakatlar amalda revolyusiya emas, qo'z'lonlar edi. Masalan, Yevropada o'tgan asrlarda krepostnoy dehqonlarning o'z xo'jayinlariga qarshi chiqishlari tez-tez bo'lib turar edi. Shunga qaramasdan, ularning maqsadi, odatda, xujayinlardan yaxshiroq, muomalani talab qilish yoki bir qattiqo'l boshqaruvchini boshqasi bilan almashtirishdan nariga o'tmasdi. U davrlarda mavjud jamiyatning siyosiy tuzilmasini radikal o'zgartirish maqsadida amalga oshiriladigan ijtimoiy harakatlar hali ma'lum emasdi.

Evolyutsiya (yun. ebolitio — avj oldirish, rivojlantirish) — revolyusiya (inqilob)ga va inqilobiy yo'lga qarshi bo'lgan, tadrijiy rivojlanish usuli, u to'g'risidagi falsafiy ta'limot. Zamonaviy evolyusion nazariya butun borliqni rivojlanishda, deb qaraydi. Evolyusion nazariya XIX asrda paydo bo'ldi. Ch. Darvin o'zining turlarni kelib chiqishi to'g'risidagi ta'limotida organik olamning tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini ko'rsatib berdi. XX asr oxirida tabiatshunoslikda “katta portlash nazariyasi” paydo bo'lishi bilan koinotning keyingi evolyutsiyasiga bir qator aniqliklar kiritildi. Hozirgi zamon tabiatshunosligi “har qanday mavjudot evolyutsiya natijasi”dir degan g'oyaga asoslanadi. Dunyoning zamonaviy manzarasi evolyutsiyaning umumiy xarakterga ega ekanligini isbotlamoqda. Fanlararo soha hisoblangan kibernetika evolyutsiya mexanizmini o'rgana boshladi. XX asr 70-yillarida bu soha har qanday ob'ekt evolyutsiyasini harakatga keltiruvchi kuchni tahlil qilishga kirishdi. Tabiatda, jamiyatda va ma'naviy dunyodagi evolyutsiya mohiyatini ochib berishga harakat qilmoqda. Ulug' mutafakkirlar inqilob vayrongarchilikka asoslangan, odamlarning moddiy va ma'naviy asoslariga zarar yetkazadigan, qadriyatlarini yo'q qiladigan sotsial hodisa ekanligini ko'rsatganlar. P. Sorokinning fikricha, inqilob jamiyatni sotsiallashtirmaydi, odamlar ahvolini yomonlashtirib, erkinlikni bo'g'adi. Jamiyat o'z taraqqiyoti yo'lida kelgan inqirozlarni islohotlar orqali hal etadi. Jamiyatni bosqichli rivojlanish haqidagi nazariyalarda ham bir to'lqindan ikkinchi to'lqinga o'tishda inqilobiy o'zgarishning yuz berishi aytiladi. Biroq, mohiyatan bu inqilob qonli urushlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy inqilobdan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy inqilob deb siyosiy tizimni zo'rlik bilan va vaziyat hisobga olmay og'dirib tashlash nazarda tutiladi. Bu esa, jamiyat hayotini izdan chiqaradi, xalqqa kulfat keltiradi. Evolyusion o'tish esa, hozirgi davrda texnologik o'zgarishlar, moddiy va ma'naviy ravnaq, ta'lim tizimini isloh qilish orqali ro'y bermoqda. O'zbekistonning mustaqillikni mustahkamlash, demokratik jamiyat bozor munosabatlariga bosqima-bosqich o'tish yo'li jahon mamlakatlari tadrijiy taraqqiyotining ilg'or yutuqlariga asoslangan. Bu borada amalga oshayotgan “Taraqqiyotning o'zbek modeli” ana shu mezonlarga javob beradi.

**Sotsial boshqaruv.** Boshqaruv tashkilotning maxsus organining funksiyasi bo'lib eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahiralar) sarflab eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir. Sotsial boshqarish bu ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. XX asr bozor iqtisodiyoti

rivojlanishi bilan boshqarish xususiyatidagi faoliyat menejment paydo bo'ldi. Menejment (inglizcha-management) — bir necha ma'noni bildiradi. Birinchidan, menejment ishbilarmonlik faoliyatiga, turmush tarzi va siyosat sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial va iqtisodiy institut deb tushuniladi. Ikkinchidan, menejment xususiy va ijtimoiy bazis sohasida boshqarish mehnati bilan shug'ullanuvchi shaxslar majmuini bildiradi. Uchinchidan, menejment, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning texnikaviy tashkiliy, huquqiy, ruhiy va sotsial jihatlarni o'rganadigan fandır. Oxirgi ma'noda u industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi bilan mos keladi. Ma'lumki, industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi boshqarish tizimini, shaxslararo munosabatlar tizimi va mexanizmini, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyasini, tashkiliy faoliyatini o'rganadi. Menejmentning maqsadi — har qanday ijtimoiy tuzumga mos keladigan boshqarishning umumiy tamoyillarini shakllantirish va ularni amalda qo'llashdir. Bularga boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni bajarish uchun konkret tadbirlarni ishlab chiqish, vazifalarni bajarishdagi ketma-ketlikni belgilash, ishni taqsimlash, tashkilot ichidagi turli bo'linmalar o'zaro harajatini mutanosiblash, rasmiy ierarxal (yuqori-past) strukturani optimallashtirish (ixchamlashtirish, qulaylashtirish), shuningdek rahbarlikning samarali uslubini, sotsial mas'uliyatni aniqlash kiradi. Sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish sotsial boshqarishning shakllari sifatida qaralishi mumkin. Sotsial rejalashtirish — sotsial boshqarishning dastlabki bosqichlariga xosdir. Rejalashtirish — o'ziga xos sotsial boshqarish bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy jarayonlar maqsadini, uning ustivor tomonlarini, ularga erishishning vosita va maqsadlarini aniqlash, rejalar ishlab chiqish va ularni bajaruvchilarga yetkazish, rejalar bajarilishi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Odatda, direktiv va indikativ rivojlantirishni farqlashadi. Direktiv rejalashtirish yuqori organlar tasdiqlagan ko'rsatkichlar majburiy bajarilishini taqozo etadi. Indikativ rejalashtirishda reja ko'rsatkichlari yo'naltiruvchi, axborot tarzida bo'ladi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar rejalashtirishni mutloqlashtirganlari uchun, u jamiyat rivojlanishi yo'lidagi to'siqqa aylangan edi. Bozor iqtisodi amal qilayotgan ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda indikativ rejalashtirish keng qo'llaniladi. Ayniqsa, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreyada rejalashtirish yaxshi samara bermoqda. 1962 yildan beri «rejali» rivojlanayotgan Janubiy Koreya jahonda yetakchi o'rinlardan biriga chiqdi. Hozirgi vaqtda bu mamlakatda 1990—1994 yillarda fanda eng ko'p qo'llanilayotgan sohalarni rivojlantirish bo'yicha reja qabul qilingan va bajarilmoqda. Sotsial boshqarishni yana bir shakli sotsial loyihalashtirish tushunchasi hali mavjud bo'lmagan, lekin yaratilishi lozim bo'lgan, shuningdek tubdan o'zgarish lozim bo'lgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi. Sotsial loyihalashtirishni sotsial rejalashtirishning ko'rinishi deb ham aytish mumkin. U ijtimoiy munosabatlar, sotsial jarayonlar va aholi yashash sharoitlarni yaxshilash vositasidir. Sotsial rejalashtirish mavjud bo'lmagan yoki tubdan o'zgarish lozim bo'lgan ob'ektlarga nisbatan «rivojlanish» iborasini qo'llash qiyin. Ular yaratilgandan so'nggina rivojlanishi mumkin. Sotsial loyihalashtirish sotsial rivojlantirishni emas, balki yangi ob'ektlarning dastlabki sotsial holatini loyihalashtirishdir. Undan tashqari, agar sotsial rejalashtirishda



sotsial jarayonlarning hamma boshlang'ich sifatiy va miqdoriy ko'rsatkichlarni aniq ko'rsatilgan ob'ekt bilan ish ko'rilsa, sotsial loyihada esa bu boshlang'ich tavsiflar mavjud bo'lib turgan sotsial institutdagidek bo'lmaydi. Ijtimoiy rivojlanish sub'ektlarning maqsadga muvofiq faoliyati orqali ro'y beradi. Anglangan ehtiyojlar — manfaatlar bu faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlardir. Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarni qondirilishi uchun sotsial jarayonlar boshqarilishi talab etiladi. Umumiy ma'noda boshqarish takomillashgan (biologic, texnik, sotsial) tizimlarning faoliyati ta'minlash uchun, ularning dastur va maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan funksiyadir (vazifadir). Sotsial boshqarish jamiyat muayyan tizimining tartiblanishi, saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Sotsial boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir: axborotni yig'ish va uni qayta ishlash; uni analiz etish; taqsimlash; maqsadga erishishga qaratilgan qarorning ishlab chiqilishi; rejalashtirish, dasturlashtirish; loyihalashtirish ko'rinishda umumiy qarorni bajarish uchun faoliyatni tashkil etadi; bu faoliyatni nazorat etish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan birgalikda; faoliyat natijalari haqidagi axborotni to'plash va qayta ishlash.

Sotsial boshqarish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilishi, oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bashorat kategoriyasi ikki ma'noda konkretlashadi: oldindan aytib berish (deskriptiv, ya'ni tavsiflash manosida) va oldindan ko'rsatma berish (preskriptiv, undov, amr, buyruq. ma'nosida). «Oldindan aytib berish» kelajak to'g'risidagi axborotni olish, kelajak muammolarining mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan, xohlayotgan istiqbollari, holatlari, yechimlarining tavsifidir. «Oldindan ko'rsatib berish» (Bestujev-Lada iborasi) — o'sha muammolarni yechish, kelajak haqidagi axborotdan foydalanish, axborotni shaxs va jamiyatning maqsadiga muvofiq faoliyatiga aylantirishdir. Zotan, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar talablariga muvofiq kelishiga erishish, bu qonuniyatlardan samarali foydalanishdir. Sotsial boshqarish bu ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

## **9-mavzu: Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari.(4 soat)**

### **Reja**

- 1.Sotsiologik tadqiqot dasturi.
2. Sotsiologik tadqiqot turlari.
3. Sotsiologik tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

#### 4.Xulosa va amaliy tavsiyalar berish.

Empirik sotsiologik tadqiqot, uning asosiy bosqichlari.

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimgi yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot – yagona dastur va uslubiyot bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlari to'g'risida olingan. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy fakt deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihadlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Hozirda, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyat hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur.

Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishda va uni rejali prognoz berish bilan ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun, uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlarga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

I Bosqich. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:

- 1.1. Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash;
- 1.2. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha buyurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzish;
- 1.3. Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va byudjet /sarf qilinadigan harajatlar smetasini/ tuzish;
- 1.4. Dastur ishlab chiqish;
- 1.5. Tadqiqot uslubiyoti, texnikasi va vositalarini ishlab chiqish.

II Bosqich. Asosiy bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:

- 1.1. Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish;
- 1.2. Pilotaj;
- 1.3. Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish;
- 1.4. Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish;

III Bosqich. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:

- 1.1. Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlarga ajratish;
- 1.2. Taqsimiy jadval tuzish;
- 1.3. Empirik ma'lumotlarni kompyuterlarga kiritish va modellashtirish;

IV Bosqich. Yakunlovchi bosqich bo‘lib, olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi:

- 1.1. Tadqiqot ma‘lumotlarining dastlabki tasnifi va nazariy jihatdan fahmlamoq;
- 1.2. Ilmiy nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish;
- 1.3. Berilgan vazifa bo‘yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

I bosqich: amaliy tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish bosqichi.

- 1.1. Empirik tadqiqot maqsadini aniqlash va belgilash;
- 1.2. Empirik tadqiqot g‘oyasini ishlab chiqish;
- 1.3. Empirik tadqiqot jarayonini tashkil etish;
- 1.4. Analitik muolaja tayyorlash;

II Bosqich. Asosiy bosqich: empirik tadqiqot va eksperiment o‘tkazish;

III Bosqich. Olingan empirik ma‘lumotlarni qayta ishlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi:

- 1.1. Olingan empirik tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash;
- 1.2. Nazariy jihatdan qayta ishlash;
- 1.3. Olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash.

Har qanday tadqiqot biron-bir muammoning qo‘yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o‘zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo‘lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy shakllari:

1. Davlat buyurtmasi; 2. Xo‘jalik shartnomasi asosida; 3. Jamoatchilik; 4. Aralash tartibda bo‘lishi mumkin.

Empirik sotsiologik tadqiqot ob‘ekti bo‘yicha o‘tkazilgan dastlabki tahlililar asosida mavjud muammoni tadqiq qilish dasturi ishlab chiqiladi. Ilmiy dastur har qanday amaliy va nazariy sotsiologik tadqiqotning dastlabki zarur hujjati hisoblanadi. Dastur sotsiologik tadqiqot ob‘ekti bo‘yicha ishchi farazni tekshirishga qaratilgan, shuningdek, tadqiqot bo‘yicha ilmiy faraz, bajariladigan asosiy vazifalarni va sotsiologik tadqiqot metodologik asosining bayonidan iborat. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma‘lumot berilishi annotatsiya deb ataladi.

Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga: 1. tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; 2. ishchi farazni ishlab chiqish; 3. dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

I. Nazariy-metodologik qism:

- 1.1. Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.
- 1.2. Tadqiqot ob‘ekti va predmetini belgilash.
- 1.3. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.
- 1.4. Tadqiqot predmetining dastlabki taxminiy tahlili.
- 1.5. Ishchi farazni ishlab chiqish.

## II. Amaliy sotsiologik tadqiqot ish jarayoni qismi:

2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi.

2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari.

2.3. Tanlov ishlari

2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi

2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yo'nalishlar.

## III. Xulosa qismi:

1.1. Tadqiqot natijalarini mazmunan tasnifi.

1.2. Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari /asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat/.

Tadqiqot maqsadi va vazifasi. Dasturning ushbu qismida sotsiologik tadqiqot buyurtmachisi va bajaruvchilar o'rtasidagi munosabat o'zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan harajatlar: moliyaviy va mehnat resurslari hisoblab chiqiladi.

Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini ko'tarish muammosini sotsiologik tadqiq qilish zarur bo'lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligini pastligining birinchidan, asosiy sabablarini aniqlash, ikkinchidan, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va uchinchidan esa mavjud shart-sharoitni o'zgartirishdan iborat bo'ladi. Tadqiqotning asosiy vazifasi esa belgilab olingan maqsadni mazmunan, uslubiy va tashkiliy jihatdan yanada oydinlashtirib olishdan iborat bo'ladi.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti. Tadqiqot predmeti – mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot ob'ekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti tanlanganda, mavjud muammoni echish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot ob'ekti deganda, sotsiologik tadqiqot yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ob'ekti tizimli xususiyatga, asosan, vaqt, makon, imkoniyat va miqdoriy o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-usulbiy darajasida ob'ektini tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo xarakteri, uning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifasi, tadqiqot ob'ektining qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot ob'ekti unchalik katta bo'lmasa, sotsiologik jihatdan uni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lsa, bir butun holda tadqiqot ob'ekti qilib olish mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi. SHuning uchun bunday vaziyatda tadqiqot ob'ektining nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

Dasturda aniq ko'rsatilishi zarur:

1/ empirik tadqiqot ob'ekti; 2/ sotsiologik tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi? 3/ tanlov asosida olib

boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi /ro'yhat tuzish, kartoteka, sotsiologik xarita kabilar/.

Sotsiologik tadqiqot farazi. Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi – o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa tarkibi yoki uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xarakteri to'g'risidagi ilmiy farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayotgan ob'ekt to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi.

Faraz – bu, tadqiqot uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga bog'liq bo'ladi. SHuni ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish – empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish demakdir.

Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazning to'g'ri ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiylik darajasi past bo'ladi.

Dastur tarkibidagi amaliy qismning muhim jihati – empirik tadqiqot uslubiyoti, texnikasi, jarayoni va usullarini asoslashdan iborat.

Sotsiologik tadqiqot uslubiyoti – xususiy sotsiologik usullar majmui foydalaniladi. Metod /usul/ tushunchasi keng ma'noda bilimlar tizimini yuzaga keltirish va asoslash usuli, vositasi demakdir. Sotsiologiyada usul sifatida umumsotsiologik prinsiplar ham, ijtimoiy voqelikdagi jarayonlar va hodisalarni bilishdagi xususiy prinsiplar va konkret usullar – matematik-statistik usullar, sotsiologik axborotni yig'ish usullari: kuzatish, so'roqlar, eksperiment va hujjatlarni o'rganish usuli va boshqalar tushuniladi.

Sotsiologik tadqiqot texnikasi – maxsus usullarining birligini anglatib, u yoki bu usuldan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ifoda qiladi.

Sotsiologik tadqiqot jarayoni – tadqiqotni tashkil etish usuli, vositasi, barcha bilish va tashkiliy faoliyatning tartib bilan borish jarayonini anglatadi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot olib borish jarayonida konkret tadqiqot usullarining ahamiyati katta. Ular yordamida dastlabki empirik ma'lumotlar yig'ib boriladi. Ular kuzatish, so'rovlar, hujjatlarni o'rganish va eksperiment usullaridir.

### **Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari.**

#### **a) Sotsiologik tadqiqotda kuzatish usuli.**

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish – dastlabki empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puxta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borilayotgan ob'ektidan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlar ob'ektiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda sub'ektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. Chunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayoniga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi.

Kuzatish usulining yana bir muhim jihati uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmasligidadir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki, kuzatish orqali tadqiqotchini qiziqtirgan savolga kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha faqat so'z bilan ifodalanadi. Ammo, ba'zi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yozish va so'z orqali ifodalash qiyin bo'ladi.

Kuzatish jarayonining xarakteriga qarab uni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin: nazoratli /ochiq/ va nazoratsiz /inkognito/, to'la qamrovli /standartlashtirilmagan/ va qamramaydigan / standartlashtirilgan/, dala sharoitida va laboratoriya sharoitida, ichkaridan va chetdan kuzatish.

Nazoratli, ya'ni ochiq kuzatishda kuzatilayotgan guruh oldindan ogohlantirib qo'yiladi, nazoratsiz, ya'ni inkognito kuzatishda esa, aksincha, guruh o'zini kuzatilayotganliklarini sezmaydi.

To'la qamrovli, standartlashtirilmagan kuzatishda u aniq bir harakat rejasiz amalga oshiriladi, standartlashtirilgan, ya'ni to'la qamramaydigan kuzatishda kuzatuvchi tadqiqot predmeti va jarayoniga nisbatan aniq chegaralangan programmaga asoslanadi.

Dala sharoitida kuzatish ob'ekti qilib sotsial voqelikning u yoki bu tomoni, jarayoni olinadi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatishda esa ob'ekt qilib ob'ektiv voqelikki ma'lum bir darajada moslashtirilgan model olinadi.

Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan ob'ektda ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va unga bo'ysunadi, chetdan kuzatishda esa tadqiqotchi ob'ektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi.

Ichkaridan kuzatishga misol qilib Amerika sotsiologi Uilyam Uaytning «Ko'cha burchaklari jamiyati» kitobida yoritilgan /1937/ tadqiqotini olish mumkin. Avtor, Italiya emigrantlari oilalaridan chiqqan yoshlar ichida reketning vujudga kelish jarayonini o'rganish niyatida, shu muhitda uch yarim yil yashagan, ular bilan bir xil hayot kechirgan.

Sotsiologik kuzatish ob'ekti insondir, shuning uchun tadqiqot jarayonida tadqiqotchining maqsadini intuitiv holda his qilib, o'z xulq-atvori yoki xarakterini o'zgartirishi mumkin. Natijada, olingan ma'lumot sotsiologning talabiga javob bermaydi.

Demak, sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Chunki, kuzatish usuli orqali olingan ma'lumotlar, natijalar o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida to'la ma'lumot bera olmaydi. Bu usuldan ko'pincha sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, ob'ekt to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun yoki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari yordamida olingan ma'lumotlarni, statistik hujjatlarni qo'shimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi.

#### **b) So'rov usuli va uning turlari.**

Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri so'rov usulidir. So'rov usuli yordamida boshqa hujjatli manbalarda uchramaydigan va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olish mumkin bo'lmagan ma'lumotlar, axborotlarni

olish mumkin. SHuning uchun, kishilar, ijtimoiy hayot jarayonlariga bo'lgan munosabatini, fikrini sotsiologik jihatdan o'rganishda so'rov usulining ahamiyati beqiyos kattadir. Ayniqsa, hozirda, jamiyatimizning bozor munosabatlariga o'tib borish jarayonida, ijtimoiy kommunikatsiyaning roli ortib borishi bilan so'rov usulining sotsiologik tadqiqotlar olib borishdagi o'рни va ahamiyat yanada ortmoqda.

So'rov usulidan dastlabki sotsiologik axborotlarni olish uchun foydalaniladi. So'rov o'z xarakteri bilan og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Tadqiqotchining respondent /inglizcha – so'z bo'lib, javob bermoq ma'nosini anglatadi, ya'ni anketa savollariga va intervyuga javob beruvchi tushuniladi/ bilan muloqotda bo'lish shakli va sharoitiga qarab so'rov yozma – anketa orqali va og'zaki – intervyu olish, yashash joyi va uyushgan auditoriyada /mehnat jamoasida, mahallada, o'quv yurtida/, sirtidan /ro'znoma orqali, pochta orqali anketa o'tkazish/ va yuzma-yuz, telefon orqali, guruhli yoki individual kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Formallashtirish darajasi bilan oldindan rejalashtirilgan va erkin, bir marotaba va takror bo'lishi mumkin. Ekspert so'rovi ham sotsiologik tadqiqotlarda muhim o'rin tutmoqda. Olingan mavjud sotsiologik ma'lumotlarni qayta tekshirishda, ularni qanchalik mos ekanligini aniqlashda ekspert so'rovi turidan foydalaniladi.

So'rov usulidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin: 1/ o'rganilayotgan muammo bo'yicha etarli darajada ma'lumotlar kam yoki mutlaqo bo'lmaganda; 2/ tadqiqot predmeti yoki uning ayrim jihatlarini kuzatish imkoniyati bo'lmaganda; 3/ tadqiqot ob'ekti sifatida ehtiyoj, manfaatlar, qiziqishlar, kayfiyat, qadriyatlar, e'tiqod, ishonch, yoqlash kabi ijtimoiy yoki individual ong elementlarini o'rganish jarayonida; 4/ so'rov usulining imkoniyat darajasini oshirish maqsadida qo'shimcha tarzda va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olingan empirik ma'lumotlarni qayta tekshirish uchun; 5/ muayyan ijtimoiy muammo ustida olib borilayotgan sotsiologik tadqiqot jarayonini qanchalik to'g'ri ekanligini nazorat qilib borishda.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, sotsiologik tadqiqotlarda so'rov usulidan yozma ravishda – anketa orqali va og'zaki – intervyu olish orqali foydalaniladi.

Anketa orqali so'rov o'tkazish eng keng tarqalgan so'rov turi hisoblanadi. Chunki, anketa savollari orqali respondentlardan olinadigan javoblarni umumlashtirib, guruhlashtirish bilan tadqiq etilayotgan ijtimoiy muammo to'g'risidagi jamoatchilik fikri oydinlashadi. Olingan ma'lumotlarning qanchalik to'g'ri, ob'ektiv va hayotiy ekanligi esa tadqiqotchilar tomonidan tuziladigan anketa savollarining qanchalik mohirona va savodli ekanligiga bog'liq bo'ladi. Anketaga kiritilgan savollar sodda, tushunarli va javob berishga qulay tuzilishi shart. Unda respondent xarakteri, yoshi, kasbi, ma'lumot darajasi va ruhiy jihatlari hisobga olinmog'i lozim. Aks holda, anketa so'rovi o'rganilayotgan muammo to'g'risida ishonchli, ob'ektiv ma'lumotlar bermasligi mumkin.

Anketa so'rovi orqali empirik ma'lumotlarning aniq, hayotiy bo'lishi – anketa o'tkazish jarayonini qanchalik to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Anketa o'tkazishning asosiy komponentlari – tadqiqotchi, so'roqlov varaqasi va respondent hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tadqiqot o'tkazilayotgan ob'ektning

rasmiy va norasmiy vakillari, rahbarlari tomonidan respondentlarga anketani tarqatish va ularni to'ldirish vaqtida nazorat qilishga yo'l qo'yilmasligi, respondent tomonidan mustaqil, o'zgalarning maslahatisiz to'ldirilishi shart. Anketa to'ldirishda respondentning ismi-sharifi ko'rsatilmasligi kerak. Chunki, anketa varaqasiga ismi-sharifini ko'rsatish talab qilinsa, o'rganilayotgan muammo to'g'risida salbiy yoki e'tirozli fikr bildirishdan cho'chib, respondent o'z fikrini ochiq-oydin yozmasligi mumkin. Siyosiy, ma'muriy tazyiqlardan yuragini oldirib qo'ygan o'zbek fuqarosi buni juda yaxshi tushunadi. Boshqa jihatdan esa, ko'pchilik kishilarga xos, yuqori rahbariyatga yaxshi ko'rinish, boshlig'iga shaxsiy sodiqligini bildirib qo'yish maqsadida ham berilgan savollarga noreal, «o'ta ijobiy» javob berib, kimligini bildirib qo'yish maqsadida ismi-sharifini ataylab ko'rsatib qo'yadiganlar ham uchrab turadi. Shuningdek, anketa savollariga, tadqiqot ishiga qarshi shaxslar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun, respondentlar bilan juda ehtiyot bo'lib, chiroyli, do'stona muomalada bo'lish zarur. Anketa o'tkazish davomida tadqiqotchidan yumshoqlik, shirinsuxanlik talab qilinadi.

Anketa o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. Anketa so'rovi: 1/ eng avvalo, anketa savollari tizimini ishlab chiqish jarayonini o'z ichiga oladi; 2/ anketa so'rovini kim tomonidan, qanday maqsadda o'tkazilishini va respondentlarga anketa to'ldirib berishni o'z ichiga oladi; 3/ anketa pasporti ham tarkibda muhim o'rin tutib, unda respondentning ijtimoiy-demografik xarakteristikasi tushuntiriladi. Bunda respondentning yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va holati, ma'lumot darajasi, kasbi, partiyaviyligi, oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlar aniqlanadi. Ko'pincha pasport anketaning oxirida beriladi. Ko'pchilik sotsiologlarning fikricha, agar pasport anketaning boshida berilsa, respondentni cho'chitib empirik ma'lumotning aniq va to'g'ri, hayotiylik darajasini pasaytirib yuboradi.

Asosiy savollar anketa tarkibida markaziy o'rin egallaydi. Chunki, asosiy savollarga beriladigan javoblar sotsiologik tadqiqotlarning asosiy ma'lumotlari hisoblanadi.

Intervyu hozirgi kunda eng ko'p va keng tarqalgan so'rov usulidir. Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televidenie, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Shuning uchun ham intervyu sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, statistika, etnografiya, pedagogika, boshqaruv singari fanlarda keng va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyu olishning salmog'i ortmoqda. So'rov usulining bu turida intervyu ikki asosiy funksiyani bajaradi: 1/ muayyan voqea-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi; 2/ shu bilan birga, ob'ektga – respondentga intervyu orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda intervyu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish shaxsning individual jihatlari bilan ro'baro kelinadi. SHu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi.



Intervyu olishda tadqiqotchi respondent bilan yaqin, samimiy, yuksak ahloqiy muomalada bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyu so'roviga jiddiy munosabatda bo'lib, beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Intervyu olishda o'ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud. Bunday qiyinchiliklarga eng avvalo intervyu ko'p vaqt va moddiy sarf-harajatlar talab qilishini kiritish lozim. Har bir respondent bilan ruhiy munosabat o'rnatish zarur. Bunga esa doimo ham erishilavermaydi. O'ta injiq, alamzada, hatto tajovuzkor respondentlar ham uchrab turadi. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish madaniyati esa intervyu yakunining doimo muvaffaqiyatli va ijobiy tugallanishini talab qiladi.

Intervyu tayyorlash, uni o'tkazish va olingan natijalarni umumlashtirishning o'zi qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan muammoning mohiyatini, kelib chiqish sabablarini, umumiy tendensiyalarini va uni bartaraf qilish yo'llarini o'rganish uchun yuzlab respondentlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri keladi. 1-2 intervyu olish bilan tadqiqot ob'ekti bo'yicha ob'ektiv asosga ega bo'lgan ilmiy tasavvur hosil qilib bo'lmaydi.

Sotsiologik adabiyotlarga intervyu bir necha turlarga ajratib ko'rsatilgan, quyidagilar shular jumlasidandir:

Erkin intervyu /standartlashtirilmagan/ – bunda respondent bilan uzoq, erkin tarzda suhbat o'tkaziladi.

Standartlashtirilgan intervyu – oldindan rejalashtirilgan, muayyan mavzuning qat'iy belgilangan doirasidan chiqmaydigan turiga aytiladi. Intervyuning bu turi asosan davlat rahbarlari, siyosiy arboblari, siyosatchilar, mas'ul va ma'muriy shaxslar – respondentlar bilan o'tkaziladi.

Yarim standartlashtirilgan intervyu esa qat'iy belgilangan savollardan tashqari respondentning yoki tadqiqot ob'ekting norasmiy jihatlarini oydinlashtirish, ular to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'tkaziladi.

O'tkazish jarayoniga ko'ra intervyu: a/ ko'cha-ko'yda, b/ guruhli, v/ klinik, g/ yo'naltirilgan kabi shakllarga ega. Muloqot vositasi sifatida esa chik, yuzma-yuz, telefon orqali yoki yopiq tarzda bo'lishi mumkin.

Ayrim respondentlar bilan yopiq tarzda intervyu o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Bunda respondentning shaxsi sir tutiladi. Chunki, respondent ochiq intervyu berishdan manfaatdor bo'lmaydi. Ko'pincha, yopiq intervyu davlat ichki ishlar maxsus bo'limlari vakillar bilan, ayrim jinoyatchilar bilan, or-nomusni yo'qotib pushaymon bo'lgan shaxslar – respondentlar bilan olib boriladi.

Intervyuning har qanday tipidan /kamida 50 dan ortiq respondentdan/ olingan empirik ma'lumotlar mazmun jihatdan guruhlarga ajratilib, umumlashtiriladi. Bu esa sotsiologik tadqiqot jarayonining keyingi bosqichida amalga oshiriladi.

Sotsiometriya – kichik guruhlarni tarkibiy tahlil qilish usuli.

Sotsiometriya /lotincha so'z: societas – jamiyat va yunoncha so'z: metron – o'lchamoq ma'nosini anglatib/ kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganadi. Unda kishilarning o'zaro bir-birlarini xush ko'rish, yoqtirish va xush ko'rmaslik mayillari o'rganiladi.

Sotsiometriya tushunchasi XIX asr oxirida matematik usulning ijtimoiy hayotga tadbiiq qilishi oqibatida paydo bo'ldi. Sotsiometriyaga XX asrda fransuz sotsiologi, faylasufi G.D.Gurvich /1894-1965/ va amerika ruhshunos olimi YA.L.Moreno /1892-1974/ lar tomonidan asos solingan. Ular kichik ijtimoiy guruhlarda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish – mikrosotsilogiyada sotsiometriyani qo'lladilar. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyada sotsiometriyaning ahamiyati katta bo'ldi.

YA.L.Morenoning sotsiometriya tizimi 5 asosga ega edi:

1. Kishilarning o'zaro xush ko'rishlik va yoqtirmaslik asosidagi ehtiros quvvati. Ularni aniqlash sotsiometriyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Jamiyat «sotsial atomi» alohida individ emas, balki individlarning birgalikdagi munosabatidan iborat. Bu aloqadorlik jarayoni ikki darajaga ega: o'z-o'zidan yuzaga keluvchi va real – bunda ehtirosli sherik shu bosqichda o'rganiladi.

3. Sotsial gravitatsiya qonuni.

4. Sotsiologik qonun.

5. Sotsiodinamik qonun.

Kishilar hayot faoliyat davomida o'zaro bir-birlariga nisbatan ijobiy /simpatiya/ yoki salbiy /antipatiya/ tuyg'ularga ega bo'ladilar. Har qanday kichik ijtimoiy guruh, tashkilot va muassasaning faoliyati uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ularda ijtimoiy muhit qanchalik musaffo bo'lsa; ijtimoiy tizim faoliyati ham shunchalik muvaffaqiyatli boradi. Aks holda, kichik guruhlar va ulardagi kishilar hayoti shunchalik qiyin va og'ir kechadi. Sotsiometriya esa shu qiyinchiliklarni, nomuvofiqlilarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi, undagi kishilar hayoti ham butun olam tortishish qonuniga bo'ysunadi. Xuddi tabiatdagidek, jamiyatda ham kishilar o'zaro gravitatsion /o'zaro tortishishga asoslangan/ munosabatda bo'ladi. Tabiatdagidan farq qilib, jamiyat hayotida bu qonuniyat o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Aql kuchi, bioquvvat, xarakter, temperament, mayl, ta'b, odat, tarbiya, did, e'tiqod va shu kabi ijtimoiy-ruhiy omillar kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab gravitatsion asosini tashkil qiladi. Ular asosida kishilar o'zaro yaqin «tortiladilar», do'stona, samimiy bo'ladilar yoki bir-biridan uzoqlashadilar, adovatda bo'ladilar. Sotsiometriya shu jarayonlarni miqdoriy jihatdan o'rganadi. O'z navbatida miqdoriy o'lchovlar sifatiiy ko'rsatkichlarni farqlashga xizmat qiladi.

#### **v) Birlamchi ma'lumotlar olishda hujjatlarni o'rganish.**

Hujjatlarni o'rganish ham sotsiologik ma'lumotlar yig'ishda o'ziga xos o'ringa ega.

Hujjatlar ma'lumotlarni to'plash usuliga ko'ra /qo'lyozma, bosma, kinoplyonka, magnit lenta/, avtorlik tipiga ko'ra /shaxsiy va ijtimoiy/, ularni yig'ish usuliga ko'ra /jamiyatda amal qiluvchi, tashkilot, kollektiv, korxonaa faoliyati jarayoniga tashkiliy qism bo'lib kiruvchi hujjatlar/, yig'ilyotgan empirik materialga yaqinlik darajasiga ko'ra /mavjud holatni bevosita aks ettiruvchi birlamchi va mavjud hujjatlarga asoslanib ko'rilgan ikkilamchi hujjatlar/ klassifikatsiyalanadi.

Hujjatlarni o'rganish metodlarini ikki katta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy va formallashtirilgan. O'z navbatida, an'anaviy metodlar ham ikki guruhga bo'linadi: umumiy /tushunish, intuitsiya, anglab etish/ va maxsus /manbalarga asoslanish, psixologik, yuridik metodlar/. Formallashtirilgan metodlarga kontent-analizni kiritish mumkin. Kontent-analiz /tarkibiy analiz/ metodi hujjatda ma'lum bir asosiy tushunchalarning qanchalik ko'p ishlatilishiga asoslanib xulosa chiqarishdan tashkil topadi. Misol tariqasida ikkinchi jahon urushi yillarida amerika sotsiologi Lassuelning Leyts bilan birga olib borgan kontent-analizini olish mumkin. Ular fashistik orientatsiyaga asoslangan deb taxmin qilingan. Amerika gazetalaridan birini tadqiq qildilar. Shu gazetaning 1943 yil 3 dan 31 dekabrgacha bo'lgan davrdagi sonlarini kontent-analiz metodi bilan o'rgandilar va ularda Amerikaga qarshi va Germaniyani yoqlovchi fikrlar qo'llanish hollarini hisoblab, sanab chiqdilar. Natijada, tadqiqotchilar olgan xulosalar ijobiy ekanligi aniqlanib, bu gazetada AQSH Oliy Sudi tomonidan ta'qiqlangan.

### **g) Sotsiologik tadqiqotda eksperiment usuli.**

Sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida dastlabki empirik ma'lumotlarni to'plashda tajriba o'tkazish alohida o'rin tutadi. Sotsial eksperiment usulining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: ob'ektiv reallik tizimiga ta'sir ko'rsatish; nisbatan ajratib olingan eksperimental omilni tadqiq qilinayotgan ob'ektga nisbatan rejali asosda qo'llash; uning oqibatlarini rejali nazorat qilib borish; o'zgarish samaradorligini, ijobiy va salbiy jihatlarini o'lchash.

Sotsiologiyada eksperiment asosan 3 tipida olib boriladi:

1. Ekspost-fakto eksperiment. Bunda eksperiment o'tmishdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy tadqiqot ob'ekti qilib olinganda o'tkaziladi.

2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bu tipda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlari tadqiqot ob'ekti qilib olingan bo'ladi.

3. Proektli eksperiment. U hozirdan kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi.

Bulardan tashqari, sotsial eksperimentlar: tadqiqot xususiyatiga qarab /fan sohasidagi, ijtimoiy jarayonlarini boshqarishdagi eksperimentlar/; sotsial eksperimentning tarkibining xarakteriga ko'ra; dala va laboratoriya sharoitidagi; mantiqiy tarkibiga ko'ra /parallel va davomiy tarzda/ tiplarga bo'linadi.

Sotsial eksperiment o'tkazish muayyan bosqichlaridan iboratdir:

Birinchi bosqich – nazariy bosqich bo'lib, unda o'tkaziladigan eksperiment tipi belgilanadi va nazariy jihatdan asoslanadi. Mavjud imkoniyatlar eksperiment omillar va tadqiqot ob'ektining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich – eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar va metodikasi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar aniq vositalar orqali ob'ektga tadbiiq qilinadi.

To'rtinchi bosqich – so'nggi bosqich bo'lib, unda eksperimentdan olingan natijalar ilmiy tahlil qilinadi va baholanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat hayotining umumsotsiologik muammolari ustida olib boriladigan sotsial eksperimentlar kutilgan natijalarni bermaydi. Bunda faqat ijtimoiy munosabatalarning funksional va rivojlanish

qonuniyatlariga putur etkaziladi, xolos. Kishilar boshiga og'ir kulfatlar solib, bartaraf qilinishi qiyin oqibatlariga olib kelishi mumkin.

### **Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.**

Empirik sotsiologik tadqiqotning yakuniy bosqichida sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar bajariladi.

Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash sotsiologik tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va kodlashtirish. Bunda asosiy vazifa empirik ma'lumotlar, hujjatlar bir xil shaklga keltiriladi. Rasmiy tarzda ishlab chiqiladi va belgilangan shartlar asosida tartibga keltiriladi.

2. Olingan ma'lumotlarni tadqiqot vazifasiga mos holga keltirish, ya'ni olingan empirik ma'lumotlardan tadqiqot maqsadiga qanchalik erishilganligi va oldinga qo'yilgan vazifa qay darajada hal qilinganligi aniqlanadi.

3. Statistik tahlil. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik tahlil muhim ahamiyatga ega. Statistik tahlil orqali ba'zi ijtimoiy statistik qonuniyatlar va funksional munosabatlar oydinlashadi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish va ulardan ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqot usullari yordamida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda tartiblashtirish, shkallashtirish, munosabatdorlik kabi usullardan ham keng foydalanish mumkin. Tartiblashtirish – bu tadqiq qilinayotgan ob'ektlarning o'zaro nisbiy ahamiyatini tartibli asosda aniqlashni bildiradi. Darajalash – o'rganilayotgan ob'ektni boshqa ob'ektlarga nisbatan xususiy jihatlariga qarab sifat va miqdoriy darajasini aniqlash demakdir. Darajalash ekspert baholashning boshqa usullari bilan yanada to'ldirilishi mumkin.

Empirik ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida asosiy e'tibor tadqiqot ob'ektining faqat ijobiy tomonlarigagina emas, ko'proq echimini kutayotgan muammolarga qaratilmog'i lozim. Bu bosqichda tadqiqot farazi olingan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi. Ma'lumki, ishchi faraz – muayyan ijtimoiy ob'ekt to'g'risidagi taxminiy faraz, xolos. Sotsiologik tadqiqot natijalarining tahlili esa, shu ishchi farazning to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlaydi. Ishchi farazning qanchalik haqqoniyligini tekshirishning samarali vositasi – ijtimoiy amaliyot, kishilarning amaliy, xayotiy faoliyati hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlarni nazariy jihatdan umumlashtirish, muayyan xulosalar ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili va ularni umumlashtirish ilmiy hisobot tarzida tuziladi. Ilmiy hisobot guruhlashtirilgan va tizimlashtirilgan holda tuzilib, kelgusida o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy hisobot tarkibi asosan ikki qismdan iborat bo'lib, nazariy va amaliy bo'limlarni tashkil qiladi.

Sotsiologik tadqiqotning ilmiy hisobotida quyidagi asosiy talablarga e'tibor berilmog'i lozim.

1. Ilmiy hisobotda tadqiqot predmetiga muvofiq muammoning barcha o‘zaro bog‘liq jihatlari chuqur aks etishi zarur. Bunda, sotsiologik muammoning asosiy mohiyatli jihati aniq ko‘rsatilmog‘i kerak. Bajarilgan ishlar esa mantiqiy tartib asosida yozilib chiqiladi.

2. Ilmiy hisobotning har bir bobini ikki qismdan iborat qilib tuzilmog‘i maqsadga muvofiq. Birinchi qism muammo va tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olmog‘i, ikkinchi qism esa – ilmiy xulosalarni, amaliy taklif va tavsiyalarni tashkil etmog‘i kerak.

3. Ilmiy hisobotda anketa savollari umumlashtirilgan holda ixcham qilib ifodalanadi. Hisobot aniq, hayotiy, hujjatli va statistik ma’lumotlar asosida tasdiqlangan bo‘lishi talab etiladi.

4. Ilmiy hisobot ixcham va to‘g‘ri yozilishi zarur. Ko‘pi bilan 30-40 betdan oshmasligi zarur, jadvallar, diagrammalar ilova tarzida ham berilishi mumkin.